

NODIRA SAIDOVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

(PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI)



O'quv qo'llanma

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Nodira Saidova

**UMUMIY PEDAGOGIKA
(PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI)**

O'QUV QO'LLANMA

*60230100 - filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) yo'nalishi talabalari uchun o'quv
qo'llanma*

**BUXORO – 2025
«DURDONA» nashriyoti**

74.00ya73

37.013(09)(075.8)

S 21

Nodira Saidova

Umumiy pedagogika (Pedagogik ta'limotlar tarixi) [Matn] : o'quv qo'llanma / Nodira Saidova – Buxoro: «Sadriddin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2025. – 108 b.

UO'K 37.013(09)(075.8)

BBK 74.00ya73

TAQRIZCHILAR:

Musayeva N.N.

– Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

To'xtayeva Z.Sh.

– Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mazkur o'quv qo'llanma 60230100- Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek) yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, unda eng qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha bo'lgan ta'lim-tarbiya masalalarining mazmuniga oid ma'lumotlar innovatsion texnologiyalar asosida keng yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 - yil 4 - noyabrda "653U" - sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida chop etishga tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 653-48

ISBN 978-9910-10-731-3

© Nodira Saidova

KIRISH

Bugun ta'lim sifatini oshirish, bilimli ,zakovatli mutaxassislarni yetishtirib chiqarish ilm maydonida o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, har tomonlama komil insonni tarbiyalash to'g'risidagi farmonlari ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim samaradorligi yo'lida xizmat qilishi hamda poydevor vazifasini o'tashi muqarrar. Zero, o'tkir zehqli, salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash bugungi zamonaviy ta'limning asosiy mezonlaridan biridir. Bunda o'qituvchi-pedagoglarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilik bu - nafaqat bir kasb, balki jamiyatni rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalash va ularga ilm-fan asoslarini o'rgatish demakdir. Kelajakdagi o'qituvchi bugungi kunda yuz berayotgan texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga mos ravishda, zamon talablariga javob bera oladigan, innovatsion g'oyalarning haqiqiy ijodkori bo'lmog'i lozim. Jahonda ilm-fan, texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar, ta'lim tizimida faoliyat yurita oladigan bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarni tarbiyalash va ta'lim berishlari uchun mutaxassisliklar doirasida o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishga ehtiyoj sezadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev o'z nutqida: «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz» deya alohida ta'kidlab o'tganligi fikrimiz asosidir.

Hozirgi davrda ta'limning sifat-samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ta'limotlar tarixiga oid bilim, malaka, ko'nikmalarini takomillashtirish hamda pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirgan holda, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish muhim vazifalar sifatida belgilandi. Pedagogik ta'limotlar tarixiga oid nazariy bilimlarni mukammal o'rganish kasbiy faoliyatda pedagogik g'oyalar mazmunini mukammal tushunishda muhim omil vazifasini bajaradi.

Ta'lim-tarbiya masalalari ulug' ajdodlarimiz yashagan davrdan bugungi kunga qadar muhim mavzu sanalib, uni tubdan isloh qilish har bir zamonning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim – jamiyatni isloh qilishning omili sifatida alohida e'tirof etiladi. Pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida muhim omil vazifasini bajaradi.

Buyuk daholar-Al-Buxoriy, At-Termiziy, Beruniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniylar singari ulug' olim-u fuzalolar merosini o'rganish hamda undan foydalanish milliy pedagogika rivojlanishida yetakchi rol o'ynadi. Istiqlol yillariga qadar buyuk adiblarning pedagogik faoliyati yetarli darajada o'rganilmadi. Hozirda bu imkoniyatlardan keng foydalanish payti keldi. Ya'ni bugun pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirishga e'tibor qaratilmoqda. Ajdodlarimizning ilm-u ma'rifat yo'lidagi sa'y-harakatlarini o'rganish bugun o'sib kelayotgan kelajak avlod uchun dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

1-MAVZU:Pedagogik g'oyalarning rivojlanish bosqichlari

- REJA:** 1. Pedagogik g'oyalarning ilk ko'rinishlari
2. Pedagogik fikrlar va g'oyalar rivojining tarixi
3. Pedagogik g'oya-pedagogik mafkura

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. N. Rahmonqulova, K.Matnazarova Toshkent. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2010.
2. Pedagogika. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Toshkent «O'qituvchi», 2001.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova, N.Vohidova, N. Raxmonqulova. Toshkent. «Fan va texnologiya», 2010.
4. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. «Sharq», 1999
5. Ma'naviyat yulduzlari. Toshkent. «Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 1999
6. Umumiy pedagogika.(pedagogika tarixi) N.Saidova. «Fan va ta'lim» ;2022.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://ziyonet.uz/>
2. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch so'z va iboralar : g'oya, pedagogik g'oya, pedagogik mafkura, insoniyat istiqboli, rivojlanish bosqichlari

Pedagogik g'oyalar ilk bosqichlari. Pedagogika tarixiga oid fan qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar turli jabhalarda tarbiya, maktab va pedagogik qarashlarning taraqqiyotini zamon ehtiyojiga

asosida o'rganib kelmoqda. Har bir jamiyat tizimi, uning istiqboli, insoniyat kelajagi, kishilarning hayot darajasi ilm-fan va madaniyatning rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham mustaqil yurtimiz ilm-fan hamda ta'lim tizimini taraqqiy ettirish, salohiyatli milliy mutaxassislarni tayyorlashga alohida ahamiyat qaratmoqda. XX asrgacha bo'lgan ijtimoiy va madaniy hayot tarixidan ko'rinadiki, ma'naviy yetuk va bilimli barkamol avlodni tarbiyalash xalq pedagogikasi oldidagi asosiy vazifalardan sanalgan.

Ma'lumki, xalqimiz qadimdan boshlab ta'lim-tarbiya yo'nalishida o'ziga xos maktab yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi mavjud makonlarda zardushtiylik dini keng tarqalgan davridayoq pedagogik fikrlar, pedagogik g'oyalar mavjud bo'lgan. Biroq islom dinidan oldingi davrga oid tarbiyaviy qarashlar, ilm-fan va madaniyat tarixi haqidagi ma'lumotlarni to'liq yoritish imkoniyati cheklangan. Sababi, dastlab Iskandar boshchiligidagi yunon-makedon qo'shinlari, keyin esa arab bosqinchilari tomonidan olib borilgan buzg'unchiliklar oqibatida ko'plab yozma manbalar yo'qotilgan.

Shunga qaramasdan, islom dini va undan keyingi davrga oid pedagogik fikrlarni, milliy tarbiya an'analarini, qadriyatlarni, xalq og'zaki ijodini ilmiy jihatdan tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Istiqlolga qadar tarbiya tizimida asosan Yevropa pedagogikasiga tayanib ishladik va shu asosda ta'lim oldik. Endilikda Sharq pedagogik merosiga e'tibor qaratish lozim. Chunki ilm-fan dastlab Sharqda taraqqiy etgan, mustaqil fikrlash aynan shu yerda paydo bo'lgan.

Tarix sahifalaridan ma'lumki, Amir Temur asos solgan saltanat davrida ijtimoiy hayot yuksalgan, ilm-fan va madaniyat gullab-yashnagan. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk allomalar – Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniyariy, Ahmad Yassav, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'iy, Xoja Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur – o'zlarining ma'naviy xazinalari orqali jahon sivilizatsiyasi va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar.

Ular tomonidan yaratilgan asarlarda ma'naviy va madaniy qadriyatlarning ilmiy-falsafiy asoslari ishlab chiqilgan. Mazkur allomalar o'z asarlarida ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan tarbiya tajribalarining xalqchil va qudratli kuchga ega ekanligini ifoda etganlar.

Pedagogika tarixi fanining mohiyatida jamiyat rivojlanish qonuniyatlariga tayangan holda, pedagogik g'oyalar hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o'rgatish yotadi.

U tarixiy pedagogik jarayonlarga zamon talablari darajasida o'rganadi tarbiyaning nazariy va amaliy ko'nikmalarini ilg'or g'oyalar asosida taqdim etadi.

Pedagogika tarixi pedagogika, psixologiya, falsafa, madaniyat tarixi, O'zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, etnografiya, arxeologiya, axloqshunoslik singari fanlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogik ta'limotlar tarixini o'rganish nafaqat o'qituvchining pedagogik madaniyatini oshiradi, balki uning kasbiy mahoratini yuksaltirishga ham ko'mak beradi. Shu bilan birga, tarixda to'plangan

ilg'or ta'lim-tarbiya tajribalari bilan tanishtirib, kundalik amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Inson tabiatning eng mukammal mahsuli sifatida o'z aql-idroki bilan hayotda o'zini himoya qilishga qodir bo'lgan erkin shaxsdir. Shu sababli, tabiat hodisalarini va jarayonlarini o'rganish, ulardan oqilona foydalanish asosida insoniyat asta-sekin madaniyatlashgan, ijtimoiylashgan va ma'naviy qadriyatlar shakllana boshlagan.

Dastlabki bosqichlarda ta'lim ota-onalarning yashash mahorati, tabiatdan foydalanish, uy-ro'zg'orni yuritish, insonlararo va tabiatga nisbatan axloqiy munosabatlar asosida shakllangan. Keyinchalik bilimlar miqdori ortgani sari maxsus tarbiyachilar xizmatiga ehtiyoj yuzaga kelgan.

Qabila, elat yoki xalq darajasida amal qilgan ta'lim-tarbiya qoidalari odatda ayrim shaxslar tomonidan takomillashtirilgan.

Qadimgi yunon pedagogikasida esa tabiatga, atrof-muhitga va insonlararo aloqalarga ongli va axloqiy munosabatni targ'ib qilgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan. Bu davrda tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarda donolik sifatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan.

Pedagogik fikrlar va g'oyalar rivojining tarixi. 610-yillarga kelib, ilohiy kitob – Qur'oni Karimda inson mohiyati keng va chuqur yoritilib, komil insonni tarbiyalash asosiy maqsad sifatida ilgari surildi. Qur'oni Karimdagi ta'lim-tarbiyaga oid ulug' qadriyatlar Imom al-Buxoriy hadislarida mustahkamlangan bo'lib, bu orqali insoniy munosabatlarning ma'naviy-falsafiy asoslari tasavvuf ilmida rivojlana boshladi.

Antik falsafada ham zohiriy va botiniy ilmlar uyg'un holda ko'rib chiqilgan. Demokrit, Platon, Aristotel asarlarida insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan. Al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida aql, ong va fan uyg'unligi asosiy g'oya sifatida ilgari chiqadi. Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Umar Xayyom esa ta'limda amaliy faoliyatning ustuvorligini asoslashgan.

XIII–XIV asrlarda Abdulxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband singari tasavvuf vakillari mehnatsevarlik, poklik, insonparvarlik kabi fazilatlarni komil inson tarbiyasining asosiy omillari sifatida qarashgan. Ularning: *“Qo'ling mehnatda bo'lsin, Olloh qalbingda”* degan shiori bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mirzo Ulug'bek ta'limda ilmiy izlanish, tajriba, kuzatish va umumlashtirish tamoyillarini rivojlantirib, o'z amaliyotida uni tatbiq etdi – maktablar ochdi, darsliklar yozdi.

XV–XVI asrlarda Alisher Navoiy boshchiligidagi mutafakkirlar insonparvarlik g'oyalarini nazariy va amaliy jihatdan rivojlantirib, buni o'z asarlarida ifodaladilar. Al-Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ilgari surilgan g'oyalar jamiyat taraqqiyoti uchun juda muhim: har bir inson – mansabidan qat'i nazar – fozil bo'lishi, qonunlarga rioya qilishi, vataniga sadoqatli bo'lishi lozim. Bu fikrlar Sharqona mehr-oqibat, ehtirom, ustoz-shogird munosabatlarining naqadar yuksak qadriyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Yevropa pedagogikasida esa Gelvesiy, Didro, R. Ouenlar tarbiyaning ustuvorligini ilgari surishgan. K.D. Ushinskiy, L.N. Tolstoy ta'lim va tarbiyaning uyg'unligiga urg'u berganlar. S.G. Shatskiy, L.V. Zankov,

V.A. Suxomlinskiylar esa ta'limda ongli o'zlashtirish, amaliy faoliyat orqali bilimni chuqurlashtirish tamoyillarini ishlab chiqqanlar.

Komil insonni tarbiyalash g'oyasi bizning milliy tariximizda ham mustahkam ildiz otgan. Ilk sharq mutafakkirlarining asarlarida – xususan, “Kalila va Dimna”, “Qobusnoma”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma”si, “Ro‘shnoinama”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”i, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”i, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”i, Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” kabi asarlarida ilg‘or pedagogik qarashlar mujassam.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ma'rifatparvarlik harakati taraqqiy etib, bu davrda Furqat pedagogik g'oyalarni faol targ'ib qilgan shoir sifatida ajralib turadi. U: *“Zamonaviy taraqqiyot yo‘li – bu ilm olishda”*, deb ta'kidlab, ilmning har qanday yuksalishning asosi ekanini kuyladi. Uning “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Akt majlisi xususida”, “Vistavka xususida” kabi she'rlari, “Suvorov haqida” dostonida ilm-fan, ma'rifat orqali millat taraqqiyotiga hissa qo'shish g'oyasi aks etgan.

Furqatning satrlarida bu g'oya quyidagicha ifodalanadi:

*“Jahon-ravshan ziyosi ilmdandur,
Ko'ngil sofi safosi ilmdandur.”*

Pedagogik g'oya – pedagogik mafkura. O'zbek pedagogikasi tarixi o'zining turli davrlarida shakllangan g'oya va ma'rifiy-pedagogik qarashlar, shuningdek, ta'lim-tarbiya amaliyoti asosida bir necha

rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Pedagogik fikrlar tarixi bu yo'lda xilma-xil oqimlar va ijtimoiy jarayonlar bilan boyigan.

Tarixiy manbalarga nazar tashlansa, pedagogik g'oyalarning ilk shakllanishi eramizdan avvalgi VI asrlarga borib taqaladi. Insoniyatning paydo bo'lishi bilan birga, tabiat hodisalarini anglash, ulardan ongli foydalanish zarurati pedagogik fikrlarning asta-sekin shakllanishiga olib kelgan. Dastlab ota-onalar tomonidan bolalarga turmushda zarur bo'lgan ko'nikmalar berilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu jarayon murakkablashdi va maxsus tarbiyachilar zarur bo'la boshladi. Bu esa har bir elat yoki qabila miqyosida ta'lim-tarbiya haqida umumiy tushunchalar – konsepsiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shuning uchun qadimgi ta'lim kontsepsiyalari ko'pincha muayyan bir shaxs nomi bilan emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan tizim sifatida qoraladi.

Antik pedagogik fikrlarda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik asosida shakllangan donishmandlik pedagogikasi muhim o'rin tutadi. Unda yosh avlodda aql-idrok, mehnatsevarlik, ma'naviy va axloqiy fazilatlar uyg'un rivojlanishi g'oyasi ilgari surilgan. Bu yondashuvlarning shakllanishiga "Avesto" (zardushtiylik ta'limoti), qadimgi Xitoydagi Daos maktabi va qadimgi Hindiston pedagogikasidagi e'tiqodiy-axloqiy tushunchalar asos bo'lgan.

Islom dinining yoyilishi bilan Qur'oni Karim, Hadislar va tasavvuf ilmidagi chuqur ma'naviy-falsafiy qarashlar zohiriy va botiniy ilmlarning mohiyatini tushunishda asosiy o'rin egalladi. Shuningdek,

antik yunon faylasuflari – Demokrit, Platon, Aristotel asarlarida ham insonparvarlik va ilmning uygʻunligi masalasi ilgari surilgan.

Oʻrta asrlarda yashab ijod qilgan olimlar – Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Xayyom va Fargʻoniy asarlarida ilmiy bilish, fan va amaliyotning birligi, tajribaviy faoliyatning ustuvorligi gʻoyalari ilgari surilgan. XIII–XIV asrlarda Shayx Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya tariqatida va Abduholiq Gʻijduvoni tomonidan ilgari surilgan “zikri xufiya” orqali Allohdan ato etilgan maxfiy ilm – “ilmi laduniy” egallanadi. Bahouddin Naqshbandiy esa bu gʻoyani “Dil ba yoru, dast ba kor” – yaʼni “Koʻngil Allohda, qoʻl esa mehnatda” shiori orqali amaliyotga tatbiq etgan.

Mirzo Ulugʻbek oʻz faoliyati davomida ilmiy tadqiqot, kuzatuv va umumlashtirish asosida taʼlim tizimini rivojlantirdi. U maktablar, madrasalar, kutubxonalar, rasadxona tashkil etdi va darsliklar yaratdi. XV–XVI asrlarda Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar maʼrifiy va insonparvarlik gʻoyalarini chuqur yoritdilar.

XVII–XVIII asrlarda Abulgʻoziy, Nodira, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Uvaysiy, Berdaq, Soʻfi Olloyor kabi adiblar inson aql-zakovatini qadrlab, uning kuchi va salohiyatiga asoslangan pedagogik fikrlarni ilgari surdilar.


XIX–XX asrlarda esa Anvar otin, Ahmad Donish, Furqat, Avaz Oʻtar oʻgʻli, Mahmudxoʻja Behbudiy, Hamza, Abdulla Avloniy kabi maʼrifatparvarlar tomonidan “usuli jadid” – yaʼni “yangi usuldagi”

maktablar tashkil etildi. Ular ta'lim-tarbiya jarayonida aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy va mehnat tarbiyasining uyg'un holda olib borilishi kerakligini targ'ib qildilar.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek pedagogikasi ajdodlarimizning ma'naviy qarashlari, falsafiy g'oyalari hamda ta'lim-tarbiya amaliyotlariga asoslanib taraqqiy etgan boy va mazmunli tarixiy tajribaga ega fan sifatida e'tirof etiladi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. "Pedagogik g'oya" iborasining mazmun-mohiyatini izohlang.
"Pedagogik g'oya" iborasi o'z atrofida qanday tushunchalarni birlashtiradi?



2. Pedagogik g'oyalarning ilk shakllari qaysi olimlar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi?

3. Bugungi kunda "Pedagogik g'oyalar"ning amaldagi ijrosi haqida fikrlaringizni bayon qiling.

4. Y.X.Hojib, Forobiy, Kaykovus, Avloniy, Hamza, Jomiy, Navoiy, Bobur, Avaz O'tar, singari ulug' daholar qarashlarida pedagogik g'oyalar ustuvorligi haqida fikr yuriting.



2-MAVZU: Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari

REJA: 1. Ibtidoiy jamiyatda tarbiya masalasi

2. Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o'ziga xosligi.

3. Yosh avlod tarbiyasida muhim omillar (mutafakkirlar qarashlari asosida)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika tarixi. A.Zunnunov. Toshkent. «Sharq», 2004.
2. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova, N.Vohidova, N. Raxmonqulova. Toshkent. «Fan va texnologiya», 2010.
4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. N. Rahmonqulova, K.Matnazaro va: Toshkent. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2010
5. Pedagogika. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Toshkent. «O'qituvchi», 2001
6. Umumiy pedagogika.(pedagogika tarixi) N.Saidova. «Fan va ta'lim» ;2022.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://azkurs.org>
2. <https://ziyonet.uz/>
3. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch so'z va iboralar: Ibtidoiy jamiyat, tarbiya, jamoa, mehnat tarbiyasi, mehnatga o'rgatish, mehnat qurollari.

Ibtidoiy jamiyatda tarbiya masalasi. Ibtidoiy jamiyat – bu insoniyat tarixining davlat vujudga kelguniga qadar bo‘lgan bosqichidir. Bu davr o‘ziga xos jihatlaridan biri – jamoaviy mehnat qilish va birgalikda iste’mol qilish hisoblanadi. Eng sodda mehnat qurollariga ega bo‘lgan ibtidoiy inson alohida holda na tabiat kuchlariga va na hayvonlarga qarshi kurasha olmas edi. Shu sababli ular birlashgan holda mehnat qilib, ishlab chiqargan mahsulotlarini teng ravishda bo‘lishib iste’mol qilganlar. “Ibtidoiy jamiyat” tushunchasi ilmiy jihatdan muhim kashfiyot hisoblanadi va bu atama eng avvalo, olim L.G. Morgan bilan bog‘lanadi.

Mazkur davrda tarbiya masalasi asosan mehnat orqali amalga oshirilgan. Bolalar o‘zlariga mos ishlarni bajara boshlash orqali hayotiy ko‘nikmalar va mehnat malakalarini egallaganlar. Qiyin sharoitlarda shakllangan bu tajriba jarayonida o‘g‘il bolalar erkaklar bilan ovga chiqish, qurol yasash kabi ishlarni bajargan, qizlar esa ayollar mehnatini kuzatib, ularni takrorlagan. Rasmiy yozilmagan urfodat va qadriyatlar asosida bolalar kattalar nazorati ostida hayotiy tajriba orttirganlar. Bolalar ma’lum tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tganidan so‘ng, sinovlarda ishtirok etib, faol mehnatga jalb qilinish huquqini qo‘lga kiritganlar.

Qadimda urug‘chilik jamiyatida bolalar mehnati hajmi ortib, kasb-hunar faoliyatining ko‘plab yo‘nalishlari shakllana boshlaydi. Tajribali kishilar bolalarni nafaqat tarbiyalaydi, balki yozuvga ham o‘rgatishadi. Shu bilan birga, harbiy tarbiyaning dastlabki shakllari yuzaga keladi. Harbiy san’at sirlarini o‘rgatish murakkab jarayon bo‘lib, bu ishni amalga oshirish uchun maxsus tayyorgarlikka ega

insonlar zarur bo'lgan. Shu sababli ushbu sohada bilimdon kishilar jalb etilgan.

Jamiyat ijtimoiy rivojlangani sari, bolalarni dalalarni o'lchash, suv toshqinlarining oldini olish, tibbiy muolajalar kabi zaruriy hayotiy bilimlar bilan tanishtirish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu ehtiyoj maktablarning tashkil topishiga olib keladi. Maktablarda bolalarga og'zaki bilim berishdan tashqari, yozuv malakalari shakllantirilgan. Avvaliga suratkashlik (piktografik yozuv) rivoj topib, so'ngra qo'shni xalqlardan kirib kelgan harflar asosida yozuv shakli yuzaga kelgan va tez tarqalgan. Qadimda oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so'ng esa yunon va fors mixxatlari ma'lum darajada qo'llanilgan. Shu davrlarda oromiy yozuvi asosida Avesto, Xorazm, So'g'd, Kushon, Run (Orxon-Enisey), Uyg'ur yozuvlari shakllanib, ta'lim-tarbiyada muhim o'rin egallagan.

Qadimgi insonlar ehtiyojlari, orzu-umidlari, istaklari eposlarda, afsonalarda va qahramonlar timsolida ifoda topgan. Onimizm, totemizm, sehrgarlik kabi diniy qarashlar afsona va rivoyatlar orqali qadim ajdodlarimiz tafakkurini yoritib bergan. Biroq bu rivoyatlar, asosan, massaget, sak, xorazmiy, so'g'd va parfiyaliklar yashagan davr ruhini aks ettiradi.

Qadimgi madaniyat boyliklarini o'rganishda quyidagi uch manba muhim ahamiyatga ega:

1. Arxeologik qazilmalardan topilgan moddiy dalillar.
2. Xalq og'zaki ijodi namunalari va yozma manbalar.

3. Ajdodlarimizning ilmiy-ijodiy merosi.

Tarix sahifalari ta'kidlashicha, ibtidoiy davrda yashagan kishilar mehnat orqali o'z ehtiyojlarini qondirgan va bu jarayon yangi avlod uchun mehnatga tayyorlanish, amaliy faoliyat yuritish, nazariy bilim va malakalarni shakllantirish imkonini yaratgan. Mehnat dastlab jamiyat hayotini tashkil qilish vositasi bo'lgan bo'lsa, vaqt o'tib tarbiya insoniy faoliyatning muhim jihatiga aylangan. Dastlabki urug'chilik jamiyatidan oldin ham insonlar jamoaviy mehnat orqali yashab qolishga intilgan. Keyinchalik mehnat faoliyati yoshga qarab quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1. Bolalar va o'smirlar.
2. Mehnat va ijtimoiy hayotda to'liq qatnashuvchilar.
3. Keksalar.

Ibtidoiy davr tarbiyasida asosiy e'tibor og'zaki bilimlar bilan bir qatorda yozuv ko'nikmalarini shakllantirishga ham qaratilgan. Avval piktografik yozuv paydo bo'lib, keyin harfiy yozuv joriy etilgan va keng tarqalgan.

Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o'ziga xosligi., Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin yunon va forsiy mixxat yozuvlari mashhur bo'lgan. Eramizdan oldingi birinchi ming yillikning o'rtalarida oromiy yozuvi asosida Avesto, Xorazm, So'g'd, Kushon, Run (Urxun-Enisey), uyg'ur va boshqa yozuvlar shakllanib, ta'lim-tarbiyaning taraqqiyoti yo'lida muhim rol o'ynadi.

Shundan keyin ibtidoiy jamoa tarzida yashash an'anasi asta-sekin kuchayib bordi, jahon maydonida insoniyat uchun muhim ahamiyatga molik kashfiyotlar paydo bo'ldi. Jumladan, Xitoyda qog'ozning ixtiro qilinishi, Hindistonda hisoblash tizimi va o'nlik sonlar paydo bo'lishi, Mesopotamiyada yer kurrasining graduslarga, soatlarga, minut va sekundlarga bo'linishi, Markaziy Osiyoda O'rta dengiz bilan Hindiston o'rtasidagi karvon yo'lining barpo qilinishi, shuningdek, Xitoydan Markaziy Osiyo orqali O'rta dengizga "Buyuk ipak yo'li"ning ochilishi singari voqealar bu hududlarda yashovchi xalqlar madaniy rivojlanishiga va yozuvning tarqalishiga zamin hosil qildi.

Ta'kidlash kerakki, eramiz boshlarida hozirgi Markaziy Osiyo chegarasida oromiy, yunon va forsiy mixxat alifbosi keng taraqqiy topganligi ahamiyatlidir. Yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" asarida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya metodlari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. "Forslarning eng sharaflari fazilati jasoratdir", - deb alohida ta'kidlaydi olim. Shu bois ular ko'pincha o'g'il bolalar bilan g'ururlanishgan. Bundan tashqari, bolalarning yoshiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, o'g'il bolalar besh yoshdan yigirma yoshgacha bo'lgan davrda faqat uch narsaga: otga minish, kamondan otish va rostgo'ylikka o'rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko'rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo'lgan. Agar o'g'il bola vafot etsa, otasi qayg'urmasligi uchun shunday yo'l tutishgan. O'g'illar ota-onasiga hech qachon hurmatsizlik qilishmagan. Bunday holat faqat nikohsiz tug'ilgan yoki tashlandiq bolalarga xos deb illat deb hisoblashgan.

Gerodot o'z asarida forslar uchun yolg'onchilik va qarzdorlik sharmandalik, uyat ekanligini alohida ta'kidlydi. Ular daryolarni muqaddas deb bilganlar. Shu sababli daryo suviga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishgan ,ya'ni tupurmaganlar, hatto qo'l yuvishni ham odobsizlik deb e'tirof etishgan.




Gerodotning ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qadimgi ajdodlarimiz o'g'il farzandlarini mard, o'z Vatanining sadoqatli himoyachisi, kuchli va botir insonlar qilib tarbiyalashga katta e'tibor qaratishgan. Faqat yigit va erkaklar emas, balki ayollarning ham jasorat ko'rsatganlari haqida asosli dalillar keltirib o'tadi.

Plutarxning qayd etishicha, Aleksandr Makedonskiy mahalliy xalqlar bilan aloqalarni mustahkamlash chun makedoniyaliklar va mahalliy aholi urf-odatlarini uyg'unlashtirishga intilgan . Shu maqsadda u o'ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarning harbiy san'at sirlarini o'rgatishga buyruq bergan. Bu jarayonni amalga oshirish yo'lida ko'pgina murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik hududda qabul qilinishi o'sha zamonda maktablarning ochilishi va yerli bolalarning ham o'qitilishi bilan bog'liqdir.Imperator Yan Li (615-617) elchisi Vey Tszinning qaydlarida Samarqand shahrida yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya faoliyati haqida ma'lumotlar bor. Samarqandning tajribali savdogarlari o'g'il bolalarni besh yoshga to'lganidan keyin savdo faoliyatiga tayyorlashni ma'qul deb bilishgan. Farzandlariga o'qishni o'rganishi bilan birga savdo ishlarini ham o'rgatishgan.

Xitoy tarixchisi Syuan-Tszin Samarqand aholisining axloq-odob qoidalariga amal qilishi boshqalarga o‘rnak bo‘lganligini qayd etgan. Bu barcha ma’lumotlar qadimda bolalar savodxonlik maktablarida o‘qitilganligi va maktabdan tashqari murabbiylar tomonidan harbiy va jismoniy mashqlar, shuningdek, kasb-hunar sirlarini o‘zlashtirishga jalb qilinganini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Eng qadimgi davrlarda yozma manbalarda ta’lim-tarbiya oid qanday metodlar qo‘llanilgan?
2. O‘zbek xalqining tarbiya asoslari qanday omillar zahirida saqlandi?
3. O‘tmishda bolalar tarbiyasida qo‘llangan qaysi an’ana, urf-odatlarini hozirgi hayotda qo‘llash mumkin deb bilamiz?
- 4.”Tarbiya” so‘zining lug‘aviy ma’nosini izohlang.(Chizma)





3-MAVZU: Xalq og'zaki ijodida tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi

- REJA:** 1. Xalq og'zaki ijodi-bebaho boylik
2. Xalq o'gzaki ijodining o'ziga xosligi.
3. Xalq og'zaki ijodida tarbiya masalasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M: “ Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” .- T.: O'zbekiston-2017
- 2.Mirziyoyev Sh.M. : “Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”-T: O'zbekiston-2017
- 3.Mirziyoyev Sh.M. : ”Ta'lim sohasidagi muammolar,ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor mavzusida” 30.10.2020.
4. Abdulla Avloniy: “Turkiy Guliston yoxud axloq”.-T.:Yoshlar nashriyot uyi, 2018
5. Haydarov M. : “Xalq og'zaki ijodi na'munalarida tarbiya masalalari”.-T.: Fan, 2004

6. To'rayev S.: "Folklorshunoslik: udumlar, qadriyatlar, marosimlar".-T.: Mehnat, 2005
7. Madayev O. "O'zbek xalq og'zaki ijodi ".-T.:Mumtoz so'z, 2010
8. Madayev O. , Sobitova T: "Xalq og'zaki poetik ijodi " Sharq, 2010
9. Zamonov Z. va boshqalar "Tarbiya" o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, Zamin nashr, 2020
10. Kasimova O. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda xalq og'zaki ijodidan foydalanishning pedagogik asoslari, Innovative research in science, 2022
11. N.Saidova. Umumiy pedagogika.(pedagogika tarixi); «Fan va ta'lim» ;2022.

Elektron ta'lim resusrlari:

1. <https://ziyonet.uz/>
2. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch so'z va iboralar: xalq og'zaki ijodi, tarbiya talablari, tarbiya masalasi, tarbiya turlari

Xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari. Hozirgi kunda respublikamizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, targ'ibot-tashviqot ishlari Vatan taqdiri, millatning ravnaqi hamda mustaqil yurtning kelajakdagi poydevorlari — yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoqda. Mustaqillikka erishganimizning birinchi kunidan boshlab, umuminsoniy va o'zbek xalqiga munosib qadriyatlarni tiklash, ularga teran nazar solish uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodning har jihatdan salohiyati baland, yetuk, axloqan pokiza, yuksak ma'naviy xislatlarga ega inson sifatida tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor vazifalardan biri ekanligi e'tirof etilmoqda.

Bugun yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, ularning mustaqil hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun zaruriy sharoitlar yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Davlatimiz yurtboshi Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida diqqat qaratib: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi."-deb alohida ta'kidlagan edi.

Hozirgi vaqtda tarbiyaning noodatiy, innovatsion g'oyalarga yo'rg'ilgan shakllari va metodlarini izlab topish, yosh avlodda mustahkam tarbiya va qarashlarni shakllantirish, ularni milliylik ruhida tarbiyalash, xalq qadriyatlarini hurmat qilish singari tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilmog'i zarur. Zero, xalq og'zaki ijodi yosh avlod tarbiya tizimida asosiy tayanch, ularning ma'naviyati va tafakkurini shakllantiruvchi kuch sifatida e'tiborlidir.

Yosh avlodni tarbiyalashda xalqning milliy va ma'naviy qadriyatlariga sadoqat bilan tayanish, ulardan foydalanib o'quvchilarda milliylikni targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, bugun mafkuraviy maydonlarda yoshlarning mafkurasi va qalbi uchun kurashish keskinlashgan bir paytda, yoshlarni imkoni boricha oila muhitida va maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab vatanparvarlik, xalqparvarlik, jonkuyarlik bilan yurti va millati uchun jonini fido qiladigan jasoratli shaxslar qilib tarbiyalash lozim.

Xalq og'zaki ijodida komil inson qiyofasi asrlar mobaynida kuyga solindi. Shuningdek, xalqimizning asriy orzusi, ma'naviyatining esa ajralmas qismihisoblangan. Muqaddas manba sanalgan "Avesto"da ham halol mehnat komillikning asosiy mezoni sifatida ulug'langan.

Xalq og‘zaki ijodida yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari keng qamrovli o‘rganilib, unda tarbiya metodlari, umuminsoniy qadriyatlar, xalqsevarlik, do‘stlik va birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasb-korga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning ta’riflari, yaxshi va yomon so‘zning qudrati, halollik, to‘g‘rilik, olijanoblik, adolat, insof va diyonat, o‘g‘a-inichilik va qon-qarindoshlikning ahamiyati, botirlik va qo‘rqoqchilik, odobsizlik, mehmon va mehmondo‘stlik kabi qadriyatlar ifodalanadi.

O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri bu-millatning ma’naviy merosini, ruhiyatini mustahkamlash va rivojlantirishdan iboratdir. Ma’naviyat xalqimiz qalbida shakllanib, uning qalbida ,insoniyatning ulkan oilasida istiqlolni anglash va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan voyaga yetgan. Bizning ma’naviyatimiz asrlar osha million-million kishilarning taqdiri zaminida barpo etilgan. Ma’naviyat shunday bir kuchki, unda inson, xalq, jamiyat va qudrati yotadi. Aytish mumkinki, ziyolilar va o‘qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bu-o‘tmishdan qolgan ma’naviy merosimizni kelajak avlodga bus-butun yetkazish va buni samarali yo‘llar bilan yetkazishdan iboratdir.

Har millatning tarixi shu millatdan yetishib chiqqan buyuk shaxslar, mard qahramonlar va jonkuyar kishilarning tarixiga asoslanadi. Tarixiy qahramonlar- Shiroq va To‘maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard, jasur farzandlari buyuk g‘oya sohiblari sanaladi. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy shunday deydi: “Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchligi va farovonligi yoshlarning to‘g‘ri tarbiyasiga bog‘liqdir.

Pedagogika fanining dolzarb vazifalardan biri- maktab o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib, ularni qadriyatlarni asrab-avaylashdan iborat. Milliy qadriyatlarning mohiyatini yoshlar tafakkuriga singdirish juda muhim sanaladi. O'zbek olimi M. Haydarovning ta'kidlashicha, "Xalq og'zaki ijodi namunalaridagi odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi pandnomalar juda hayotiy, xalqparvar va ibratli". Ayniqsa, xalq dostonlari xalqning yurak-yuragiga kirib borgan. An'anaviy xalq dostonlar, ertaklar, xalq qo'shiqlari va maqollar tarbiya darslari ekanini, folklorning boshqa janrlarining ham pandnomaligini unutmasligimiz kerak."

Xalq pedagogikasining sharqona an'analari, oilaviy-maishiy yo'nalishlari, o'ziga xosligi, ommaviy bayramlar, marosimlar, urf-odatlar va odatlar yosh avlod tomonidan o'rganilishi kerak bo'lgan masalalardan biridir. Folklorshunos olim S. To'rayev ta'kidlaganidek, "Xalq og'zaki ijodi hayotning, tafakkurning, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalarini va muammolarini qamrab oladi"- deb alohida e'tirof etadi.

Xalq og'zaki ijodida tarbiya masalasi. Xalq og'zaki ijodida kishilar qadr-qimmatini va sharafiga baholovchi, ma'naviy salohiyatini belgilovchi omillar iymon-e'tiqodning yaxlitligi, vatansevarlik, do'stlik, yaxshilik, ezgulik, birdamlik singari bo'limlari rang-barangdir. Bu bo'limlarning har kelajak avlod uchun haqiqiy odob xazinasini, ibrat maktabi deb atalishiga to'la haqlidir. O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalashda tarbiyaning o'ziga xos vazifalari mavjudligini unutmaslik lozim. Shunday ekan, insonni tarbiya qilishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi, tarbiya

natijasida inson qanday bo'lishi lozimligi degan savollarni oldindan tasavvur qilish zarur. Bunda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanish samarali natija bera oladi. Ta'lim oluvchilarda milliylikni shakllantirish hamda qadriyatlarni e'zozlashga o'rgatish katta ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodida tarannum etiladigan milliy qadriyatlarimiz-- insonparvarlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, mehmondo'stlik, ahillik, to'g'riso'zlik singari insoniy fazilatlar o'zbek xalqining nazokati hisoblanadi. Bu go'zal fazilatlarni xalqimiz asrlar davomida avaylab kelmoqda. O'zbek xalqining milliy ruhiyatining ajralmas fazilati bu- insonparvarlik sanaladi. Oila, ota-ona, farzandlar, qon-qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon –insoniylikning ilk belgilaridir.” Haqiqatan ham ma'nan yetuk kishilar ona-zaminga, vatanga sadoqatli bo'ladi. O'z umrining mazmunini Vatanning ravnaqisiz tasavvur qila olishmaydi. Bola maktab ostonasiga endigina borganda, ma'naviyatning ma'lum ko'rinishlarini kuzatasiz, ammo haqiqiy ma'naviy fazilatlar maktabda ta'lim-tarbiya jarayonida takomillashadi. Maktabda o'tiladigan har bir o'quv mashg'ulotida ayniqsa, tarbiya fani o'quvchining ma'naviy qiyofasining boyishiga xizmat qiladi. Alohida ta'kidlash lozimki, xalq og'zaki ijodi namunalarining bolalar tarbiyasiga kuchli ma'naviy ta'siri mavjud. Maqollar, tez aytishlar, topishmoqlar , ertaklar tajribada sinalgan, yillar davomida tarbiya vositasi sifatida talqin qilinadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan -tez aytishlar, maqollar, dostonlar, ertaklari mazmunan boy va sermahsul, shakl jihatidan esa xilma-xildir. Bu janrlarning yuzaga kelishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xalq og'zaki

ijodining namunalari hisoblanmish folklor materiallari aynan bir xalq, bir millat tomonidan yaratilsa-da, umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etganligi bilan ham ajralib turadi. Shu bois ham tez aytishlarda, maqollarda, ertaklarda turli xalqlarda yaratilgan, mazmun jihatdan bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan materiallar ko'p uchraydi. Bu holat xalq og'zaki ijodi umumbashariy xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ertaklar, tez aytishlar, maqollar mazmun-mohiyatiga ko'ra kelajak avlodni tarbiyalashning turli yo'nalishlarini- tarbiyaviy, axloqiy, aqliy, jismoniy, ruhiy, estetik, mehnatsevarlik va boshqa sifatlarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Bilamizki, inson kamoloti yo'lida ma'naviy qadriyatlar haqidagi xalq og'zaki ijodi muhim o'rin egallaydi. Xalq og'zaki ijodidagi har bir janr ta'lim oluvchilar dunyoqarashiga, tafakkuriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni xalq og'zaki ijodi yosh avlodning ma'nan va axloqan rivojlanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Xalq og'zaki ijodi milliy o'zlikni anglashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan g'oyalar orqali inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya va ta'limning uzviyligini, milliy xususiyatlar mohiyatida ham xalq og'zaki ijodi mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Yetuk va barkamol inson bo'lish o'z sohasining bilimdoni bo'lish bilan chegaralanib qolmaydi. Vatanga muhabbat, uning tinchligi yo'lida beminnat xizmat qiluvchi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi yoshlarga munosib kadr bo'la olishadi. Xullas, keyingi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan keng islohotlar erkin va farovon hayot qurish, yoshlarimiz va butun xalqimizning ma'nan yuksalishi yo'lida kuchli zahira yaratganligi ishonch bilan aytiladi. Bugungi kunda yoshlarning

ma'naviy kamoloti har qanday mamlakat, jamiyat, xususan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada keng ko'lamli ishlar ham amalga oshirilib kelinmoqda. Ma'nau va axloqan tarbiyalangan inson Vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar bilan sayqallangan bo'ladi. Ma'naviy va axloqiy tarbiyaning asosi hisoblangan xalq og'zaki ijodi shaxsning ijtimoiy tuzumga munosabati, turli ma'rifiy -axloqiy g'oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining natijasidir. Axloqiy tarbiyaning mohiyatini ifoda etuvchi ob'ekt shaxs sanaladi. Jamiyat taraqqiyoti sari axloqiy tarbiyaning shakli, ko'lam, ta'sir kuchi ham o'zgarib boraveradi. Bunday o'sish jamiyat rivojlanishining tezlashuvi, ijtimoiy munosabatlarning holati talabidir. Jamiyat taraqqiyotining muhim talabi sifatida tarixiy jarayonda shaxsning axloqiy tarbiyasi rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga nisbatan tezroq amalga oshishi lozim. Albatta, muayyan davrning tarbiya masalalari, har bir ijtimoiy hodisada bo'lgani kabi, uning kamchiliklari va shu davrning umumiy tafakkur darajasidan yuqoriga chiqadigan ilg'or fikrlar, qarashlar va nazariyalar ham mavjud bo'ladi. Axloqiy tarbiyaning davr talablariga bog'liqligi dialektik jarayon bo'lib, u ichki ziddiyatlarga ega. Bizningcha, shaxsning axloqiy tarbiyasi ichki ma'naviy-axloqiy dunyosi, ma'naviy-axloqiy ehtiyoji, ma'naviy-axloqiy qiziqishi, ma'naviy-axloqiy faoliyati va ma'naviy qadriyatlar tizimidan iborat bo'lib, ular o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shaxsning ma'naviy-axloqiy ehtiyoji ma'naviy-axloqiy qiziqishni yuzaga keltiradi, u shaxs faoliyati

jarayonida ko‘rinadi va natijada ma’naviy-axloqiy qadriyat yuzaga keladi. Ma’naviy qadriyat o‘z navbatida yuqori ma’naviy-axloqiy ehtiyojning paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy taraqqiyotning bu davri uzluksiz, doimiy davom etadi. Shunday qilib, axloqiy tarbiya insoniyat faoliyatining mahsuli bo‘lib, u o‘zining moddiy va ma’naviy jihatlari bilan shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, ma’naviy-axloqiy madaniyatning fan, adabiyot, san’at, maorif, din, xalq og‘zaki ijodi, milliy qadriyatlar kabi turli manbalari o‘quvchida axloqiy tarbiya va sifatlar shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Xalq og‘zaki ijodi namunalari yosh avlod tarbiyasiga qanday ta’sir qiladi?
2. “Xalq donishmandligi” iborasini tushuntiring.
3. Muammoli o‘quvchilarni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni ?
4. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida vatanparvarlik tuyg‘usining ifodasini tushuntiring.
5. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida tarbiyaga ishora qay darajada namoyon bo‘ladi? Ushbu jadvalni xalq og‘zaki ijodidan namuna va parchalar keltirib to‘ldiring.

Xalq og‘zaki ijodi va tarbiya

<u>Xalq qo‘shiqlarida tarbiyaga ishora:</u>	Rivoyat va afsonalarda tarbiyaning ulug‘lanishi:	Maqol va matallarda tarbiya:
-	-	-
-	-	-
-	-	-

4-MAVZU: “Avesto” eng qadimgi ma’rifiy yodgorlik

REJA: 1. “Avesto”- ma’naviy yodgorlik.

2.“Avesto”da axloqiy-tarbiyaviy masalalar talqini.

3. Ezgulik va yovuzlikning asriy kurashi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat yulduzlari. Toshkent. «Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 1999.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. N. Rahmonqulova, K.Matnazarova. Toshkent. «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2010.
- 3.Pedagogika. R.Mavlonova, O.To’rayeva, K.Xoliqberdiyev. Toshkent. «O‘qituvchi», 2001.
- 4.Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova, N.Vohidova, N. Raxmonqulova. Toshkent. «Fan va texnologiya», 2010.
5. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. «Sharq», 1999.
6. Pedagogika tarixi. A.Zunnunov. Toshkent. «Sharq», 2004
7. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005
- 8.Umumiy pedagogika.(pedagogika tarixi) N.Saidova. «Fan va ta’lim» ;2022.

Elektron ta’lim resursi:

1. <https://ziyonet.uz/>
2. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch so‘z va iboralar:ma’naviy yodgorlik, axloq, axloqiy tarbiya,samimiylilik, ezgulik ,yovuzlik, nur, zulmat.

«Avesto» - ma’naviy yodgorlik. Ma’lumki, qadimgi qo‘lyozmamiz sanalgan «Avesto”ning yaratilganiga 3000 yil bo‘ldi. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oraligida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan

ma'naviy, tarixiy merosi sanaladi. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi. So'nggi yillarda H.Homidov, S.Hasanov, J.Yo'ldoshev, S.Nishonova, O.Musurmonova, N.Mahmudova «Avesto»dagi ta'limiy-axloqiy qarashlar haqida ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, N.Mahmudova «Avesto»da ta'limiy-axloqiy qarashlar, ta'lim-tarbiya. odob-axloq masalalarini tadqiq etgan.

«Avesto» qadimgi Eron tillari guruhidagi tillarning qadimgi yodgorliklari bo'lib, unda insonlarning orzu-istaklari, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi munosabatlar ifoda etilgan. «Avesto» qadimiy ajdodlarimizning ijtimoiy-falsafiy va ma'rifiy fikrlar yodgorligi sifatida o'tmish tariximiz, madaniy va ma'naviy qadriyatlarimizni o'rganishda, bugungi kunda talabalar ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

«Avesto»ning bizgacha yetib kelgan qismlari «Yasna», «Yasht», «Visprad», «Vendidod» deb nomlanadi. «Avesto» da jami 22 mashhur «Yasht» bo'lib, ular hajmi, yozilish davri, adabiy va tarixiy-madaniy, pedagogik qimmat, ahamiyatiga ko'ra turlicha qo'shiqlar sanaladi. Zardushtiylik taminotini jamg'arilgan Zardushtning kitobi bizgacha 2 nusxada yetib kelgan. Birinchisi-duolar to'plamidan iborat bo'lib, «Vendidot» - sedee, ya'ni «Pok Vendidot» deb ataladi (A.Irisov). Bu kitobga «Yasna»lar, «Vispered» ham kiritilib, bir butun tarzda shakllangan. Ikkinchisida ham birinchisidagi kabi «Vendida», «Yasna», «Vispered»lar kiritilgan bo'lsa ham, bu kitob tarjima qilinib sharhlar bilan beriladi.

Shuning uchun ham sharhli nusxasi «Avesto va Zand» yoki «Zand Avesto» deb yuritiladi.

Ikkinchi variantiga binoan «Avesto» quyidagi qismlardan iborat:

1. «Vendidot» 22 bobdan iborat. Asosan, Axuru Mazda bilan Zardushtning savol-javobi shaklida yozilgan bolib, u yomon ruhlarni, devlami yengish voqealari, gunohlardan pok bo'lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o'z ichiga oladi.

«Avesto» sof diniy kitob bo'lmay, ijtimoiy-falsafiy, madaniy, adabiy-tarixiy qiimmatga ega bo'lgan nodir qomusiy yodgorlikdir. «Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lish bilan birga, ilm-fan, hayotiy voqealar haqida mukammal ma'lumot beradigan manba hisoblanadi.

Unda O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi marosimlari: urf-odat, e'tiqod, ibodat, diniy marosimlarda ijro etashadigan og'zaki ijodlari o'z ifodasini topgan.

«Avesto»da shahar-u qishloqlarni obod qilish, bog'u-roq'lar, yaylovlarni ko'paytirish, kishilarning madaniy turmushini rivojlantirishga undash, oila mustahkamligi, farzadd tarbiyasi xususida ham diqqatga molik fikrlar ifodalangan. «Avesto»da Xuroson va Movarounnahr xalqlarining axloq-odob, ta'lim-tarbiya, kasb o'rganish, mehnatsevarlik, mehmondo'stlikka doir fikr –mulohazalar ham bayon qilinadi. Zardusht o'z nasihatlarini - o'gitlarida adolatni targ'ib etadi, yaxshi xulq-odobni e'zozlaydi: Uning ta'limoti uch nuqqada: Xumata — yaxshilik, Nuxta — to'g'riso'z, Xvarishita — yaxshi xulqdarda mujassamlashgan. U chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar hayotini badaviy ko'chmanchi yo'lto'sarlardan himoya qiladi. Adolat va odillik g'oyasini olg'a suradi.

«Avesto»da yaxshilik, unib-o'sish, yerda hayotni saqlash uchun intiluvchi kuchlar bilan razolat va sabohat,zulmat va halokat kuchlari o'rtasidagi kurashda mardlik, jasorat va matonat, ma'rifat va insoniylik g'alaba qozonadi.

«Avesto»da yer, suv, zamin, kiyim-kechak, ozik-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e'tibor berilgan. «Avesto»da inson tozalikka, sog'lomlikka da'vat qilinib, ularga badantarbiya bilan shug'ullanish alohida ta'kidlaniladi. «Avesto»da chorvachilik masalasiga alohida e'tibor beriladi. Inson chorvaning ko'payishiga, yaylovlarning gullab yashnashiga yordam bergan taqdirdagina, dehqonchilik va sug'orish ishlari ishtiyoq bilan mehnat qilgandagina xudo inoyatiga noil bulg'usidir». «Avesto»da ta'kidlanishicha, qarindoshlar o'zaro oila qurmasligi, qavm va urug' soni toza, avlod benuqson saqlanishi kerak, ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafada tayinlash lozim, bir yo'la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovordir,-deyiladi.

Bola asosan, oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa, hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) hisoblanadi. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo, yaxshi o'qishi va so'ngra esa, yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin,-deya e'tirof etiladi. «Avesto»dagi bunday fikrlar xalq pedagogikasida o'ziga xos tarzda ifodalangan.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari o'ziga xos urf-odati va an'analari, tarbiya sohasidagi hayotiy tajribalari xalq

pedagogikasida mujassamlangan. 2. «Visparad». U 24 bobdan iborat. «Visparad» ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

3. «Yasna». Yasnalar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlar paytida, qurbonlikka chaqirish marosimida aytiladigan qo'shiqlar, xudolar madhiyasi va boshqalar. Uning 17 bob Gotlar deb ataladi. Bular «Avesto»ning eng qadimgi qismlari sanaladi.

4. Yashtlar. U zardushtiylik xudolari va ma'budalari madhiga aytilgan 22 qo'shiq (Gimnlar)ni o'z ichiga oladi.

5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). Quyosh, Ov,

Ardvisura, Mitra, olov va boshqa xudo hamda ma'budalar sharafiga

yig'ilgan kichik ibodat tekst (gimnlar)idan iborat. «Vendidot»ning dastlabki uch bobida xalq hayotida yeming qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligi kuylanadi. Masalan, 1- bobida yovuzlik va adolat o'lkalar tasniflanar ekan, Axura Mazda tinchlik o'lkasi, Adolat olkalaming asoschisi, Angro Manvyu esa jaholat urug'ini sochuvchi sifatida talqin etiladi.

«Avesto»da axloqiy-tarbiyaviy masalalarning talqini.


«Avesto» asarida inson shaxsining kamolotga yetishishiga doir fikrlar bayon etilgan. Mazkur asar g'oyalari orqali qadim zamonlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lamiz. «Avesto» diniy xarakterga ega bo'lish bilan birga, o'zida falsafiy, siyosiy, filologik va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan. «Avesto»da shahar va qishloqlarni obod qilish, bog'-rog'lar, yaylovlarni

kengaytirish, odamlarning madaniy hayotini rivojlantirishga da'vat, oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi haqidagi ham diqqatga sazovor fikrlar ifodalangan. Shuningdek, «Avesto»da Xuroson va Movarounnahr xalqlarining axloq-odob, ta'lim-tarbiya, kasb o'rganish, mehnatsevarlik va mehmondo'stlikka doir mulohazalari ham bayon etilgan.

Inson hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va faoliyati ahamiyati shu murosasiz kurash yakuni bilan belgilanadi. Shu bois insonlar o'zlarining ma'naviy sifatlari bilan ezgulik tarafdori ekanini ko'rsatishi va bu bilan ezgulik ruhlari yovuz kuchlarga qarshi kurashda ko'maklashishlari kerak, Aks holda axloqi past, popok inson osongina yovuzlik to'riga ilinadi,-deyiladi. Yolg'on tarafdorlariga esa abadiy qiynoq hozirlangan. Shu sababli inson hayotda biror bir maqsadni belgilar ekan, o'z zimmasiga ma'lum majburiyatlarni olib, ularning bajarilishi uchun mas'uliyat his etmog'i lozim, degan g'oya ilgari suriladi. Yuksak ma'naviy sifatlilik Zardushtiylik bo'yicha jaholatning, yomonlikning oldini olishdir. Undagi qadimgi tibbiyot, fazo to'g'risidagi fikrlar, astronomiya va falsafaga oid nodir fikrlar inson qalbini yorug'likka chorlaydiki, bu yorug'lik, albatta, yaxshilikka olib boradi. Ana shunday ezgulikka xos faoliyatlar Axura Mazda obrazi orqali ifoda etilgan.

«Avesto» kitob shaklidagi matni eramizdan avvalgi o'n ikki mingdan ortiq mol terisiga oltin harflar bilan yozilgan nusxada saqlangan. Bu nusxa Iskandar Maqduniy istilosidan oldin Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni egallagach, «Avesto» kitobida keltirilgan tibbiyot, astronomiya, ilmi hikmatga oid g'oyalar grek tiliga tarjima qilinib, qolgan sahifalar yoqib yuborilgan. Zardushtning mazkur kitobi bizga ikki nusxada yetib kelgan. Birinchi nusxasi - duolar kitobidan tashkil

topgan bo‘lib, «Vendidat – sede», ya’ni «Pok Vendidat» deb nomlanadi. Bu kitobga «Yasna»lar, «Vispered» ham kiritilib, yaxlit bir butun hosil qilingan. Ikkinchisida birinchisiga o‘xshab «Vendidat», «Yasna», «Vispered» kabi bo‘limlarga ularning sharhli varianti — «Zand» (ya’ni sharh ma’nosida) qo‘shilgan. Shu sababli bu nusxa «Avesta Zend» yoki «Zend Avesta» deb ataladi. «Avesto»da barqaror markazlashgan boshqaruvdagi yirik siyosiy birlashmalar tuzish, kuchli hokimiyat, ma’rifat va Axura Mazda qonunlari bo‘yicha boshqariladigan jamiyat va xalq manfaati ustida qayg‘uradigan hukmdor nomi ilgari surilgan. «Avesto» bugungi kunda ham yoshlar uchun yo‘lchi yulduz bo‘lib xizmat qiladi.



Ezgulik va yovuzlikning asriy kurashi. «Avesto»da yer, suv, zamin, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni toza saqlash va himoya qilishga alohida e'tibor berilgan. Unda qabristonlarda tozalikka amal qilish zarurligi ta'kidlanadi. Axura Mazda tomonidan o't-o'lanlar va mevali daraxtlar ekilgan, suv oqimi ravon bo'lgan yer eng afzal joy, ayol va farzandlari sarson-sargardon yuradigan joy eng yomon makon deb e'tirof etilgan. Yerni ifloslagan va uni himoya qilish qoidalarini buzgan shaxslar jazoga tortilishi kerakligi bildirilgan.

«Avesto»ning bizga yetib kelgan parchalarida ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi keskin kurash tasvirlari mujassam. Ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi nafaqat «Avesto», balki og'zaki va yozma adabiyotning asosiy ildizini tashkil qiladi. Ayniqsa, «Yasna» tarkibidagi qo'shiqlarda «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal» shior sifatida takrorlanadi. Hakim Zardusht ushbu shiorga amal qilib: «Barcha yomon fikr, yomon so'z va yomon amaldan yuz buraman,» -deb o'z maqsadini ochiq bayon etgan. Shu sababli adabiyotshunos Rahim Vohidov ham «Avesto»ga oid tadqiqotlarida har ikki qutb - yaxshilik va yomonlik dunyosiga oid matnlar tahliliga alohida e'tibor qaratadi:

“- Ey, Mazda! Aslida ular (devparastlar — R.V.) o'z yomonliklari bilan bizga dahshat solmoqchi bo'ladilar. Chunki kuchli kishilar zaiflarning boshiga falokat va azob yetkazadilar va sening irodangga qarshi chiqib, dushmanlik qilishadi... Ular haqiqatni anglamaydilar. Ezgu niyatdan yuz o'giradilar.

-Ey, Mazda! O'sha badkirdorlar Ezgu Niyatdan befarqliklari tufayli dono aqlli odamlarga hurmat qilgan, buyuk martabaga ega bo'lgan Sen — Sipondormazni qadrlamaydilar. Ular haqiqatdan

uzoqlashadilar. Haq ularga moyil bo‘lmaydi. Bu badkirdorlar bizdan ajralib turadilar.”

Ko‘rinib turibdiki, Sadoqat, Samimiyat, Adolat, Ezgulik, Haqiqat, Ona tabiatga ulkan muhabbat, Ezgu niyat kabi umuminsoliy oliy fazilatlar «Avesto» sahifalarini yorqin ilohiy nuri bilan yoritib turadi. Sharq adabiyotining asosiy muammolaridan biri bo‘lgan “komil inson” tushunchasi ham aynan «Avesto» sahifalarida paydo bo‘lganligi, shubhasiz.(R.V.) «Avesto»da ta’kidlanishicha, ikki qarama-qarshi kuch: ezgulik va yomonlik mavjud. Yaxshilik kuchlariga Axuramazda, yomonlik kuchlariga Axriman boshchilik qiladi.

Mitra	quyosh va yorug'lik tangrisi
Anaxita	unumdorlik, hosildorlik, farovonlik tangrisi
Xumo	baxt, taqdir. bovlilik tangrisi
Xubbi	yigit, suv tangrisi
Mirrix	urush va g'alaba tangrisi

«Avesto»ning bugungi m a’naviy-axloqiy va tarbiyaviy talablarga hamohang bo‘lgan eng muhim tamoyillaridan biri - bergan so zning uddasidan chiqish, ahdga sodiqlik, savdo-sotiq va shartnomalarga qat’iy amal qilish, qarzni o 'z vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish, iymonlilik sifatlaridan iborat.

«Avesto»da odamlarni iymonli, e’tiqodli bo’lishga, doimo pokiza yurishga, tanani ozoda tutishga, har qanday yomon niyat va so’zlardan tiyilishga, yomon amallardan voz kechishga, nojoya ishlardan yuz o’girishga da’ vat etadi.

Asrlar o'tibdiki, «Avesto»da olg'a surilgan ezgu niyatlar, ezgu kalom va ezgu amal hamon barcha insonlarni ezgulik tomon chorlab ularni ruhan poklab, yuksak ma'naviyat tomon yetaklavdi. Zero, bu nodir manba mangulikka daxldordir.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Eng qadimgi davrlarda yozma manbalarda ta'lim-tarbiya oid qanday usullar qo'llanilgan?
 2. «Avesto»da inson va tabiat munosabati qanday tasvirlangan?
 3. «Avesto»da nur va zulmat bahsi qanday tasvirlangan?
 4. "... *Ey ,shoh Mazda! Axriman notavon bo'lsin, ko'zimiz o'ngidan yo'qolsin va shikast topsin. Axriman dev, duruj, jodu, durvand, kavay, karap, zolim, gunohkor, ashmut, dushman va pari shikast topsin! Yomon shahriyor notavon bo'lsin! Dushman mag'lub bo'lsin! Dushman notavon bo'lsin! Ey, Iloh Hurmuzd! Men barcha gunohlarimdan pushaymonman va patit qilaman (qaytaman). Men bu dunyoda aytgan yo qilgan yoxud ko'nglimning tubidan kechgan har nechuk qabih andisha, qabih so'z, qabih amallarimdan pushaymonman*".
- «Avesto»sahifalaridan keltirilgan ushbu matnni tahlil qiling.**

5-MAVZU: Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya taraqqiyoti

- REJA:** 1. Sharq mutafakkirlarining ilm-ma'rifatga e'tibori
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi
3. Forobiyning didaktik qarashlari
4. Ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi. N. Rahmonqulova, K. Matnazarova. Toshkent. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2010.
2. Pedagogika. R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev. Toshkent. «O'qituvchi», 2001.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Raxmonqulova. Toshkent. «Fan va texnologiya», 2010.
5. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Toshkent. «FAN», 1960.
6. Pedagogika tarixi. A. Zunnunov. Toshkent. «Sharq», 2004.
7. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005.
8. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005.
9. Umumiy pedagogika. (pedagogika tarixi) N. Saidova. «Fan va ta'lim» ;2022.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://ziyonet.uz/>

2. <https://arxiv.uz/>

3. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch soʻz va iboralar: axloq, tarbiya, uygʻonish davri, renesans, madaniyat, madaniy hayot.

Sharq uygʻonish davri. X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlari: Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar. Gʻaznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining pay do boʻlishi va xalifalik yemirilishi ham madaniy hayotning orqaga ketishiga emas, balki yanada ravnaq topishiga olib keldi. Islom dini vujudga kelishi madaniy hayotga chuqur taʼsir koʻrsatdi. Ana shu madaniy taraqqiyot butun Arab xalifaligini, Yaqin va Oʻrta Sharq hududlarini qamrab olgani sababli Sharq uygʻonish davri deb ataladi. Bu davrda pul muomalasi rivojlanadi. Jamiyat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi oʻzgarishlar, albatta madaniy hayotga oʻz taʼsirini oʻtkazmasdan qolmaydi. Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch oʻsha davrning madaniy markazlari sanalardi. Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr oʻrtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Sharq uygʻonish davrinida ilm-fan taraqqiyotini 3 yoʻnalishda kuzatish mumkin:

1- yoʻnalish - matematika, tibbiyot yoʻnalishidagi fanlar boʻlib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya. geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniylar matematikaga oid,

Zakriyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniylar tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy, Ulug‘bek, Ali Qushchilar astronomiya va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

2-yo‘nalish - ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bolib, bunda falsafa, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa sohalar bo‘lib, bu sohada Al-Forobiy, Al-Kindiy, Ibn Rusht, Ibn Sino, Zahiriddin Bayxakiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalami ko'rsatish mumkin.

3-yo‘nalish - ta'limiy-axloqiy yo‘nalish bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar o‘z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy asarlarida ifodalashgan.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari. Jahon matematika fanining buyuk namoyandasi Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 -yilda Xorazmda tavallud topgan.

Xorazmiy o‘z davridagi ilm-fan, ayniqsa, matematika taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olimdir. Uning matematikaga oid ko‘pgina g‘oyalari safdoshlari tomonidan ham rivojlantirilgan. Xorazmiyning matematika oid «Hind arifmetikasi haqida kitob» bolib, ular o‘nlik sistemasi raqamlariga bag‘ishlangan. Xorazmiy hindlaming falakiyot jadvailarini tahlil etib, «Xorazmiy ziji» nomi bilan mashhur astranomik jadvallar tuzdi. shuningdek, o lim «Er sathini o‘lchash», «quyosh soati to‘g‘risida», «Yahudiylar tarixi va ulaming bayramlarini belgilash» kabi asarlari bilan fan sohasiga juda katta hissa qo‘shdi. Insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlami yo'lga qo‘yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi.

Xorazmiyning trigonometrik hisob-kitoblari, uning vafotidan keyin mashhur matematik olim Habash Hosib Marvaziy tomonidan takomilga yetkazilgan. Xorazmiy yozgan asarlarning bir qanchasi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ular: 1. “Al-jabr val muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” (“Al-kitobul muxtasar fi hisobil jabr val muqobala”). 2. “Hind raqamlari algoritmi”. Muhammad ibn Muso Xorazmiyning ajoyib ishlaridan: Usturlob yordamida azimutni aniqlash” (“Zaroif min a’mol Muhammad ibn Muso Xorazmiy ta’rifus samt bil asturlob”). 4. “Marmar soat haqida kitob” (“Kitobur ruxoma”). 5. “Yerning surati kitobi” (“Kitob suratil arz”). 6. “Yahudiylar eralari va bayramlarini aniqlash haqida risola” (“Fi istixroj ta’rixil yahud va ayodihim”). 7. “Xorazmiy ziji” (“Zijul Xorazmiy”). 8. “Usturloblar bilan amal tutish haqida kitob” (“Kitobul amal bil asturlobot”). 9. “Tarix kitobi” (“Kitobut ta’rix”). Shuningdek, ayrim manbalarda mutafakkir “Astronomiyaga kirish haqida kitob”.

Buyuk matematika, astronomiya va geografiya olimi Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri hamda IX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan. Shu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirgan edi. Rivojlanayotgan mavjud tartib taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri hisoblanar edi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada rivojlantirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni taraqqiy ettirish zaruriyati yuzaga keldi. O’sha davrning ilg’or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo’lib, Muhammad al-Xorazmiy esa shu olimlarning yetakchisi va yo’lboshchisi bo’ldi.

Xorazmiy dunyo ilmiga juda katta hissa qo'shgan olim sifatida tanilgan. U algebra fanining asoschisi. "Algebra" atamasi esa uning "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash tizimi va shu tizimdagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Muhammad al-Xorazmiy o'zining falakiyotga doir ishlarida hindlarning falakiyot jadvallarini tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Ular turli g'arb va sharq tillariga tarjima qilingan. U o'z asarlari va ixtirolari bilan nafaqat o'z vatani, balki arab xalifaligining ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur qildi. Hozirgi kunda uning nomi bilan turli davlatlarda (Eron, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqalar) mukofotlar va medallar ta'sis etilgan, ko'cha va muassasalarga uning ismi berilgan.

Abu Nasr Forobiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Abu Nasr Forobiy (toMiQ nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Forobiy) hijriy 260 -yil (milodiy 873 -yil)da Shosh - Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. U boshlang'ich ma'lumotni o'z yurtida oladi. 5 yoshdan u yozish va o'qishni bilar edi.Tarixiy manbalarga ko'ra, u Buxoroda bo'lgan kezlarda Buxoro amiri Mansur ibn Nuh Somoniyning iltimosiga ko'ra falsafiy asar «At-tahlimiy» asarini yozadi. Shu asari tufayli «Muallim as-soniy» (ikkinchi muallim) laqabi bilan mashhur

bo'ladi. Olim 70 dan ortiq tilda so'zlasha olgan. U 160 dan ortiq asarlar yozgan. Bizgacha 40 ga yaqini yetib kelgan xolos.

Forobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan, uning ikki jihatiga: aqli ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor qaratadi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy hamda axloqiy jihatdan yetuk, mukammal kishi qilib yetishtirishga yo'naltirilishi lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi – jamiyat talablariga to'liq mos keladigan, uni bir butunlikda, osoyishtalikda, farovonlikda saqlab turishga xizmat qiladigan ideal insonni tayyorlashdir. «Aql haqida so'z», «Ilm va san'atning fazilatlari», «Baxt-saodatga erishish yo'llari haqida risola» nomli risolalarida olimning bu qarashlari ravshan ifodalangan. U ta'lim-tarbiyaga oid «Baxt-saodatga erishish yo'llari haqida risola», «Fozil odamlar shahri», «Fazilatli xulqlar», «Shahami o'rganish haqida» kabi asarlar yaratgan.

Forobiy ta'lim-tarbiya jarayoniga kirishishdan oldin odamlarning shaxsiy xususiyatlarini bilish muhimligini ta'kidlaydi. Uning nazarida, insondagi xohish, ixtiyor, iroda, yaxshilik va yomonlik kabi fazilatlarni, uning qaysi sohada qobiliyati borligini aniqlamasdan ish boshlash kutilgan natijani bermaydi. Olimning ta'kidlashicha, kimki eng go'zal va foydali narsani kashf etish salohiyatiga ega bo'lsa va u kashf qilgan narsa o'zining va boshqalarning xohish-istaklariga mos kelsa, u yaratgan narsa xayrli va foydali hisoblanadi.

Forobiyning qarashicha, «kimki ilm-fanni o'rganmoqchi bo'lsa, uni yoshlikdan boshlashi, sog'ligi joyida bo'lishi, yaxshi axloq va odobga ega bo'lishi, so'zining uddasidan chiqishi, yomon ishlardan tiyiladigan bo'lishi, barcha qonun-qoidalarni bilishi, bilimdon va notiq bo'lishi,

ilmli va dono insonlarni hurmat qilishi, ilm va ilm ahli oldida moldunyoisini sarflamasligi, barcha real, moddiy narsalar haqida bilimga ega bo‘lishi» zarur. Demak, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda ayniqsa, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish zarur.

Forobiyning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat albatta yaxshi axloq bilan bezatilishi kerak, aks holda kutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi, bola yetuk inson sifatida ulg‘aymaydi, daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lgani kabi, insonning barcha fazilatlari ham axloq bilan to‘liq shakllanadi. Forobiyning asarlari insonparvarlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan .

Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlari. Abu Rayhon Beruniy 973 yil 4 sentyabr (hijriy 362 y. 2-zulhijja) kuni Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida dunyoga keladi. Bo‘lajak olimning yoshlik chog‘lari jamiyatning eng quyi doirasida kechgan, o’sha paytlaridayoq turmushning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan. Arab istilosi davridan boshlab (VII asr) Xorazmda ikki mustaqil hokimiyat - shimoliy tomonda Majdakxon, g‘arbiy qismida Gurganj (ko‘hna Urganch) shahri yuzaga keladi. X asrga kelib, bu yerda ma’muniylar sulolasi hukmronlik qildi. 995 yili Gurganj amiri Ma’mun ibn Muhammad Katni bosib oladi, hukmdorini o‘ldirib, o‘zi Xorazm shohi bo‘ladi. Orol bo‘yidagi davlatlar, Volga bo‘yi, Shimoliy Kavkaz, Kiyev Rusi bilan aloqalar o‘rnatadi. Abu Rayhon Beruniy ana shunday tarixiy

voqealar yuz berayotgan davrda yashadi. U yoshlikdan ilm-fanga g'oyat qiziqadi. Xorazmda shuhrat qozongan olim Abu Nasr ibn Irok Mansur qo'lida ta'lim oladi, fanning turli sohalari bilan shug'ullanadi, butun Sharqning fan va madaniyatini o'rganadi, ona tilidan tashqari arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini mukammal egallaydi. Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi. Abu Nasr ibn Irok, Beruniyning abu Rayhon deb ataydi. Beruniy 995 yili Katda afrigiylar hokimiyatiga bardam berilgach, Xorazmdan chiqib ketib, Eronning Ray shahrida istiqomat qiladi. Jurjon (Gurgon) shahriga kelib, bu yerda «O'tmish yodgorliklari», «Kamtarlar yoki oq kiyimdagi kishilar tarixi» asarini yozadi. Rostgo'ylik uning tadqiqot usuli mushohada va taqqoslashga asoslangan edi. Go'yoki Arastuning kosmik tizim haqidagi mushohadalarini shubha ostiga olgan. Beruniy insonning ko'rish, eshitish, sezish, hid bilish kabi xususiyatlarga ega ekanligi bilan barcha mavjudotlardan ustunligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning asosiy vazifasi mehnat qilib, maqsadiga erishish va yaxshilikka intilishdir. Beruniy: "Mening qalbim ikki biqinim orasida turib, ko'zlarning ko'rganini, quloqlarning eshitganini anglaydi", — deb bilim eshitish va ko'rish orqali o'zlashtirilishini, bilish qalb bilan bog'liq ekanligini bildiradi.

Beruniy tabiat va jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish – inson tabiatini bildiruvchi omil ekanligini ta’kidlab, ishilarini voqealarga mustaqil va ongli munosabatda bo‘lishga chaqiradi.

Beruniy mehnatni ulug‘laydi. Unga ko‘ra, inson yaratgan har bir narsa uning ruhiyati va qobiliyatiga mos bo‘lishi, uni toliqtirmasligi lozim.

“Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirmaslikdir. Doim bir xil narsani o‘qish zerikarli bo‘lib, toqatni to‘kadi. Agar o‘quvchi bir mavzudan boshqasiga o‘tsa, u xuddi turli-tuman bog‘larda sayr qilgandek bo‘ladi, bir bog‘dan chiqib, boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning barchasini ko‘rishni va tomosha qilishni xohlaydi.“Har bir narsa rohat bag‘ishlaydi’ degan gap bejiz aytilmagan”, - deydi u. Beruniy olimlarning mehnatini yuksak qadrlaydi va ularning ishlari tufayli ilmiy yodgorliklar bunyod bo‘lishini ta’kidlaydi.

Beruniy rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlikni ulug‘laydi, yolg‘onni odamlar orasida nizolar keltirib chiqaruvchi illat sifatida qoralaydi, adolat bilan tenglashtiradi. Uning nazarida, xalq adolatni sevishi kabi, rostgo‘ylikni ham sevadi, ammo uning mohiyatini anglamagan odam uni yoqtirmaydi.

Beruniyning ma’rifat va bilim olish haqidagi qarashlari hozirgi kunda ham ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalashda o‘z o‘rnini topadi. 1030-yili «Hindiston» deb nomlanuvchi

mashhur asarini yaratadi. Beruniy o'z didaktik qarashlarida tabiat, jamiyat hodisalariga, turmush voqealariga xolisona baho berish – inson tabiatini bildiruvchi omil ekanligini ta'kidlab, kishilarni voqealarga mustaqil va ongli munosabatda bo'lishga undaydi. Beruniy 1048 yili dekabrda Razna shahrida 75 yoshida vafot etadi. Beruniy yaratgan har bir ishining kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga e'tibor beradi. Beruniy yozadi: «Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Beruniy mehnatni ulug'laydi, ayniqsa, olimlar mehnati tufayli ilmiy yodgorliklar bunyod etilishini ta'kidlaydi. Uningcha, yozish xabar turlarining biri bo'lib, uni boshqa turlardan ko'ra sharafliroq sanash mumkin: qalamning abadiy izlari bo'lmaganda, xalqlarning xabarlarini bilib bo'lmaydi. Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo'qotishning asosiy yo'li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shoxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, g'azab, yuz ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shoxobchalar quriydi. Bu asoslarning negizi esa, ishtaha va g'azabdir. Ishtaha insonga eng kuchli va eng halokatli dushman bo'lib, insonni ovqatlarni tanovul qilish lazzati va o'ch olish zavqi bilan aldaydilar.

Olimning tushuntirishicha, bu illatlar, ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta'siriga berilib ketgan kishi insonlik qiyofasini yo'qotadi. Beruniy rostgo'ylik, to'g'riso'zlikni ulug'laydi, yolg'onchilikni odamlar o'rtasiga nizo soluvchi illat sifatida qoralaydi. Beruniy rostgo'ylikni adolat bilan barobar qo'yadi. Uning fikricha, xalq, adolatni sevgani kabi, rostgo'ylikni ham sevadi. Ammo uning mohiyatini, yakdilligini bilishni istamaydigan kishi uni sevmaydi. Beruniyning ma'rifat va bilimdonlik darajasi, kishilarning mulohaza yuritish holati to'g'risida. Beruniy fikriga ko'ra, har bir narsani aniq sinchiklab o'rganish, bilim, bundan so'nggina bir xulosaga kelish kerak. Beruniy bu ishda tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, erinchoqlik, ilmsizlikni tanqid qiladi. Beruniy muruvvat va futuvvatni eng yaxshi insoniy fazilat deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, muruvvatli kishi o'z qobiliyati, xushmuomalaligi, shafqatliligi, oriyatliligi, chidam, fazilat va kamtarlik xislatlari bilan ajralib turadi. Beruniy muruvvat va futuvvat (shafqat)ning yuksak xislat ekanini ta'kidlar ekan, bu fazilatlar kishining asl zoti, kelib chiqishiga bog'lik emasligini, kishining qilgan xayr va yaxshiligi muhim ekanligini uqtirdi.

Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi, ilm-fanning gullab yashnashida, odamning

baxti esa, uning bilim va ma'rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra xayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va shafqat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidladi. Beruniy olg'a surgan insonparvarlik g'oyalari, ta'lim-tarbiya xususidagi fikr-o'g'itlari mustaqillik davrida ham yoshlarni barkamol qilib yetishtirishga xizmat qiladi.

Abu Ali ibn Sinoning ta'limiy-axloqiy qarashlari. Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida inson hayoti, uning faoliyati faqat jamoada amalga oshishi va rivoj topishi mumkinligini qayd etadi. Inson uni o'rab olgan tabiat va tabiiy hodisalardan tashqaridagi narsalarga muhtojlik sezadiki, bu narsalarni faqat mehnat qilish bilan yaratadi, lekin bu narsalarni faqat o'z mehnati bilan amalga oshira olmaydi, ularni yaratish uchun boshqalar ham ishtirok etishi kerak yoki jamoa yordam berishi lozim. Buning uchun jamoa a'zolari o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Bu munosabat til, ma'nroi ovozlari orqali yuzaga keladi.

Yaxshilik odamlarni inoqlikka, yomonlik bilan kelishmovchilikka olib boradi. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, yaxshi odat, yaxshi xulq; va yomon xulq haqidagi tushuncha, bilimlar insonda shu asosda shakllanib boradi. Inson ongli suratda harakat qiladi va bu harakat natijasini biladi, ya'ni u kelajakni o'ylab harakat qiladi. Aniq maqsad bilan harakat qiladigan insonni va jamoani yomonlikdan saqlaydi, yaxshi ishlar qilishga yo'llaydi, unda ishonch tuyg'usini hosil qiladi.

Ibn Sino yaxshilikka olib boruvchi axloqqa oid g'oyalarni egallash, insonning axloqiy munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani izchil amalga oshirish mumkinligini

alohida qayd qiladi. Ibn Sino bola tarbiyasiga kelganda, u yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor beradi. Bola tug'ilganidan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu tartib o'z vaqtida ovqatlantirish, cho'miltirish, uxlatish kabi tartiblardan iborat. Bularni ham ma'lum qoidalar asosida amalga oshirish darkor. Bola tabiatini mustahkamlashdagi muhim vositalar asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat bo'lib, ular tartib bilan amalga oshirilsa, bola yaxshi uxlaydi. Tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom baxsh etadi. Ibn Sino yosh bola tarbiyasini turli sharoitda ma'lum izchillik va tartib bilan olib borish haqida onalarga juda yaxshi maslahatlar beradi. Bolalarning o'spirinlikka o'tish davri tarbiyasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu davrda ularda xulq-atvor shakllanadi. Bola xulq-atvorining bir xil muvozanatda bo'lishi uchun uni keskin g'azablanishdan, qattiq qo'rquvdan va uyqusizlikdan saqlash zarur. Bu tadbir uni yoqimli xulq-atvorli qilib tarbiyalash imkonini beradi.

«Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor. Biri - bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi. Ikkinchisi - uning badani uchundir, chunki yomon xulq, turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq, odatda kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi.

O'qitish, bilim berish, o'rgatish xam asta-sekin amalga oshirilishi kerak. Bolaning kitob o'qishga haddan tashqari berilishi uning sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi. Bolaning o'spirinlikka o'tish davrida bolaga og'ir jismoniy ish topshirilmasligi kerak: ish topshirishda bolaning xohishi, istagi

hisobga olinishi lozim. Bolaning kun tartibi ularning tanasi va nafasining salomatligini saqlash va o'sishini ta'minlashga qaratilgan bo'lmog'I darkor. Bularning hammasi bolaning tanasi va ruhiyati muvozanatini saqlash uchun xizmat qilishi lozim. Bolalar tarbiyasi — bu izchil va asta-sekin amalga oshiriladigan tartibdan iboratdir. Bola balog'atga yetguncha, ota o'z vazifasini bajarib borishi kerak. Avvalambor, otaning majburiy vazifalaridan biri o'z farzandiga yaxshi nom berishidir. Bolani emizish davri tugab, mustaqil ovqatlanish davri boshlanishi bilan ota uning axloqiy tarbiyasiga kirishuvi zarur. Maqsadga erishish uchun tarbiyada bolani ba'zan maqtash, ba'zan jazolash ham kerak.

«Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlagandan so'ng, u savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng savodga o'rgata borish mumkin. Avvalambor axloqiy va o'qish tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo'ladi. U sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo'la oladigan bo'lishi kerak

Ibn Sino ta'lim tizimi haqida Ibn Sino bolalarni bitta-bitta, alohida uqtirishdan ko'ra, jamoa tartibida uqtirishni afzal deb biladi va uning ustunligi haqida gapirib shunday yozadi: «O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar.

Ibn Sino bolalarga Qur'onni va grammatik qoidalarini o'rgatib, dinning maqsadlarini tushuntirib bo'lgandan so'ng, ularni ma'lum hunarga jalb etishni, hunar asoslarini egallashlariga e'tibor berishni, ular hunarni egallab, o'z hayotlarini ta'minlay olishlariga e'tibor berishni tavsiya etadi. O'qituvchi bolani hunarga o'rgatishda uning qobiliyati, iste'dodi, imkoniyatlarini e'tiborga olishi kerak, barchani birdaniga bir hunarga o'rgatib bo'lmaydi. Ayrim bola tilni o'rganadi, ayrimlari shoir bo'lib yetishadi yoki notiqlik san'atini egallaydi. Ilmlarning turli sohalaridan kimdir tilni o'rganish, kimdir boshqa ilmiy o'rganishga kirishganidan so'ng, ba'zilarining tibbiy fanni, ba'zilarining geometriya ilmini tanlagani ma'lum bo'ladi. Demak, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishga kirishishdan avval, o'quvchining xulq-atvorini o'rganishi va bilimlarini tekshirib ko'rishi kerak bo'ladi. Avvalo, u o'quvchining nimaga e'tibor berishini tekshirib ko'rishi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini tavsiya etishi kerak.

Ibn Sino jismoniy tarbiya haqida «Tib qonunlari» asarida bola katta bo'lib, yetilgan chog'ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning uqtirishicha, odamning yigitlik, yetuklik yoshida hamda ulg'aygan yoshida sog'lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanishi kerak. Ulug' mutafakkir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot harakatlariga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustaqil shug'ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishga muhtoj bo'lmaydi. Jismoniy mashg'ulot inson ruhini ham tetiklashtiradi. Ammo jismoniy mashg'ulotlar ortiqcha bo'lmasligi kerak, aks holda badanning tezda

charchab qolishiga olib keladi. Jismoniy mashg'ulotlarni butunlay tashlab yuborish esa, badanning tezda ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Har bir inson uzining xulq-atvori, imkoniyatlari, qobiliyati, xohishiga qarab jismoniy mashg'ulot turini belgilab olish kerak.

Ibn Sinoning aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarini aniqlashga harakat qilgandi. U pedagogik faoliyatida yosh avlodni go'zal axloqli qilib tarbiyalashning shartlari va usullarini ishlab chiqdi, shu bilan ilg'or pedagogik fikrning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. Sharq uyg'onish davrining o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
2. Sharq uyg'onish davri vakillarining pedagogik qarashlarining mazmuni haqida fikrlang.
3. Forobiy ,Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino ,Navoiy qarashlarida komil inson g'oyasining ifodalanishini chizmada aks ettiring.

Forobiy qarashlarida komil inson	Beruniy qarashlarida komil inson	Xorazmiy qarashlarida komil inson	Ibn Sino qarashlarida komil inson	Navoiy qarashlarida komil inson

6-MAVZU: Temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi

REJA: 1. Temuriylar davrida ilm-fanning rivoji.

2. Temuriylar davri ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.

3. Temuriylar davrida tarbiya masalasi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboxonov.A. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. «O'qituvchi». 1967
3. Mallayev N.. O'zbek adabiyoti tarixi. O'qituvchi, 1976
4. Ibn Arab Shoh. Amir Temur tarixi. Toshkent, 1991 .

5. Ahmedov.B. Amir Temur. Toshkent. 1991 .
6. Ahmedov. B.Mirzo Ulug'bek, Toshkent.1991
7. Husanxo'jayev «Navoiy ta'lim-tarbiya haqida», Toshkent, 1963
8. O'zbek Milliy Ensiklopediyasi. 1 tom. Toshkent, 2001
9. Aliqulov X. Jaloliddin Davoniy. Toshkent. "O'qituvchi" 1993
10. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005.

Elektron ta'lim resursi:

1. w.w.w.pedagog.uz/

2. <https://ziyonet.uz/>

Tayanch so'z va iboralar: temuriylar, hukmronlik, tarbiya, axloq, ma'rifatparvar, ma'naviyat.

Temuriylar davrida ilm-fan rivoji. Tarix guvohlik berishcha, temuriylar davri 1370-yildan boshlab, Temur hokimiyatga kelishi bilan-1370-yildan boshlanib, Shayboniyxon Hirotni egallashi bilan-1507-yilda yakunlandi. Bu davr O'rta Osiyo, xususan o'zbek xalqi madaniyati, ilm-fani, maorifi, san'ati va adabiyoti tarixida yangi, sermahsul va yorqin davr bo'ldi. Shu bois bu davr tarixda Sharqning uyg'onish — renessansi davri deb nom qoldirdi.

Temur Movarounnahr bilan birga Eron, Iroq, Ozarbayjon va Hindiston shimolining ko'plab hududlarini o'z tasarrufiga oldi. Natijada O'rta Yer dengizidan Xitoy chegaraigacha keng hududni qamrab olgan yirik imperiya vujudga keldi.

Temur ichki feodal urushlarni qattiqqo‘llik bilan bostirdi. Zabt etilgan hududlardagi boyliklar, hunarmand va ustalar bilan birga Samarqandga olib kelingan me‘mor va rassomlar shahar ko‘rinishini tubdan o‘zgartirdi. Samarqandda ajoyib me‘moriy yodgorliklar, bog‘lar, saroylar, ko‘priklar va suv kanallari barpo etildi. O‘rta Osiyo qo‘shni va Sharq-G‘arb mamlakatlari bilan savdo, elchilik aloqalarini rivojlantirdi.

Temurning To‘xtamishxon va Yildirim Boyazid ustidan qozongan yirik g‘alabalari uni jahonga mashhur qildi. 1405-yilda Temur vafotidan so‘ng uning davlati parchalanib ketdi. Xuroson va Movarounnahr taxti uchun qonli kurash boshlandi. 1409-yilda Shohruh taxtga chiqib, Xurosonni boshqarishga olgan, Movarounnahrni esa o‘g‘li Ulug‘bekga topshirgan. 1447-yilda Shohruh, 1449-yilda esa Ulug‘bek o‘ldirildi. Taxt uchun kurashlar davom etdi.

1450-yillarga kelib, Xuroson Abulqosim Bobirga, Movarounnahr esa Abusaidmirzoga o‘tdi. Bobur vafotidan keyin Xuroson Abusaid egalladi. U 1469-yilda G‘arbiy Eronga hujumda halok bo‘ldi. Taxt uchun ichki to‘polonlar va saroydagi fitnalar davlatning zaiflashishiga sabab bo‘ldi. Temuriylar hukmronligi kamayib, Shayboniynxon Movarounnahr va Xurosonni bosib oldi.

Temuriylar davrida Samarqand va Hirot ikki asosiy madaniy markaz bo‘lib, ko‘plab olimlar, shoirlar va san‘atkorlar yetishib chiqdi. Buyuk astronom Mirzo Ulug‘bek, shoirlar Mironshoh, Husayn Boyqaro, Z.M.Bobur kabi shaxslar shu davr madaniy hayotining yorqin namunalari bo‘ldi. O‘rta Osiyo XIV–XVI asrlarda tabiiy va gumanitar fanlar rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Muhammad Tarag'ay - Ulug'bek davrida ilm-fan rivoji. Mirzo Ulug'bek Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymolardan biridir. Ulug'bek 1394-yil 22-martda tug'ilgan. Otasi Shohrux — Amir Temurning uchinchi o'g'li bo'lib, Xuroson hukmdori, ma'rifatli, ilm-fanga ixlosmand shoh edi. Shu tufayli u dunyoning turli burchaklaridan ko'plab fanlarga doir kitob va qo'lyozmalarni olib kelib, Samarqandda katta kutubxona tashkil etadi, yoshlarning ilmlarni egallashlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim ham o'z davrining oqila bilimdoni, tadbirkor ayollaridan hisoblanar edi. Ma'rifatparvar ota-ona o'z farzandlari Ulug'bekning tarbiyasiga alohida e'tibor berib, jismonan sog'lom, aql-zakovatli, axloq-odobli va ilmda barkamol bo'lib yetishishiga harakat qiladilar. Ulug'bekni o'z davrining bilimdon va tajribali murabbiylari tarbiyalab, savodini chiqaradilar, uni diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari bilan tanishtiradilar.

Ulug'bek arab va fors tillarini mukammal o'rganadi, o'z davrining taniqli olimi va san'at homiysi sifatida shuhrat qozonadi. Ulug'bek 17 yoshida Movarounnahr hokimligini egallaydi. Uning tashabbusi bilan mamlakatda ilm, adabiyot, san'at ahli fanlarning yangi-yangi qirralarini ochishni boshlaydilar.

Ulug'bek o'z faoliyatida asosan falakiyot (astronomiya) fanini rivojlantirishga katta ahamiyat beradi. 1424-yilda Samarqandda qurgan rasadxonasida sayyoralar sirini o'rganadi. Uning boshchiligida yuzdan ortiq olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borib, astronomiya va matematika

sohasida kashfiyotlar yaratadilar. Ular 1018 ta yulduzning holati va harakatiga doir asarlar yozadilar. Bu asarlarning asosiy mazmunini “Ziji Ko‘ragoniy” deb ataluvchi astronomiya jadvali tashkil etadi. Jadval jahon fani rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

Rasadxona negizida Samarqandda astronomiya maktabi vujudga keladi. Bu maktab o‘z davrining akademiyasi (“Dorul-ilm”) bo‘lgan va O‘rta asrlar musulmon Sharqi astronomiyasining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.. Samarqand Ulug‘bekdan keyin ham uzoq vaqt O‘rta Osiyoning katta ilmiy va madaniy markazi bo‘lib qoldi. XV asrning ikkinchi yarmida maydonga chiqqan buyuk olim va adiblar — Alisher Navoiy va uning ustozlari Jomiy ham aynan Samarqandda tahsil olganlar. Hirot esa asta-sekin Xuroson va Movaraunnahrning yirik madaniy markaziga aylandi. Bu shahar XV asrning ikkinchi yarmida adabiyot, san’at, maorif, musiqa, xattotlik va miniatyura san’ati sohalarida katta yutuqlarga erishdi.

O‘zbek xalqining buyuk shoiri va jahon adabiyotining namoyandalaridan biri Alisher Navoiydir. U temuriylar avlodidan edi. Nizomiddin Mir Alisher 1441-yil 9-fevralida Hirotning Bog‘i Davlatxona mavzeida, Temuriylar xonadoniga yaqin bo‘lgan davlat xizmatchisi G‘iyosiddin Bahodir oilasida tavallud topgan. Otasi G‘iyosiddin Muhammad — Temuriylar saroyida xizmat qilgan, o‘z davrining nufuzli kishilaridan biri bo‘lib, o‘g‘lining tarbiyasi va ta’limiga jiddiy e’tibor bergan. Onasi (ismi aniq emas) Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgani rivoyat qilinadi.

Navoiyning ota-onasi haqida ma'lumotlar kam bo'lib, u o'z asarlarida ham qarindoshlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tmagan. Navoiyning Darveshali ismli ukasi bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud. Alisher Navoiy ikki tilda — turkiy va forsiy tillarda mukammal ijod qilgan. Turkiy tildagi she'rlarida Navoiy, forsiy tildagilarda Foniyl taxalluslarini qo'llagan.

Tarixchi Mirhond «Ravzat us-safo» asarida yozishicha, Mir Alisherning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh bo'lgan. Navoiyning ilmga bo'lgan ishtiyoqi erta uyg'onib, 4 yoshida maktabda ta'lim ola boshlagan. Navoiy 7 yoshida Fariduddin Attorning «Mantiqut-tayr» asarini yoddan bilgan. Mir Alisher 7 yoshida buyuk muhaddisimiz Imom Buxoriy hazratlarining olti mingdan ziyod hadislarini (hadisi shariflari)ni yod bilgan. Mir Alisher 7–8 yoshlaridan boshlab g'azallar yoza boshlagan. Alisher Navoiy «muqarrabi hazrati sultoniyl» («Sulton hazratlarining eng yaqin kishisi») degan unvonni olgan. Ushbu unvon Navoiyga davlatning barcha ishlariga aralashish huquqini bergan. Alisher Navoiy o'n besh–o'n olti yoshlarida ham turkiy, ham forsiyda ijod qiladigan “ikki tili” shoir sifatida tanilgan.

Alisher Navoiy o'smirlik yillarida o'zi sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yod bilgan. Alisher Navoiy turkiy tilda yozgan she'rlariga Navoiy, forsiy tildagi she'rlariga Foniyl deb taxallus qo'yadi. Shoirning forsiy she'rlar to'plami «Devoni Foniyl» deb nomlangan. Navoiy taxminan 18–19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug' shoir o'rtasidagi ustoz va shogirdlik munosabatlari yanada mustahkamlanib, ijodiy hamkorlikka aylanadi. Samarqand shahri

Navoiyning hayoti va ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher 1464 yilda Samarqandga keladi va bu yerda madrasada tahsil olib, ilm-fan, adabiyot va san'at bilan tanishadi.

Navoiy 1469 yilda do'sti Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan 90 baytdan iborat «Hiloliya» qasidasini yozadi («hilol» – yangi chiqqan oy). Navoiy o'z jamg'armasi hisobidan Hirotida va butun Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshoot qurdirgan. Alisher Navoiy 16 ta adabiy janrda ijod qilgan. Navoiy turkiy tildagi ilk «Xamsa»ni 2 yil davomida yozadi. Dunyoning 64 tiliga tarjima qilingan bu asar 51 ming misradan ortiq. Shoirning lirik merosi umumiy hajmi 50 000 misradan ortiq bo'lib, «Xazoyin ul-maoniy» nomli to'rt devonga (1491–1498) jamlangan. Navoiyning turkiy tilni qayta tiriltirishi ma'naviyatimiz uchun ulkan jasorat bo'lgan. Zamondoshlari uni “Nizomiddin Mir Alisher” deb ulug'lashgan. “Nizomiddin” – din nizomi, ya'ni “din tartibi” degan ma'noni anglatadi. Ko'pincha mansabdor shaxslarga nisbatan ishlatiladigan “mir” so'zi esa “amir” deganidir. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy — shoir, mutafakkir, jahon adabiyotining yetuk siymolaridan biri, davlat arbobi va faylasuf. Alisher Navoiyning adabiy va ilmiy merosini to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Devonlari
2. Dostonlari
3. Forsiy tildagi she'riy merosi
4. Ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari

Navoiyning o‘zbek (turkiy) tilida yaratgan she’riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar to‘rt qismdan iborat bo‘lib:

- «G‘aroyib us-sig‘ar» («Bolalik g‘aroyibotlari»),
- «Navodir ush-shabob» («Yigitlik nodirotlari»),
- «Badoye’ ul-vasat» («O‘rta yosh bade’lari»),
- «Favoid ul-kibar» («Keksalik foydalaridan»)

deb nomlangan.

«Xazoyin ul-maoniy» — inson tafakkuri va tuyg‘ulari bilan bog‘liq minglab she’r va she’r turlarini o‘z ichiga olgan noyob adabiy majmua bo‘lib, Sharq adabiyoti tarixida kamyob hodisadir. Bunday majmua Navoiydan oldin faqat Amir Xisrav Dehlaviy tomonidan tuzilgan edi. Ushbu devonga kirgan minglab she’rlarni Alisher Navoiy butun umri davomida, turli sharoitlarda va sabablar bilan yozgan. Ular shoir hayoti va u yashagan davrning voqealari bilan chambarchas bog‘liq.

«Xazoyin ul-maoniy»dan avval Navoiy «Ilk devon», «Badoye’ ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya» nomli devonlarini tuzgan. «Xazoyin ul-maoniy» ana shu devonlarga kiritilgan hamda «Navodir un-nihoya»dan keyin yozilgan she’rlar asosida vujudga kelgan.

"Xazoyin ul-maoniy"dagi 4 devonning har birida 650 tadan 2600 gazal, umuman 4 devonda 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 10 chiston, 5 musaddas, 4 tarjiband, 4 mustazod, 1 musamman, 1 tarkibband, 1 qasida, 1 masnaviy, 1 soqinomaga mavjud bo'lib, Sharq she'riyatining 16 turi namoyon.

1472-1476-yillarda birinchi devoni “Badoe' ul-bidoya” (“Badiyilik ibtidosi”) devonini shoh amri va istagi bilan o'zi kitob qiladi. Mazkur devon 777 gazal, 85 ruboiy, 52 muammo, 46 qit'a, 53 fard, 10 tuyuq, 10 lug'z, 3 mustazod, 5 muxammas, 3 tarjiband, 2 musaddasdan tarkib topgan.

Alisher Navoi butun ijodi davomida turli janr va yo'nalishlarda salmoqli ijod qilgan. Nasrda ham, nazmda ham etuk asarlar yaratgan. Nasrda Navoi asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy, iqtisodiy yo'nalishlarda qalam tebratgan. Shoirning she'riyatdagi birinchi ustozlari to'g'asi Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar bo'lgan. Navoi ular haqida “Majolis-un nafa'is”da, xususan, Qobuliy haqida: “Yaxshi tabi' bor erdi, turkchada mayli ko'proq erdi...” deya, G'aribiy haqida esa: “Xush muhovara (xushsuxbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xub erdi. Musiqiy ilmidan ham xabardor erdi...” deya qisqacha to'xtalib o'tgan.

1447 yilda Shohrux Mirzo vafot etadi. Temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun urush ketib, yurtning talotoplar boshlandanda Alisher Navoiyning oilasi ham ko'p insonlar qatori yurtning tark etadi. Yo'lda yosh Alisher buyuk tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyni uchratadi. Tarixchi Alisher bilan tanishadi, uning ilmi va farosatini olqishlaydi, duoga qiladi. 1452 yili Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur Hirat taxtiga o'tiradi. G'iyosiddin Muhammad Sabzavor shahriga hokim etib saylanadi, biroq oradan ko'p o'tmay vafot etadi. Bu vaqtda esa Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'yadi. Abulqosim Bobur Alisher va uning

maktabdosh do'sti Husayn Boyqaroni o'z qaramofiga oladi. 1457-1463 yillarda Navoi Mashxad madrasalarida ta'lim oladi.

1463 yilda esa Hirotga qaytadi. Xuroson poytaxtida Sulton Abu Said o'z tartibini o'rnatgan, muhim vazifalarga u bilan Mavaronnahrdan kelgan kishilar tayinlangan, Alisher Navoi ga yaqin kishilar quvgin qilingan, Husayn Boyqaro bilan birga ketgan to'galari — Mirsaid va Muhammad Ali urushda halok bo'lgan, yashash uchun biron joy topish muammo edi. Alisher Navoiyning o'sha kundagi ahvoli uning keyinchalik ustozlari Sayyid Hasan Ardasheriga Samarqanddan yozgan maktubidagi she'riy satrlarda nihoyatda ta'sirli va haqqoniy ifodalab berilgan.

Bu vaqtda mamlakatda taniqli shoir bo'lib qolgan Alisher Navoiyni Abu Said ta'qib qilib, Hiratdan chiqarib yuboradi. Shoir Samarqandga ketishga majbur bo'ladi. Alisher Navoi Samarqandda 1465 yildan 1469 yilning bahorigacha yashadi, Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yana-da chuqurlashtirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur «Turkiy til bila to' she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xub aytqon emas», — deb yozsa, Husayn Boyqaro «Mir Alisher turk tilining o'lik jasadiga Masix nafasiga ila jon ato etdi» deb ta'kidlagan. Alisher Navoi 1501 yil 3 yanvarda vafot etgan. Uni dafn etish chog'ida maydalab yomg'ir yog'ib turgan edi. Buni tarixchi Xondamir “hatto tabiat ham motam tutdi” deya ta'riflagan.

Ijod etgan barcha asarlarida Navoi insonparvarlik, el-yurt farovonligi g'oyalarini ifodaladi, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlarini bayon etdi. Uning bu g'oyalari barkamol avlodni yetishtirishga xizmat qildi, buyuk alloma

izdor etgan benazir g'oyalar milliy pedagogika tarzida alohida o'rinda turadi.

Jaloliddin Davoniy. Davoniy o'z zamonasining ma'rifatparvari, ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan qomusiy olimlardan biri. Davoniyning iste'dodli alloma sifatida shakllanishida Samarqand va Hirot ilmiy muhiti muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki XIV-XV asrlarda Samarqand va Hirot ilm-fan markazlaridan sanalgan. Davoniy bu ikki shahar olimlari hamda Vizantiya, Ozarbayjon, Qirmon, Hurmuz, Tabariston, Xuroson va Jurjon ulamolari bilan uzviy aloqada bo'lgan.

Ayniqsa, Hirotida bo'lganida mashhur shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy bilan uchrashgan va keyinchalik ham u bilan yozishib turgan. Shunday qilib, Davoniyning yetuk olim bo'lishida Yaqin va O'rta Sharq hamda Movarounnahrning salohiyatli mutafakkirlari bilan ilmiy hamkorligi muhim omil bo'lgan. Jaloliddin Davoniy keyinchalik Eron, Iroq, Hindiston, Koshon, G'ilon, Tabriz, Hirot kabi shaharlarga safarlar uyushtirib, ko'plab bilimdonlar bilan suhbatlashib, o'zining bilim doirasini kengaytiradi. Hayotining oxirgi yillarini o'z qishlog'ida o'tkazadi. Olim 1502-yilda vafot etgan. U Kazarun yaqinidagi Davon qishlog'iga dafn qilingan.

Davoniyning madrasadagi uzoq yillik mudarrislik faoliyati uning ta'lim va tarbiya borasida o'ziga xos qarashlarga ega ekanligini anglatadi. Shuningdek, u o'z she'rlarini «Foniy» taxallusi bilan yaratgan. Biroq, uni dunyoga mashhur qilgan, fors tilida bitilgan «Axloqi Jaloliy» asari turli tillarga tarjima qilinib, keng shuhrat topgan.

«Axloqi Jaloliy»da inson komilligiga eltuvchi eng muhim axloqiy fazilatlar, ularni shakllantirish yoʻllari va uslublari bayon qilingan. Asar uch boʻlimdan iborat: birinchi boʻlim axloq faniga, ikkinchisi insonning ichki kechinmalari hamda oilaviy hayotiga, uchinchi boʻlim esa davlat boshqaruvi va hukmdorlar siyosatiga bagʻishlangan boʻlib, unda ijtimoiy-siyosiy masalalar yoritilgan.

Ushbu boʻlimda jamiyatning shakllanishi, davlatni boshqarish, xalq farovonligi, ilm-fanning jamiyatdagi roli kabi masalalar tahlil etilgan. Asosan, Davoniy insonning haqiqiy komillikka yetishishida aqliy va axloqiy tarbiyaning oʻrnini alohida taʼkidlaydi. U Farobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiylar kabi donishmandlar fikrini davom ettirib, komil inson adolat, donolik, jasorat kabi yuksak fazilatlarga ega boʻlishi lozimligini koʻrsatadi.

Davoniyga koʻra, inson komillikka jamiyatdagi boshqalar bilan muloqot orqali yetadi. Agar inson adolat hukmron boʻlgan ijtimoiy muhitda shakllansa, u baxtli boʻlishi mumkin, deydi. Fozil shahar boshqaruvchisida oʻnta yuksak sifat mujassam boʻlishi lozimligini taʼkidlaydi. Ular:

1. Hukmdor xalqni qadrlashi;
2. Davlat ishlarini adolat bilan yuritishi;
3. Nafsu hirsga berilmasligi;
4. Hukmdorlikda asabiylik va gʻazabga yoʻl qoʻymasligi, aksincha rahm-shafqatli boʻlishi;
5. Xalq ehtiyojlarini xudo irodasi asosida qondirishga intilishi;

6. Xalq ehtiyojiga oid ishlarga e'tibor qaratishi;
7. Xalqqa nisbatan odil bo'lishi;
8. Har bir ishni maslahat bilan hal etishi;
9. Kishilarga ularning layoqatiga yarasha lavozim berishi;
10. Adolatli farmon chiqarishi va qonunni buzishga yo'l qo'ymasligi.

Bundan tashqari, u hukmdorning diniy burchlarini ham ado etishi zarurligini uqtiradi. Davoniyning nazarida, adolatli shoh — axloqiy kamolga yetgan shaxs timsolidir.

Asarda ijtimoiy-siyosiy muammolar doimo yoritiladi. Jamiyatning vujudga kelishi, davlat boshqaruvi, adolatli va zolim hukmdorlar, ilmfan taraqqiyoti, aqliy va axloqiy tarbiya, ijobiy xislatlarni rivojlantirish masalalari shular jumlasidandir.

Davoniy bolaning o'ta ta'sirchan va taqlidkor bo'lishini qayd etarkan, unda yaxshi yoki yomon xislatlarning tezda shakllanishi mumkinligini urg'ulaydi. Bolaning qalbini naqsh solinadigan taxtaga o'xshatadi. Unga ko'ra, bolaning odobli bo'lishi keyingi tarbiyasiga chambarchas bog'liq. Chunki bola har kuni guvoh bo'ladigan voqealar va odamlar uning fe'l-atvoriga ta'sir qiladi.

Bolangacha yurish-turish, xushmuomalalik, kattalarni hurmat qilish, rostgo'ylik, shirinsuxanlik, kamtarlik kabi xislatlar hayotda o'zlashtiriladi. Bu xislatlarni bolaga doimiy tarzda singdirib borish muhim. Ota-ona bu borada teng mas'uldir. Ota farzandining ilmlarni

o'rganishi, kasb-hunar egallashi uchun moddiy sharoit yaratadi. Ona esa tarbiyaning asosiy yukini ko'taradi — u mehr berib, bolani ehtiyotlaydi.

Bola maktabga borganidan so'ng esa, muallim ham tarbiyadan javobgar hisoblanadi. Davoniy muallimni «Ma'naviy ota» deb ataydi. Ota jismoniy hayotga olib kelsa, muallim ma'naviy yetuklik sari yo'naltiradi. U muallim tarbiyasi ota-onanikidan yuqoriroq deb hisoblaydi. Sababi, muallim ta'lim metodlariga ega, ilm berish jarayonida bolani ma'naviy yuksaklikka olib chiqadi.

Jaloliddin Davoniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. U yoshligidan boshlab bolalarga bilim berish zarurligini ta'kidlaydi. Davoniy inson aqli orqali jamiyat voqealarini anglashini, aql — ilohiy in'om, haqiqat mezonini ekanini ko'rsatadi. Inson aql orqali o'z harakatlarini boshqaradi.

Davoniyga ko'ra, aql davlat boshqaruvi, ilm o'rganish, axloqiy qadriyatlar, hatto she'riyatda ham faol ishtirok etadi. Shu bois, u bolalarga ta'lim berishda aqliy tarbiyaga alohida urg'u beradi. Ilm insonni yomon odatlardan saqlaydi. Davoniy fikricha, har qanday yoshda ilm olish foydalidir. Aflotunning: «Qachon ilmi foydali bo'ladi?» degan savoliga: «Nodonlikning illat ekanligi mavjud bo'lgan davrgacha ilm olish foydalidir», degan javobi bilan o'z fikrini tasdiqlaydi.

Jaloliddin Davoniy o'z e'tiroflarida insoniy fazilatlar ichida donolikka alohida urg'u beradi. Iste'dodli ijodkor o'z qaydlarida o'z aqliy salohiyatni rivojlantirish uchun quyidagilarga amal qilish lozimligini e'tirof etadi:

1. Zukkolik – zehning o‘tkirligi. Bu insonning har qanday masalani tezda anglab, uni ixtiyoriga muvofiq hal qila olish salohiyati bo‘lib, bunday fazilatga ega bo‘lish uchun odamda tajriba va faollik bo‘lishi lozim;
2. Fahmlilik. Bu shaxsning keraksiz va ikkinchi darajadagi masalalarga to‘xtalmay, e‘tiborini muhim va zarur mavzularga yo‘naltira bilish mahoratini bildiradi. Ya’ni murakkab va chalkash masalalar orasidan eng muhimini ajrata olish ko‘nikmasi shakllantirilishi zarur;
3. Zehravshanlik (ya’ni zehning tiniqligi) — har qanday muammoni hech qanday mushkulliksiz, eng qulay yo‘l bilan hal qilish salohiyati;
4. Bilimni tez o‘zlashtirish layoqati. Inson ma’lum masalaga butun e‘tiborini qaratib, hech qanday ichki qarama-qarshiliklarsiz uni puxta egallashi;
5. Qo‘yilgan masalani tez anglab olish qobiliyati;
6. Yodlash salohiyati. Ya’ni ilgari ko‘rgan, eshitgan yoki tasavvur qilgan narsalarni ongda saqlab qolish fazilati;
7. Xotira. Ilgari yod olingan yoki his etilgan narsalarni kerakli pallada esga tushira olish qobiliyatini tez safarbar eta bilish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Shu bois, Davoniy fikricha, inson yoshlikdan boshlab o‘z salohiyatini rivojlantirib borishi zarur. Agar u haqiqiy saodatga erishmoqchi bo‘lsa, yuqorida sanab o‘tilgan aqliy salohiyatni kamolga yetkazuvchi sifatlarni

egallashga intilishi lozim. Shuning uchun olim insonning aqliy fazilatlarini taraqqiyotiga alohida urgʻu beradi.

Davoniy insonlar orasidagi doʻstlik tuygʻusini yuksak qadrlab, bolalarni aynan doʻstona muhitda tarbiyalashga katta eʼtibor qaratadi. Bola dunyoqarashi shakllanishida doʻstlikning roli muhim ekanligini taʼkidlaydi. Uning nazarida, doʻstsiz inson jamiyatda toʻlaqonli hayot kechira olmaydi. Doʻstlikning qadr-qimmati ayniqsa, inson ogʻir holatga tushgan vaqtda yaqqol namoyon boʻladi. Biroq, u haqiqiy doʻst bilan yolgʻonchi doʻstni farqlashni bilish lozimligini uqtiradi. Dushman esa insonning kamchiliklariga eʼtibor qaratmaydi, balki uni omma oldida kamsitishga harakat qiladi, deydi.

Davoniy odamlar orasidagi adovatni ham tanqid ostiga oladi. U oʻzaro kelishmovchiliklar yuzaga kelganida hurmat-izzat yoʻqolishi, gumon va shubhalar kuchayishi, bu esa janjallarga sabab boʻlishini qayd etadi.

U sevgi va muhabbat haqida ham fikr bildiradi va uni jamiyatdagi muammolar bilan uzviy bogʻlaydi. Davoniy oʻz zamonasining ilgʻor mutafakkiri sifatida ilohiy muhabbatni eʼtirof etadi, shu bilan birga insonning bu dunyoda faol yashashi, tabiatni, hayotni sevishi va uni qadrlashi zarurligini ham ilgari suradi.

Uning qarashlariga koʻra, muhabbat ikki xildadir: birinchisi — tugʻma, ikkinchisi — inson irodasi va istagiga asoslangan. U sevgi va muhabbatni besh turga ajratadi:

1. Ilohiy muhabbat;
2. Ota-onaga boʻlgan mehr;

3. Ustozning shogirdga bo‘lgan mehr-muhabbati;
4. Hukmdorning fuqarolarga bo‘lgan g‘amxo‘rligi;
5. Ilm va ma‘rifatga bo‘lgan muhabbat.

Davoniyning fikricha, inson o‘zaro munosabatlarsiz va muhabbatsiz yetuklikka erisha olmaydi. Adolat, mehr-muhabbat, do‘stlik – bularning barchasi insonlar o‘rtasidagi aloqalarda shakllanadi, deydi u. Shuningdek, u insonni shahvoniy nafsga berilib, fosiq ishqni chin muhabbat deb anglashdan ogohlantiradi. Havasni muhabbat deb tushunmaslik kerakligini qat’iy turib himoya qiladi.

Davoniy ayniqsa shahvoniy istaklarga berilmaslikni, xususan, hukmdorlar o‘zlarini bunday istaklardan tiyib, bo‘sh vaqtlarini davlat uchun zarur bo‘lgan masalalarga bag‘ishlashlari kerakligini ta’kidlaydi.


U odamlarning salbiy ruhiy holatlarini to‘g‘rilash mumkin, deb hisoblaydi va bunga yaxshi nasihat, to‘g‘ri so‘z, zarurat tug‘ilganda jazo yoki mehnat orqali erishish mumkinligini aytadi.

Davoniy quyidagi insoniy xislatlarni ijobiy baholaydi: mehnatkashlik, rostgo‘ylik, insonparvarlik, ezgulik, odob, adolat, donolik va boshqalar. U bu sifatlarning barchasini insonning aqliy faoliyati bilan bog‘laydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Temuriylar davrida ilm-fanning ravnaq topishida sabab bo‘lgan omillarni sanab o‘ting.
2. Temuriylar davrida yosh avlod tarbiyasida nimalar muhim sanalgan? Mutafakkirlarning qarashlari asosida tushuntiring.
3. “Tarbiya “ masalasi buyuklar nazdida. (chizmani to‘ldiring)


Navoiy:



Bobur:



Davoniy:



Avloniy:



7-MAVZU: XVI asr va XX asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti

- REJA:** 1.XVI asr boshlarida madaniy hayot.
2.XX asr boshlarida ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.
3.Maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni Ta'lim to'g'risida. T., 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T.,1997.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. T. "O'zbekiston", 1997. 29 avgust. -7 bet.
4. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. T. 1997. 29 avgust. 9-10 bet.
5. Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., "Sharq", 1997.
7. Barkamol avlod orzusi. T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000.
8. "Avesto" va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. T., "Fan", 2001.
9. Amir Temur o'g'itlari. T., "Navro'z", 1992.
10. Abdullaev Yu. Jahon oliy maktabi: qiyosiy tahlil. T., G'. G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 2001.
11. Abdullaeva Sh. va boshq. Pedagogika. T., «Fan», 2004.
12. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://ziyonet.uz/>
2. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch so'z va iboralar: maktab, maorif, ma'rifat, ma'rifiy fikr, mafkura.

XVI asr boshlari madaniy hayoti.

Yurtimiz tarixida o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti doimo izchil va barqaror holatda kechmagan, aksincha, yutuqlar va inqirozlar bilan almashib turgan. Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan saltanat o'z davrining eng qudratli va salohiyatli davlatlaridan biri bo'lgan. U o'zidan keyingi avlodlarga nafaqat kuchli imperiya, balki davlat idoralarini boshqarish va hokimiyat yuritish tamoyillarini mujassam etgan mashhur tuzuklarni ham meros qilib qoldirgan. "Farzandlarim va naslim vakillari – deb yozadi Sohibqiron o'z nizomlarida – ushbu tartib-qoidalariga amal qilib ish yuritsin... Ushbu tartiblarni o'z saltanatlarini boshqarishda yo'l-yo'riq deb bilsinlarki, mendan qolgan davlat va hukumat izdan chiqmasin." Afsuski, ushbu ko'rsatmalar va vasiyatlarga amal qilinmadi. Taxt uchun bo'lgan ichki adovat va to'qnashuvlar, qurolli to'qnashuvlar saltanatni zaiflashtirib, mamlakatni parokandalik va bo'linishga olib bordi.

Buxoro xonligi. XVI asr boshlari Temuriylar imperiyasi zaiflashgan bir davrda, Dashti Qipchoq hududidan o'zbek ko'chmanchilarining boshlig'i Muhammad Shayboniyxon yurishi boshlanadi. Shayboniy 1500–1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Hisorni, 1504–1505 yillarda Urganchni, 1506–1507 yillarda

esa Hirot, Balx, Marv, Astrobod va Nishopur shaharlarini egallaydi. Shuningdek, Toshkent, Farg'ona, Sirdaryo va Xorazm yerlarini, Afg'onistonning Qandahor va Zamindavor tumanlarini ham o'z ixtiyoriga oladi. Shayboniyxon Xurosonda turgan davrida qozoq sultonlari Movarounnahrda bir necha marta hujum uyushtirib, talon-taroj qiladilar. 1506–1509 yillarda Shayboniyxon qaytib kelib, ularga qarshi zarba beradi va ularni Dashti Qipchoqqacha quvib boradi. Natijada Sig'noq, Yassi, Savron kabi shaharlari yana qaytarib olinadi. Shu tariqa Movarounnahr va Xuroson birlashtirilib, Shayboniylar sulolasi hukmronligi o'rnatiladi. Shayboniyxon "Imom uz-zamon, xalifatul-Rahmon" unvonini olib, siyosiy va diniy hokimiyatni o'z qo'lga jamlaydi.

Janubiy Eron sari yurish qilgan Shayboniyxon Mashhad va Tus shaharlarini egallaydi. Biroq u yerda Eron shohi Ismoil Safaviy bilan to'qnash keladi. 1510 yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon mag'lubiyatga uchraydi va jangda halok bo'ladi. Taxtga uning amakisi, Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimdan tug'ilgan Ko'chkunchixon (1510–1530) chiqadi. Biroq Shayboniyzoda sultonlar viloyatlarda alohida-alohida hukm yuritish bilan mashg'ul bo'ladilar, ular birlashish o'rniga o'zaro raqobatga kiradilar. Bu esa Ismoilshohga Xuroson, Xorazm va Afg'onistonni bosib olish imkonini yaratadi. Samarqand poytaxtligida esa Movarounnahrda Shayboniylar hukmronligi davom etadi.

Movarounnahrda bir asr davomida Shayboniylar zamonida tinchlik barpo bo'lmaydi. Ichki raqobatlar, o'zaro to'qnashuvlar hukm suradi. 1512 yildan boshlab Buxoroda hokim bo'lgan Ubaydullaxon

1533 yilda oliy hukmdor sifatida tan olinadi. U Ko'chkhunchixon avlodining nomi bilan saltanatni Buxorodan boshqaradi va Buxoroni asosiy siyosiy markazga aylantiradi. Uning davrida Buxoro siyosiy va iqtisodiy jihatdan kuchayadi. Biroq viloyatlar o'rtasidagi bo'linmalar tugatilmaydi; har bir yirik shahar mustaqil hudud sifatida mavjud bo'lib qoladi.

Bu bo'linishni tugatish uchun Abdullaxon siyosiy maydonga chiqadi. Uni ta'sirli Juybor shayxlari qo'llab-quvvatlaydilar. Abdullaxon (1557–1583) amalda davlat rahbari bo'ladi. 1557 yildan Buxoroni davlat markazi deb e'lon qilib, butun mamlakatni yagona boshqaruv ostiga birlashtirish yo'lida harakat qiladi. U 1573 yilda Farg'ona, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor, 1578 yilda Samarqand, 1582 yilda Toshkent, Shahruxiya, Ohangaron, Sayram, 1583 yilda Balx, 1584 yilda Badaxshon, 1588 yilda Hirot, 1595 yilda Xorazmni bosib olib, markazlashgan Buxoro xonligini shakllantiradi. Biroq ichki nizolarni barham eta olmaydi. Uning dushmanlari o'g'li Abdulmo'min orqali unga tazyiq o'tkazishga harakat qiladilar. Abdullaxon vafot etgach, Abdulmo'min 6 oy taxtda qoladi, lekin amir Abdulvosit tomonidan o'ldiriladi. So'nggi Shayboniy – Pirmuhammad ham 1601 yilda Boqi Muhammad bilan bo'lgan kurashda halok bo'ladi va Shayboniylar hukmronligi yakunlanadi.

1601 yildan hokimiyat Ashtarxoniylar (yoki Joniylar) sulolasiga o'tadi. 150 yil davomida Buxoroda ularning hukmronligi davom etsa-da, barqarorlik saqlanmaydi. Viloyat amaldorlari va markaziy hokimiyat vakillari o'rtasida doimiy kelishmovchilik bo'ladi. Bu holat davlatning zaiflashuviga olib keladi. O'n nafar xondan ikki

nafari taxtdan ag‘dariladi, to‘rttasi esa o‘ldiriladi.

Buxoroning zaifligidan Eron shohi Nodirshoh foydalandi. XVII asrning 30–40-yillarida Buxoroga yurish qilib, mang‘it urug‘idan bo‘lgan Muhammad Hakimbiy bilan kelishuv tuzadi va uni oliy rahbar sifatida tan oladi. Rasman Abulfayzxon hukmron bo‘lib turgan bo‘lsa-da, amalda barcha hokimiyat Hakimbiy qo‘liga o‘tadi. 1743 yilda uning o‘g‘li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747 yilda vafot etadi, bundan so‘ng Muhammad Rahim butun hokimiyatni o‘z qo‘liga olishni rejalashtiradi.

Muhamm.ad Rahim 1747 yilda Abulfayzxon va uning o‘g‘illari Abdulmo‘min hamda Ubaydullo sultonlarni yo‘q qiladi va butun hokimiyatni egallaydi. 1756 yilda taxtga chiqib, o‘zini Buxoro amiri deb e‘lon qiladi. Shu tariqa Mang‘itlar sulolasiga asos solinadi. Shundan keyin Buxoro xonligi rasmiy ravishda “Buxoro amirligi” deb yuritila boshlaydi. Bu amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha Mang‘itlar naslida qoladi

XX asr boshlari ma’rifiy qarashlar taraqqiyoti.

Muhammad Rahim hukmronligi davrida beklik va viloyatlardagi boshqa elatlardan chiqqan boshqaruvchilar uning hokimiyatini tan olmadi. Amir mang‘it zodagonlariga suyanib, davlat boshqaruvini markazlashtirishga harakat qildi. Turli urug‘lar rahbarlarini Buxoroga to‘plab, ulardan markaziy hukumatga itoat qilishlarini talab etdi, aks holda og‘ir jazo kutayotganini ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko‘plab amaldorlar, boshboshdoq boshqaruvchilar lavozimdan chetlashtirilib, mulk-moliyalari tortib olinib, boshqa hududlarga ko‘chirildi. Ularning o‘rniga amir o‘z urug‘idan bo‘lgan shaxslarni tayinladi. Muhammad Rahim

Buxoro minorasi yonidagi o‘z qarorgohini maxsus qurilgan Ark saroyiga ko‘chirdi. Mustaqil harakat qilgan beklarni Arkka chaqirib, og‘ir jazoladi. Tarqoqlikni tugatish niyatida bir qancha bekliklar – Samarqand, Jizzax, O‘ratepa, Xisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli janglar olib bordi, ko‘plab viloyatlar xarobaga aylandi. Muhammad Rahim Nurota hududida istiqomat qilgan burgut qabilasining isyonini bostirib, ularning barcha qal’alarini buzdirib, aholining o‘zini Buxoro tumaniga ko‘chirib yubordi. Miyonqal’a qipchoqlariga ham yurish qilib, ularning istehkomlarini vayron qildi, boshliqlarini o‘ldirib, qolganini ko‘chirdi. Muhammad Rahim vafotidan keyin ichki nizolar kuchayib bordi. Viloyat noiblari markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko‘tarib chiqishdi. Kenagas, yuz, baxrin, burgut, saroy elatlarining qo‘zg‘olonlari, hokimiyatga kelgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun boshlagan harbiy yurishlari minglab insonlarning o‘limiga sabab bo‘ldi. Doniyolbiy har bir yurish xarajatlarini qoplash uchun qo‘shimcha soliqlar joriy etib, aholining noroziligiga sabab bo‘ldi. Buxoro hunarmand va savdogarlari 1784 yilda qo‘zg‘olon ko‘tardi. Isyonni bostirish chog‘ida minglab kishilar halok bo‘ldi. “Begunoh amir” nomi bilan tanilgan Shohmurod (1785–1800 yillar) ichki parokandalikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarini yangilash choralarini amalga oshirdi. U ikki yirik davlat arbobi – Davlat qushbegi va Nizomiddin qozikalonni saroyda, harbiy va boshqa mansabdorlar huzurida o‘z qo‘li bilan o‘ldirdi. Soliqlar tizimini tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxon yorlig‘i berildi. Unga ko‘ra, aholi savdodan olinadigan boj, hunarmandlardan yig‘iladigan mablag‘lar, majburiy mehnat va boshqa soliqlardan ozod

qilindi. Xiroj, nikoh badali, tarozi haqi va boshqa yig'imlar miqdori qisqartirildi. Shohmurod boshqaruvi davrida Buxoro amirligi nisbatan barqarorlashgan bo'lsa-da, ichki to'qnashuvlar davom etdi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari hujum qilib, ekinlar, bog'lar vayron qilinar, qishloqlar talanib, aholisi va chorvalari olib ketilardi.

Xiva xonligi. Xorazm XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Temuriylardan Sulton Husayn Boyqaro tasarrufidagi davlatning bir qismi edi. 1505 yilda Muhammad Shayboniyxon qo'shinlari Xorazmni egallab, qo'ng'iroq urug'idan Kepakbiyni Xorazmga hokim etib tayinlaydi. Muhammad Shayboniyxon Eron shohi Ismoil bilan jangda halok bo'lgach, Xorazm Ismoilshoh tomonidan bosib olinadi. U Xorazmni o'z davlatiga qo'shib, Vazir, Urganch va Xiva shaharlariga uch nafar dorug'a (boshqaruvchi) tayinlaydi. Ismoilshohning Xorazmdagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Xalq orasida unga qarshi harakatlar boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Xisamiddin boshchilik qildi. Ular Shayboniylar avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbarsxonga murojaat qilib, uni xonlikka da'vat qildilar. Elbarsxon 1511 yilda qo'shin bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva va Xazoraspni Ismoilshoh qo'shinlaridan ozod etdi va Xorazmda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Shu tariqa 1511 yilda mustaqil Xiva xonligi barpo etilib, Elbarsxon uning ilk hukmdori bo'ldi. Xivada Shayboniylar sulolasi 1770 yilgacha hukmronlik qildi. Dastlabki davrda xonlik poytaxti Urganch edi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Amudaryoning yo'nalishi o'zgargani sababli Urganchning ahamiyati kamaydi, aholisi boshqa joyga ko'chib, yangi Urganch shahriga asos solishdi. Shu bilan birga, Xiva shahrining mavqei ortdi. 1556 yilda

Avaneshxon Xivani davlat markazi deb e'lon qiladi, biroq uning hokimiyati faqat Xiva atrofida amal qilardi. Arab Muhammadxon (1602–1623) davrida esa Xivaning mavqei ortib, u rasmiy poytaxtga aylantirildi. Xonlik tarkibiga Amudaryo quyi havzasi, Mang'ishloq, Daxiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi turkman ko'chmanchi hududlari kirardi. Biroq xonlikda doimiy tinchlik bo'lmadi. O'zbek va turkman qabilalari, hamda shahzodalar o'rtasida doimiy ichki urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari Murg'ob vodiysi va Marv ustidan hukmronlik uchun doim to'qnashib, bu hududlar qo'ldan qo'lga o'tardi. Xonlikka shimoliy yo'nalishdan qalmoqlar, qozoqlar va Ural kazaklari tez-tez bosqinchilik yurishlari uyushtirib, katta zarar keltirardi. XVII asr o'rtalarida Eron shohi Nodirshoh va uning o'g'li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o'z boshqaruvini o'rnatdi, turkman elatlarini Xorazmdan Xurosonga ko'chirib yubordi. Biroq bu davrda ham tinchlik hukm surmadi. Eron hukmdorlariga qarshi isyonlar avj oldi, odamlar boshqa tomonga ketishga majbur bo'ldi. Shu sharoitda, qo'ng'iro't urug'ining boshlig'i Muhammad Amin inoq 1770 yilda hokimiyatni egallab, Xiva xonligida yangi – Qo'ng'iro'tlar sulolasiga asos soldi (bu sulola 1920 yilgacha hukmronlik qildi). Muhammad Amin inoq turkmanlarning qo'zg'olonini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini qaytardi va xonlikdagi viloyat hokimlarini markaziy boshqaruvga bo'ysundirdi.

Qo'qon xonligi. Buxoro xonligidagi ichki ziddiyatlar, markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi oqibatida, u XVII asrning boshlarida ikki qismga ajralib ketdi. Ashtarxoniylar hukmronligining sustlashuvi natijasida Farg'ona vodiysiga shimoldan vujudga kelgan

Jungarlar davlati tez-tez hujum uyushtirib, talon-taroj qiladigan bo'lib qoldi. Bunday sharoit Farg'onadagi ichki kuchlarning birlashishiga, mustaqil davlat barpo etishga intilishiga turtki berdi. Farg'ona vodiysining hududiy butunligi va iqtisodiy salohiyati, uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishiga qulay omil bo'lib xizmat qildi. Chust yaqinidagi Chodak qishlog'ida istiqomat qiluvchi xo'jalar jamoasi (diniy yetakchilar)ning nufuzi XVIII asrning boshlaridayoq Farg'onada ancha kuchayib, 1709- yilda o'z yer-mulklarini mustaqil deb e'lon qiladilar va vodiyni boshqarishga harakat qiladilar. Biroq ularning hokimiyati boshqa urug'lar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh harbiy zodagonlar Rishtonda qo'zg'olon boshlab, Farg'ona hokimi Xo'ja Ashirqulni o'ldiradilar.

1710- yilda Qo'qon atrofida istiqomat qilayotgan o'zbek urug'laridan biri – minglar o'z rahnamosi Shohruxbiyga hokimiyatni topshiradilar. Shu tariqa, Qo'qon xonligi vujudga keldi, o'zaro ichki nizo botqog'iga botgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o'ziga tegishli hududning ajralib chiqib, mustaqil davlat tuzishiga qarshilik ko'rsata olmadi. Qo'qon xonligida ming urug'ining sulolalari 1876- yilgacha hukmronlik qildilar. Qo'qon shahri chekkasida joylashgan Tepaqo'rg'on Qo'qon xoni Shohruxbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo'rg'onda mustahkam qal'a, bozor va aholi istiqomat qiladigan mahallalar barpo etildi.

Qo'qon xonlari Farg'ona vodiysini, Xo'jand, O'ratepani birlashtirganidan so'ng, Qo'qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o'rtalarida Buxoro davlati tomonidan e'tirof etildi. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonlari Toshkentni bo'ysundirishga kirishdilar. 1784- yilda

Shayxontohur dahasining sobiq hokimining o'g'li Yunusxo'ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent bekligi o'ziga xos boshqaruv tuzilmasiga ega edi. Yunusxo'janing to'rt maslahatchisi mavjud bo'lgan. Toshkent shahrini nazorat qilish va soliq yig'ish Boshxo'janing vakolatida bo'lib, savdo-sotiqni qozi hamda devonbegi nazorat qilgan. Shariat qoidalari, narx-navolar, o'lchov birliklari ustidan Rais lavozimida turgan amaldor mas'ul bo'lgan. Yunusxo'ja XVIII asr oxirida qozoq sultonlari hujumlarini daf qilib, Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama, Qorabuloq shaharlarini Toshkentga bo'ysundirgan edi. Toshkent bekligining mavqei yuksalishi Qo'qon xonlariga manzur bo'lmadi. 1799- yilda Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy Toshkentga yurish qildi, biroq Chirchiq daryosi bo'yidagi to'qnashuvda yengildi.

1805- yilda Qo'qon hukmdori Olimbek xon unvonini oladi va shu vaqtgacha Farg'onada shakllangan davlat rasman Qo'qon xonligi deb nomlana boshladi. Yunusxo'janing vafotidan keyin Qo'qon xoni Olimxon lashkari yurish qilib, 1809- yilda Toshkentni va unga aloqador Chimkent, Sayram hamda boshqa hududlarni Qo'qon xonligiga qo'shib oladi. Qo'qon xonligi hududiy jihatdan katta davlatga aylandi. Shu tariqa, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga ajralib ketdi. Uchtalik davlat — Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari shakllandi.

An'anaviy ta'lim tizimining eng yuqori bosqichi bo'lgan madrasalar haqidagi dastlabki ma'lumot Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida berilgan bo'lib, Buxoro shahridagi Forjak nomli madrasaning

937- yildagi yong'in vaqtida yonib ketgani qayd etilgan. "Madrasa" so'zining lug'aviy ma'nosi "ta'lim beriladigan joy", "ilm maskani", "o'quv o'rni" degan mazmunlarni bildiradi. O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm o'chog'i sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo va musulmon Sharqida ham mashhur bo'lgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlaganlardan mamlakat boshqaruvi, huquq-tartibot va ta'lim muassasalari uchun mutaxassislar, ulamolar yetishib chiqqan. Eng mashhur madrasalar amirlik markazi Buxoro shahrida, shuningdek Qarshi, G'ijduvon, Shahrisabz, Sherobod shaharlarida, Sharqiy Buxoro bekliklari markazlarida faoliyat olib borgan. Umuman olganda, Buxoro amirligida yuzlab madrasalar mavjud bo'lgan. Madrasalar kichik, o'rta va katta (oliy) bo'lgan. Sadriddin Ayniy ta'kidlaganidek, Buxoro madrasalari islom olamida katta obro'ga ega bo'lib, ularda tahsil olgan ulamolarning diniy masalalardagi fikrlari Misr va Hijozda o'qiganlarga qaraganda mu'tabarroq deb qaralgan. Har bir madrasa uning bunyodkori nomi bilan atalgan. Kim bu inshootni qurdirgan bo'lsa, o'sha kishining ismi bilan atalgan, qishloqlarda esa madrasa joylashgan qishloq nomi bilan yuritilgan. Madrasalar qurilishiga hukmdorlar katta ahamiyat berishgan bo'lsa-da, ular xususiy ehsonlar evaziga faoliyat yuritgan. Madrasalar faqat xolis xususiy mulk asosida bunyod etilishi lozim bo'lib, xonlar va amirlar, yuqori martabali mansabdorlar bunday binolarni davlat mablag'idan barpo etishlari shariatga zid deb hisoblangan. Buxoro madrasalari asosan pishiq g'ishtdan, ikki yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi hovli, baland va kuchli devorlar, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo'lgan, ayrimlarining peshtoq, gumbaz va devorlari rang-barang

koshinlar bilan bezatilgan. Madrasalarda ichki va tashqi maydon bo'lgan. An'anaviy tarzda birinchi qavatda darsxona, kutubxona, masjid, tahoratxona joylashgan, ikkinchi qavatda esa talabalar yashaydigan hujralar bo'lgan. Madrasalar qurilishi Buxoro amirligida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Asrlar davomida bu ish bilan shug'ullanilganligi sababli, bu sohada katta tajriba to'plangan edi. Shuning uchun ham Buxoro madrasalari nafaqat o'quv markazi, balki o'ziga xos me'moriy obida hisoblangan. Buxorodagi Ulug'bek, Mir Arab, Nodir Devonbegi, Ko'kaldosh, Abdullaxon va Abdulazizxon madrasalari bebaho va noyob me'moriy yodgorlik sifatida hozirgi kunda ham mashhurdir.

Feruz saroyidagi ushbu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Farobiyning «Nisob us sibiyan» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Sher Muhammad Munisning «Munis ulushshoh» devoni, Yoqubxo'ja ibn Ibrohimxo'janing «Devoni Xo'is» to'plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o'nlab asarlar nashr qilindi.

O'rta Osiyoning barcha shahar, qishloq va ovullarida maktabxonalar mavjud edi. Maktablar ko'pincha bitta sinf xonasidan iborat bo'lganligi sababli ularni maktabxona deb atashgan. Musulmon an'analariga ko'ra, o'g'il va qiz bolalar alohida-alohida maktabxonalarda ta'lim olganlar. O'g'il bolalar maktabxonalari aksariyatida masjid, madrasa, qorixona yonida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida joylashgan, qizlar maktabxonalari esa otin ayollar uylarida yoki badavlat oilalarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan. Maktablarda o'g'il bolalarni o'qitgan kishilar "domla, ustod, ustoz,

muallim” deb atalgan. Qizlarni o’qitgan ayollar esa “otinoyi” yoki “otinbibi” (Toshkentda), “bibixalifa” yoki “bibiotin” (Buxoroda), “eltibibi” (Xorazmda) deb nomlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi Qoraqalpog’iston hududidagi maktabxonalarda ham o’sha davrda o’g’il va qiz bolalar bir muallim tomonidan birgalikda o’qitilgan. 1910 yilda Buxoroda 350 ga yaqin an’anaviy (boshlang’ich) maktab faoliyat yuritgan. Boshlang’ich maktablarda o’quvchilarning soni 10 dan 50-60 nafargacha bo’lgan. O’g’il bolalar maktabxonasida o’rtacha 30-40 nafar bola o’qigan bo’lsa, qishloq maktablarida o’quvchilar soni 10 dan oshmagan. Qizlar maktabxonasidagi o’quvchilar soni o’g’il bolalarnikiga nisbatan 25-30 foiz atrofida bo’lgan. Qizlar o’qish uchun odatda 7 yoshdan boshlanib, 13 yoshgacha, ba’zida esa 10-11 yoshgacha davom etgan. Ko’pincha qizlarga uyda ta’lim berish keng tarqalgan edi. Umuman aytganda, ayollar uchun maktabda o’qish qiyin kechgan, faqat boy xonadonlarning qizlari maktabga qatnagan va savod olishgan, qishloqlarda o’qigan qizlar juda kam bo’lgan. Amirlikdagi ta’lim tizimida tarbiya masalalari muhim o’rin tutgan, diniy e’tiqodni mustahkamlash, imyon va axloqiy poklikni oshirishga katta e’tibor qaratilgan. Boshlang’ich maktablarda o’qish, yozish va hisob-kitob qoidalari bilan bir qatorda o’quvchilarning ma’naviy qiyofasini islom ta’limoti doirasida shakllantirish vazifasi ham bajarilgan. Qizlar maktabida o’qitish o’g’il bolalar o’qiydigan masjid yonidagi maktabxonalardagi o’qitishdan biroz farq qilgan. O’zining savodini qizlar maktabida olgan Sadriddin Ayniy bu maktabni quyidagicha ta’riflaydi: “Otinbibi butun vaqtini dars berishga bag’ishlar, har bir bolani navbat bilan o’z oldiga chaqirib dars beradi, bu bilan kunlik dars

o'tkazilar edi. Otinbibi dars vaqti ertalab nonushtadan to soat o'n ikkigacha davom etar, u bolalarni masjiddagi domladay ertadan kechgacha bir xonada ushlab, zeriktirmas edi. Shogirdlari erta nonushtani uyda qabul qilib maktabga kelar, saboq olib o'qish bilan shug'ullanardi."

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, qizlar maktabida o'qish ertalab nonushtadan (soat 8.00) soat 12 gacha, ya'ni tushlikgacha davom etgan. O'g'il bolalar maktabida esa bomdod namozidan keyin, ya'ni ertalabdan soat 17 gacha dars bo'lgan. Ayrim manbalarda tushlik vaqtida o'g'il bolalar uylaridan nonushta qilib kelishgani aytilsa, boshqalarida ikki marta tanaffus bo'lib, birinchisi "nonxo'rak" soat 10-11 atrofida o'tgan va bolalar uydan olib kelgan nonlarni yegan, ikkinchisi soat 13-15 atrofida o'tgan "oshxo'rak" bo'lib, o'quvchilarga issiq taom berilgan, deb qayd etiladi.

O'g'il bolalar maktabidan farqli ravishda, qizlar maktablarida mumtoz shoirlar ijodi bilan bir qatorda qizlar tarbiyasining o'ziga xos jihatlari ham o'rgatilgan, masalan, uy-ro'zg'or yuritish, pazandalik, tozalikka oid sharqona odob-axloq. Bu borada Faxriddin ibn Rizouddinning "Tarbiyali xotun", Olimat ul-banotning "Muosharat odobi" kabi kitoblarining o'rni katta bo'lgan. "Muosharat odobi" 1898 va 1899 yillarda Sankt-Peterburgda ikki marta chop etilgan. Ushbu risolada odob-axloq, ayollarning oiladagi o'rni va munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila boshqaruvi, nikoh va muhabbat haqida ibratli maslahatlar berilgan. Bundan tashqari, qizlar maktabida Aliy Nazimoning besh kitobdan iborat "Talim-i banot" ("Qizlar tarbiyasi") asari sharqona axloqiy darslik sifatida o'qitilgan. Qizlar maktablaridagi o'quvchilar

soni o'g'il bolalarnikiga nisbatan 25-30 foiz bo'lgan. Ahmad Donishning eslatishicha, qizlar maktabida ko'plab hollarda "Haftiyak"ni o'qib, Qur'oni karimdan 2-3 surani o'rganib, o'qish kursini tugatgan. Ammo Sadriddin Ayniy fikricha, qizlar maktabi o'g'il bolalar maktabidan yaxshiroq o'qitilgan. Qizlar maktabi soni ancha kam bo'lib, har bir otinoyida o'qigan qizlar soni domlada o'qigan o'g'il bolalarning yarmidan kam edi. Ko'pchilik qizlar hatto maktabga bormagan.

XIX asrda O'zbekistonda va umuman Markaziy Osiyoda ta'lim-tarbiya sohasiga bag'ishlangan maxsus mutaxassislar yoki olimlar mavjud emas edi. Biroq, o'sha davrning ilg'or ziyolilari o'z ma'rifiy qarashlari asosida ta'lim va tarbiyani rivojlantirishga harakat qilishgan. 1796-1797 yillarda onasi otinlik qilgan xususiy maktabda avval xalfa bo'lib, keyinchalik mustaqil otin bo'lgan Jahon Otin o'z maktabida ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos metodlarni qo'llashga intilgan. Qizlarga boshlang'ich diniy ta'lim beruvchi otinbibi maktablari ko'proq xususiy xususiyatda bo'lib, odatda otinlarning shaxsiy uylarida faoliyat yuritgan. Bunday maktablarda aniq o'quv rejasi yoki dasturi bo'lmas, o'quvchilar esa kitoblarni o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga ajratilgan.

Domla yoki otinoyi darsni berilgan topshiriqni o'qitib ko'rsatish va yangi vazifa berishdan boshlardi. Katta yoshli o'quvchilardan biri otinoyiga yordamchi sifatida xizmat qilgan va unga «xalfa» deyilgan. Maktablarda asosiy o'quv fani sifatida islom qoidalari majmuasi o'rgatilgan. Otin oyiga ish haqi sifatida ota-onalar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar berilar, ba'zan esa pul to'lanardi. Shuningdek, ota-onalardan «bo'yra puli», «o'tin puli» ham

olinardi. Otinoyi maktablarida o'qitish sifati to'g'ridan-to'g'ri otinoyining bilim darajasiga bog'liq bo'lgan.

Qizlar maktablarida harflarni alifbo tartibida, ya'ni hijjalab o'rgatish usuli qo'llanilgan: alif, be, te, se ... keyin esa bu harflarni birlashtirib o'qish mashqlari bajarilgan. Domla imomlarning xotinlari va qizlari qisqartirilgan dasturlar asosida ta'lim berishgan. Shuningdek, qizlarga uy-ro'zg'or ishlarining dastlabki ko'nikmalari ham o'rgatilgan. Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilar tuman darajasidagi otinlar maktabida o'qishni davom ettirishgan.

Uvaysiy Umarxon saroyida shoira sifatida she'r san'atidan va musiqadan dars bergan. Jahon Otin qizlarga boshlang'ich ta'lim berar ekan, ularning zehni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Otin faqat savod o'rgatish bilan cheklanmay, iqtidorli qizlarni tanlab, ularni sharq she'riyati bilan tanishtirgan va ularni nazm san'atiga yetaklagan.

Uvaysiy o'z davrining yetakchi shoiralaridan biri bo'lib, qizlarga she'r san'ati darsida nazirago'ylik va radifgo'ylik kabi qoidalarni o'rgatgan. Har bir shoirning fikrlarini kuchli ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligini tushuntirgan. Jahon Otinning ko'plab she'rlari insoniy muhabbat va go'zallikni ifodalagan. Uning asarlaridagi asosiy lirik qahramon hayotni go'zalliklari bilan sevuvchi, baxtiyor, zulmga qarshi kurashuvchi, do'stlik va sadoqatli ayol sifatida tasvirlangan. Uvaysiyning asarlarida xalq og'zaki ijodidan olingan maqollar va hikmatli iboralar keng ishlatilgan, bu esa uning asarlarining tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirgan.

Uvaysiyning ma'rifiy faoliyatida ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati va iste'dodli qizlar bilan ishlash

usullari alohida o‘rin tutgan. U o‘z davrining yosh tolibalariga hayotga muhabbat, tez fikrlash, ravon so‘zlash va boshqa tarbiyaviy usullarni o‘rgatgan, jumladan, chiston (topishmoq) usullarini yaratishni targ‘ib qilgan.

Munis Xorazmiy (1778-1829) XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan tarixshunos, olim, pedagog va mahoratli xattot edi. Uning yashab ijod etgan davri feodalizmning qulash davriga to‘g‘ri keldi. Feodal tuzumning dahshatli holati shunchalik yomonlashdiki, xalqning boshidan kechirgan qiyinchiliklari cheksiz edi. Shermuhammad Avazbey o‘g‘li Munis aynan shunday og‘ir zamonda 1778 yilda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida mirob oilasida dunyoga kelgan. “Munis” uning adabiy taxallusi bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “do‘st”, “hamroh”, “yor” deganidir. Munis dastlab ta’limni o‘z qishlog‘ida maktabda oldi. Keyin madrasada ta’lim oldi. Madrasa ta’limidan so‘ng arab va fors tillarini mustaqil o‘rgandi. U sharq adabiyoti namoyandalaridan Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Xofiz Sheroziy, Lutfiy ijodlarini chuqur o‘zlashtirdi. Munisning axloq-odobga oid g‘oyalari uning g‘azallar, mustazodlar, muhammaslar, musaddaslar, qasidalar, qat’alar, ruboiylar, tuyuqlar, chistonlarida ifodalangan. Munis “Savodi ta’lim” nomli asarida ilm-fan, maktab va ta’lim-tarbiyaga doir fikrlarini batafsil bayon qilgan. Ushbu asarning birinchi bo‘limida harf mashq qilishga tayyorgarlik masalalari, ikkinchi bo‘limida esa xat yozish mashqi va uning usullari haqida amaliy tavsiyalar berilgan. Munis tarjimon sifatida XV asrda yashab ijod qilgan tarixchi Mirxondning “Ravzatus-safo” asarining birinchi va ikkinchi jildlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Munis ma’rifatparvar shoir sifatida o‘z zamonasining eng

ilgʻor maʼrifatchilaridan biri edi. Shoir oʻz sheʼrlarida tarbiya muhimligini tushuntirgan. U insonga xos yuqori fazilatlarni ilm orqali tarbiyalash zarurligini koʻrsatgan. Munis ogʻir kasallik tufayli 1829 yilda vafot etdi. U qoldirgan oʻlmas adabiy va maʼrifiy meros yosh avlod tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Munis odamlarni rostgoʻylik, jasorat, xalqparvarlik, doʻstlik, vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning eng avvalo ilm orqali amalga oshishini taʼkidlagan. U bilimning qudrati kuch ekanligini isbotlagan. Munis ilmning afzalliklari haqida maktab va madrasalarda oʻqitiladigan fanlarning mohiyatini sheʼriy misralarda quyidagicha ifodalagan:

Goho tinglovchilar birga gulxan atrofida
Surub dardkashlikka yuz tutar mojaro,
Gahi rindlar bazmiga yoʻl topib,
Hamonki maqsadga qul topib,
Gohi maktab ichra kirib shodkom,
Madrasa tomon aylab hirom.
Qayerda doʻstlar bazm qilsa,
Tarab ertiqqa azm qilsa,
Oʻzimni ular orasiga solur edim,
Koʻngil qongʻuncha bahra olar edim.

Munis “Savodi taʼlim” asarida donishmandning ilmga boʻlgan eʼtiqodi uning oʻz xatida aks etishini alohida taʼkidlaydi. Shuningdek, xatni chiroyli, husndor va xatosiz yozishining tarbiyaviy ahamiyatini quyidagicha bayon etadi:

Xattidin o‘lub xujasta ta’lim,
Ta’lim fani xatiga taslim,
Sharmanda xati sabz xatlar,
Xol ofati xatida nuqtalar.
Ta’lim berur na bir raqamdan,
Xat yozish ishi eti qalamdan.

Shoir insonlarni bir-biriga mehr-oqibatli bo‘lishini, do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi xatlar yozish haqidagi g‘oyasini, maqsadi va vazifalarini aniq bayon qiladi:

Ko‘p muddat erdi guruhi mushtoq,
Ta’lim sumakbag‘rig‘a ushoq,
Mashq etmak ishida xat bitarga,
Ta’lim vuqufiga etirga...
Bilgancha surub qalamni har yoni
Ta’lim ishini aylar edim oson.

Munis ijodida axloq-odob masalalari alohida o‘rin tutadi. Uning ijodiyotining asosiy yo‘nalishlari: nohaqlik va zulmga qarshi adolat, saxiylik, xalqqa cheksiz muhabbat, ilm-ma’rifat, jaholatga qarshi insoniy fazilatlar. Munis o‘z zamonasidagi ichki urushlar, xirs va dunyo odamlarda bir-biriga nisbatan mehr-oqibatning kamayishiga sabab bo‘lganini ta’kidlaydi:

Ne natija berur adab, hunaring,
Na nazarga kirar nasab guharing.
Bas erur bu zamonda bisoting aro qara
Siymu zaring.

Munis o‘z asarlarida mehr-oqibat va do‘stlik tuyg‘ularini zarur satrlarda quyidagicha ifodalagan:

Ey do‘st, tani zarim aro jonim eding,
Iqlimi muhabbat uzra sultonim eding,
Xush kelding jonimda nishonim qilding,
Xush borki, base aziz mehmonim eding.

Munis o‘z asarlari bilan tarbiya masalalariga katta e‘tibor qaratgan. Uning didaktikasi insonni yuksak olijanoblik, rostgo‘ylik, halollik, ilmga chanqoq, mehr-oqibatli bo‘lishga chaqiradi. Munisning adabiy va pedagogik g‘oyalari maktablarda to‘g‘ri, chiroyli yozuv va yozish qoidalarini o‘rgatishda xizmat qilgan va qilmoqda.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy o‘z davrining ma‘rifatparvari sanalgan. U bolalar tarbiyasida salomlashishdagi hatti-harakatlar, jismonan ojiz yoki kasal kishilar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan qoidalar, shuningdek, erkak va ayol o‘rtasidagi salomlashish odoblari, salom bermaslik va javob qaytarmaslik mumkin bo‘lgan holatlar borasida muhim maslahatlar berilgan bo‘lib, ular bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uchrashuvda qo‘l berib ko‘rishish, biroq qo‘lning uchi bilan emas, samimiy va qo‘lni silamasdan, ochiq yuz bilan ko‘rishish odobi ta‘riflanadi. Quchoqlashib

ko‘rishish, safardan qaytgan shaxs hamda yosh bolalar bilan ko‘rishish, o‘pib ko‘rishish odoblari ham yoritiladi. Asarning yozilish maqsadida insonning hayotda ichki va tashqi odob-axloq qoidalarini chuqur tushunishi va ularga qat’iy amal qilishi lozimligi aytiladi.

Asar bo‘limlari quyidagicha mavzularni o‘z ichiga oladi: salomlashish, ruxsat so‘rash, muloqot, o‘rtoqlik, yo‘l yurish, uxlash, ovqatlanish, mehmon kutish, ziyofat, er-xotin munosabatlari, suhbat, tozalik, ozodalik, safarga chi chiqish qoidalar, yoshlarning tarbiyasi va boshqa ijtimoiy-axloqiy odob qoidalar. Bu qoidalar har bir kishining kundalik hayotida amal qilinishi shart. Ma’lumki, Sharq xalqlari tomonidan qabul qilingan axloqiy qoidalarga muvofiq, biror kimsa boshqalar xonadoniga tashrif qilganda, eshikdan o‘sha xonadon egalarining ruxsatisiz kirib ketmasdan, belgilangan qoidalarga rioya qilishi shart hisoblanadi. Eng muhim qoidalar sifatida Muhammad Sodik Qoshg‘ariy tashrif buyuruvchi shaxs o‘z kelganligini xonadon egalari oldida ogohlantirishi (eshikni qoqishi yoki yo‘talishi), ushbu chxx

Bu qoidalarining ahamiyati ularga rioya qilinmaslik oqibatida yuzaga kelgan noxush hodisalar misolida tushuntiriladi. Libos kiyish qoidalar ham axloq-odob me’yorlarining bir qismi hisoblanadi. Ma’lumki, libos kiyish borasida ham aniq mezonlar belgilangan bo‘lib, ularga amal qilish kishini noqulay vaziyatdan saqlaydi. Muhammad Sodik Qoshg‘ariy asatlarida libos kiyish qoidalar va ularni bajarish shartlari haqida mulohazalar bildiradi. Unga ko‘ra, kishilar quyidagi mezonlarga qat’iy rioya qilishi zarur: libos tanlashda shaxsning imkoniyati, moddiy holati, mavqeyi, nasl-nasab, yoshi, jinsi va joyi (geografik hudud, shahar yoki qishloq, faoliyat turi va boshqalar)

inobatga olinishi lozim. Tanlangan libosning qulayligi va faslga mosligi ham muhimdir. Libosni toza tutish, juda hashamatli kiyimlarni kiymaslik, yaxshi kiyim kiyilganda manmanlik qilmaslik, ishlatilmaydigan ortiqcha kiyimlarni muhtojlarga berish haqidagi tavsiyalar ham bugungi kun uchun o'z ahamiyatini yo'qotmagan. salomlashishdagi xatti-harakatlar, jismonan ojiz yoki kasal kishilar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan qoidalar, shuningdek, erkak va ayol o'rtasidagi salomlashish odoblari, salom bermaslik va javob qaytarmaslik mumkin bo'lgan holatlar borasida muhim maslahatlar berilgan bo'lib, ular bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega

Yo'l yurish qoidalari ham har bir inson bilishi zarur bo'lgan masalalardan biri bo'lib, muallif mazkur mavzuga ham alohida e'tibor qaratadi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning tavsiyalariga ko'ra, yo'l yurganda atrofga qarashni kamaytirish, jamoat joylarida boshqalarga to'sqinlik qilmaslik, ularning hurmatini saqlash, yo'lga birga chiqqan do'stlar yoki hamrohlarning yoshi, mavqeyi, salomatlik holatini hisobga olish, tanish shaxsga yo'lda uchrashganda salomlashib tez o'tib ketish, zarurat bo'lsa, yo'l chetiga chiqib suhbatlashish, og'zidan yoki burunidan suyuqlik (balg'am) chiqarishda yuzni yashirish, uni o'ng tomon yoki old tomonga emas, chap tomonga yoki orqaga tashlash, muhtojlarga yordam berish, yo'lda odamlarga zarar yetkazadigan narsalarni olib tashlash, mazlumlarning g'amginliklariga sherik bo'lish va ularga yordam ko'rsatish, yaxshilik qilayotganlarni ma'qullash va yomon ishlardan qaytarish to'g'risida so'z boradi. Ushbu qoidalarni bilish katta ham, kichik ham uchun zarurdir.

Uchinchi bobda esa suhbatlashish odoblari muhokama

qilinadi. Ma'lumki, suhbat odoblari va ularning shartlariga amal qilish ijtimoiy munosabatlarning barqaror kechishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik mualliflar tomonidan axloq-odob masalalariga bag'ishlangan asarlarda bu mavzu alohida o'rin olgan. «Odob as-solihin» asarida ham muallif suhbatlashish odoblari va ularning o'ziga xos jihatlari haqida batafsil fikr bildiradi. Suhbatning yaxshi niyat bilan va beg'araz bo'lishi muhim hisoblanadi. Belgilangan mavzularda tashkil etilgan suhbatlarda tana tozaligi ta'minlangan, og'z va tishlar pokiza, toza kiyimda bo'lish, suhbatdoshlarga hurmat va mehr ko'rsatish, ulug'larga e'tibor berish, o'tirish qoidalariga rioya qilish, suhbatga kirgan va chiqqan paytda joydan turish, ulug'larni yuqoriroq joyga o'tkazish, badxulq so'zlar, yomon hatti-harakatlar va nomaqbul jimlikdan tiyilish, barchaga yaxshi munosabatda bo'lish, ularni hurmat qilish, aksa kelganda og'izni yopib, past ovozda, yengil aksa qilish, suhbatdoshlarga buyruq berishdan saqlanish, ularga hech qanday shartlarsiz xizmat qilish, do'st va begonalarga ochiq yuz bilan, chiroyli xulq va odob bilan muomala qilish, aka-uka, opa-singilning xatosini kechirish va ularning aybini yuzlariga solmaslik, imkon bo'lsa, ularga boshqa odamlardan yashirin nasihat berish, suhbatda qatnashayotgan kishining yomon ishini baholamaslik, zarurat tug'ilganda uni suhbatdan chetlashtirish choralari ko'riladi.

Mavzuga oid savol va topshiriqlar:

1. O'tmishda o'g'il va qiz bolalarning maktabda o'qitilishi alohida-alohida bo'lgan? Bu holatni qo'llab-quvvatlaysizmi?
2. Quyida berilgan fikrni izohlang. Nima deb o'ylaysiz, ushbu g'oya barcha yoshdagi ta'lim oluvchilarga taalluqlimi?



O'QUVCHI



**TO'LDIRILISHI
KERAK BO'LGAN
IDISH EMAS**

**YOQILISHI
KERAK BO'LGAN
MASH'ALA**



8-MAVZU: O'zbekistonda 1917-1990-yillarda ta'lim tizimi va pedagogika

REJA:1.O'zbekistonda 1917-1990 yillarda ta'lim tizimi.

2."Yangi usul"dagi maktablarning joriy etilishi.

3. Ma'rifat qanotlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. Sh.Mirziyoyev. Toshkent. «Tasvir», 2021.
- 2.Pedagogika nazariyasi va tarixi. N. Rahmonqulova, K.Matnazarova. Toshkent. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2010.
- 3.Pedagogika. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Xoliqberdiyev. Toshkent. «O'qituvchi», 2001.
- 4.Pedagogika nazariyasi va tarixi. R.Mavlonova, N.Vohidova, N. Raxmonqulova. Toshkent. «Fan va texnologiya», 2010.
5. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. «Sharq», 1999.
6. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. Toshkent. «FAN», 1960.
- 7.Pedagogika tarixi. A.Zunnunov. Toshkent. «Sharq», 2004.
8. Pedagogika tarixi. K. Hashimov, S. Nishonova. Toshkent. «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti», 2005.
9. Saidova N.M. Pedagogika tarixi, Fan va ta'lim , 2022

Elektron ta'lim resurslari:

1. <https://ziyonet.uz/>

2. w.w.w.pedagog.uz/

Tayanch so'z va iboralar: ma'naviyat, ma'rifat, maktab, ziyo, mustaqil, savodxonlik.

O'zbekistonda 1917-1990 yillarda ta'lim tizimi. Markaziy Osiyoda temuriylar hukmronligi inqirozga yuz tutgach, bu hududni egallash uchun dunyoning ko'plab davlatlari harakat qildilar. Shulardan biri chor Rossiyasi edi. Markaziy Osiyoni Rossiyaga qaram qilish fikri Petr I dan boshlanib, uning vafotidan keyin Yekaterina II hukumati tomonidan davom ettirildi. Rossiyaning bosqinchilik yurishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Chunki, o'sha davrda sobiq imperiya o'rnida uch xonlik — Buxoro amirligi, Xiva hamda Qo'qon xonliklari mavjud bo'lib, ular orasida nizolar kuchaygan edi. Bundan foydalanib, chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishdi, avvalo Qozog'istonni o'zlariga qaram qildilar. So'ngra 1864 yilda Turkmaniston, Chimkent, Avliyoota, 1865 yilda Toshkentni egalladilar. 1867 yilda Yettisuv, 1868 yilda Samarqand, 1876 yilda Farg'ona Rossiya qo'liga o'tdi.

Markaziy Osiyoda oktabr to'ntarishiga qadar bir nechta turdagi maktablar mavjud edi. Jumladan, musulmon diniy maktablar — eski maktab, qorixona, madrasa; rus maktablari — umumiy ma'lumot maktablari, kasb maktablari, rus-tuzem maktablari, rus tilini o'rgatish maktablari; yangi usul maktablari (usuli jadid) — jadidlar tomonidan tashkil etilgan xususiy maktablar faoliyat olib borgan.

XX asr boshlariga kelib Turkiston o'lkasidagi yirik markaziy shaharlarda oliy ta'lim maskani hisoblangan quyidagi madrasalar: Buxoroda — 80ta, Qo'qonda — 40ta, Samarqandda — 22ta, Marg'ilonda — 28ta, Toshkentda — 17ta, Xiva xonligida — 130ta mavjud bo'lib, ularda 400 dan 5000 gacha talaba tahsil olgan. 1917-1924-yillarda Turkiston o'lkasida ta'lim siyosati o'ziga xos tashkil etilgan; 1917-yil fevral

oyidan oktabr orasida Turkistonning yirik shaharlarida turli tillarda dars beradigan xususiy maktablar ochildi. 1917-yil aprel oyidan boshlab “Anjumani maorif” jamiyatining mablag’lariga “Rushdiya” maktabi ochildi. 1917-yil Samarqandning taniqli ma’rifatparvari Hoji Muin Shukrullo Tarbiyat maktabini ochdi. 1918-yilning yozida Samarqandda “Musulmon o’qituvchilari uchun pedagogic kurslar” ochildi. 1918-yil 13-mayda Toshkentning eski shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do’koni binosida musulmon aholi uchun xalq dorilfununi ochildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yangi usul maktablari o’ziga xos tarzda faoliyat olib bordi. Jumladan, Abdulla Avloniy, Hoji Muin Shukrullo, Munavvar qori, Abdurauf Fitrat, Kamol Shams, Haydar Shavqiy, Abdurahmon Ismoilzoda hamda ayol muallimalar Solihaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulsum Qorayeva, Fotima Gurnasheva, Zebinisio Razzoqova singarilar ilm toliblariga dars berishdi. Maktab mashg’ulotlari uchun “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni”, “O’qish kitobi”-ikki jildlik “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” kitoblari Fitratning “O’quv” kitobi Sh. Rahimiy va Q. Ramazon bilan birga ona tili darsligi, “Imlo masalalari” kitoblari muhim ahamiyat kasb etdi.

1921-1925 yillarda Turkiston maorifi tomonidan Rus muhojirlari Turkiston general-gubernatorining farmoniga binoan o’lkada rus va ruslashtirilgan maktablar, gimnaziya kabi ta’lim muassasalarini tashkil etish va ularni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotlarini boshladilar. Bu bilan ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirishga urinishar edi va har bir qilgan ishlarini katta ko’rsatishga

harakat qildilar. 1917 yilgi inqilobgacha o'lkada 21 foiz odam savodli bo'lgan, qolganlari savodsiz ekan, degan noto'g'ri ta'rif berishga intildilar, quruq tuhmatlar yog'dirdilar.

O'lkani savodli qilish uchun avvalo rus, ruslashtirilgan, gimnaziya kabi o'quv maskanlari zarur, madrasalar va "usuli qadimiya" eski uslubdagi maktablarda, otinlar maktablarida savod berish mumkin emas, degan siyosatni olib bordilar.

Shu bilan birga chor hukumati rus bo'lmagan aholining yashash hududlarida maktablar ochib, bu maktablarda o'qitishni ruslashtirish maqsadini qo'yardi. Chor hukumati tomonidan XX asrning 60-yillarida maktab ustavlari tasdiqlanib, ushbu asosda boshlang'ich va o'rta maktablar qayta tashkil etildi, rus bo'lmagan xalqlar uchun maktablar tashkil qilishga oid davlat hujjatlari ishlab chiqildi. Maktab ishlari bilan bog'liq siyosiy va ideologik ko'rsatmalar 1870 yilda chor Rossiyasi xalq maorifi vaziri D.A. Tolstoy tomonidan ifodalangan edi: "Bizning vatandoshlarimiz bo'lmagan barcha xalqning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, albatta, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo'lishi kerak", deb belgilangan edi. Ruslashtirish siyosati 1870 yilda e'lon qilindi, unga ko'ra rus millatiga mansub bo'lmagan xalqlar uch turga bo'lindi. "Juda kam ruslashgan xalqlar" — bular Sharqiy Sibir va Volgabo'yi xalqlari edi. Ular uchun ochilgan maktablarda o'qishni ona tilida boshlash, keyinchalik rus tilida o'qitishga o'tish tavsiya qilindi. "Ruslar ham yashaydigan hududlarda yashovchi xalqlar" — bu joylardagi maktablarda o'qitish dastlab rus tilida olib boriladi, ba'zida ona tilidan ham foydalaniladi, keyinchalik faqat rus tilida o'qitish maqsad qilinar edi (masalan, gruzin bolalari

o‘qitiladigan maktablarda). “Yetarli darajada ruslashgan xalqlar” — masalan, ukrainlar, beloruslar. Bu xalqlarning maktablarida o‘qitish faqat rus tilida olib borilishi belgilangandi. Mana shu umumiy direktiva asosida ulkan Rossiya imperiyasining ayrim hududlaridagi maktablarning ta’lim-tarbiyaviy ish tamoyillari belgilanib, yo‘l-yo‘riqlar yaratiladi va e’lon qilinadi.

Tarixda o‘zbek xalqi ko‘p bosqinchilarni boshidan kechirgan. Masalan, mo‘g‘ul bosqinchiligini oladigan bo‘lsak, ular odamlarni qirib, boyliklarini talon-taroj qilgan, ammo madaniyatiga, tiliga va diniga tegmagan. Eng dahshatlisi, ruslar Turkistonda bosqinchilik ishlarini amalga oshirish bilan birga, xalqning urf-odatlarini, tili va dinidan ham ajratib qo‘ymoqchi bo‘ldilar. General Rozenbax shunday degan edi: “O‘lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyatga ega bo‘lishi kerak”. Haqiqatdan ham mustamlaka davrida ruslashtirilgan maktablar vujudga keldi. Bu maktablarning asosiy maqsadi o‘lkani ruslashtirish edi. XX asr boshlarida Turkistonda jami 20925 ishchi bor edi. Temir yo‘llar o‘lkamizning barcha boyliklarini Rossiyaga olib ketish maqsadida qurilgan. Yangi ochilgan turli maktablar esa mustamlakachi amaldorlar uchun tilmochlar tayyorlash uchun xizmat qilgan.

XIX asr o‘rtalarida Turkiston o‘lkasida boshlang‘ich maktab hamda o‘rta va oliy diniy ta’lim beradigan madrasalar mavjud edi. Maktablarning ko‘pchiligi, jumladan qishloq maktablari asosan diniy ta’lim beruvchi eng oddiy boshlang‘ich maktablar edi. Bu maktablarda masjidlarining imomlari, savodxon mullalar dars berar edi. Bunday maktablarda o‘qitish eng oddiy diniy vazifalarni o‘rgatish bilan, ya’ni

Qur'on o'qishni o'rgatish, har bir musulmon uchun zarur bo'lgan asosiy ibodatlarini tushuntirish bilan cheklanar edi. Shahar maktablarida diniy ta'limdan tashqari, umumiy ta'lim elementlari — yozish va hisoblash yo'llari o'rgatilardi. Shahar maktablarida o'quvchilar soni 20-30 atrofida, qishloqlarda esa 10-15 kishiga yetardi. O'qishga 6 yoshdan qabul qilib, o'quvchining qobiliyatiga qarab 17-18 yoshgacha davom ettirilardi. Maktabda dastlab «haftiyak», so'ngra «qur'on» yod olinardi, undan keyin esa «Chor kitob»ga o'tilardi. «Chor kitob» to'rt bo'limdan tashkil topgan bo'lib, birinchi bo'limida haq va Xudoning nomlari tushuntiriladi, din qoidalari, tahorat va namoz bayon qilinardi; ikkinchi bo'limda iymon va e'tiqod haqida ma'lumot berilar; uchinchi bo'limda kalomi nabiy va rivoyatlar muhokama qilinardi, xalq orasida mashhur shoirlarning she'r va g'azallari o'qitilardi. Odatda, bunday maktablarning o'quvchilari badavlat oilalarning farzandlari bo'lardi. Ular o'qishni tamomlab, olgan bilimlarini savdo-sotiqda va hunarmandchilik ustaxonalarida qo'llar, ba'zilar esa qo'shimcha ta'lim olib, xattotlik kasbi bilan shug'ullanar, boshqalari madrasaga kirib, ta'limni davom ettirar edi.

Chor davrida Xorazm maktab siyosati ruslashtirishdan iborat bo'lsa-da, rus bolalari bilan mahalliy aholi bolalarining birgalikda o'qishi ularning o'rtasida o'zaro do'stlik rishtalarini shakllantirardi. Rus maktablariga kirgan bolalar dastlab rus tilini mutlaqo bilmasdilar, shuning uchun ko'plab qiyinchiliklar yuzaga kelardi. Shu bois, rus tilini bilmaydigan o'quvchilar odatda pastroq bo'limda o'qib, tilni o'rganib olgach, yuqori bo'limga o'tkazilardi. Yuqori bo'limlarga o'quv yilining o'rtalarida ham o'tkaziladigan holatlar ko'p edi, chunki maktablar kichik

bo'lib, bir vaqtda bir nechta bo'limlarda mashg'ulotlar olib borilardi. Rus maktablarida o'qiyotgan qozoq bolalarning ko'pchiligi internatlarda yashar, bu esa rus tilini tezroq va yaxshi o'zlashtirishga yordam berardi. Toshkentdagi gimnaziyada dastlabki yillarda mahalliy aholi bolalarini rus tilini yaxshiroq o'rganishlari uchun lotin tilini o'rgatishdan ozod qilish hollari bo'lardi.

1880-yillarning boshlarida rus maktablarida o'qiyotgan o'zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o'qitish zarurati haqida fikrlar paydo bo'ldi, chunki ota-onalar bu maktablarga nisbatan xavotirda edilar. Turkiston ma'murlari bu fikrning to'g'riligini tekshirishga qaror qildilar. 1884-yil 19-dekabrda Toshkentning «eski shahar» hududida tajriba uchun birinchi rus tuzem maktabi ochildi. O'n yildan so'ng Toshkentda bunday maktablar soni to'rtaga yetdi. Bunday turdagi maktablar katta shaharlarda hamda qishloqlarda tashkil etila boshlandi. Agar XIX asrning 70-yillarida Turkistonda ilk bor rus va rus tuzem maktablari paydo bo'lgan bo'lsa, 1904-yilgacha ularning soni 57 taga yetdi.

Jadidlar 1906-yilda «Taraqqiy» nomli gazeta chiqarib, o'z g'oyalarini yoyishga kirishdilar. Keyinchalik «Xurshid», «Shuhrat» kabi yangi gazetalar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari ko'payib, u yerda diniy bilimlar bilan birga dunyoviy fanlar ham keng targ'ib qilindi. «Jadidlar nima haqida gapirishmasin, barchasi yangi nafas, yangi g'oya edi, proletar mafkurasi ham, ishchi sinfi ham yo'q edi, tabiatni birlamchi deb hisoblovchilarning nazariyalarini deyarli hech kim tushunmas, biladiganlar esa juda ozchilikni tashkil qilardi. Shuning uchun jadidchilik yangi g'oyalar bilan

paydo bo'lib, ruhoniylarga va hukmron sinflarga qarshi turishi, madaniyat yaratishi, qisqasi yangilik edi, «jadid» so'zi ham «yangi» degan ma'noni anglatadi».

Jadidlarning harakat dasturi quyidagi muhim masalalarni hal etishga yo'naltirilgan edi:

- diniy taassub va fanatizmga qarshi kurash;
- diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Yevropa uslubidagi dunyoviy bilimlarni ona tilida o'rgatadigan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davr maorifini isloh qilish;
- jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish maqsadida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot erkinligi uchun kurashish, xalqqa tushunarli adabiyot va teatr yaratish;
- xotin-qizlarni paranjidan chiqarib, jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash orqali ularning taqdirini yaxshilash;
- mahalliy boylar va savdogarlarning siyosiy-iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan teng huquqli bo'lishini ta'minlash, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olinishi va mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash.

Asosiy talablar shunday edi: ilm va ma'rifat yagona qurol sifatida qabul qilinib, ular shu qurol yordamida o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashdilar. Ushbu oqimning asoschisi turkiy xalqlarning chinakam jasur va iftixori hisoblangan **Ismoilbek G'aspiralidir**. Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan maktab va maorif sohasida haqiqiy inqilob qilib, «usuli jadid» nomi bilan tarixga kirgan «usuli savtiya»ni boshladi. Ismoilbek barcha turkiy

xalqlarni yagona millat deb bilgan; ilm, ma'rifat va haq-huquqda ularni dunyoning taraqqiy etgan millatlari bilan teng ko'rmoqni orzu qilgan. Ismoilbek 1851-yil 21 martda tug'ilgan. Uning tarbiyasida onasi Fotima va enagasi Habibaning hissasi katta bo'lgan. Ismoil 8 yoshida eski maktabga berilgan. O'nga kirganda esa, otasi Mustafobek, onasi Fotimaning qarshiligiga qaramay, Oq machitdagi guberniya gimnaziyasiga olib boradi. U yerda ikki yil o'qigach, Voronejdagi ofitserlar harbiy o'quv yurtiga o'tadi. O'n uch yoshida o'qishini Moskvadagi Malyutin gimnaziyasiga ko'chiradi. 1868-yilda uni tamomlab, Boqchasaroyga qaytadi. «Zanjirli» madrasada rus tili o'qituvchisi sifatida ish boshlaydi. Keyin oradan ko'p o'tmay o'qish istagi Ismoilbekni Istanbulga olib boradi, so'ngra Parij, Vena, Myunxen, Shtutgart kabi shaharlarni kezadi. Mashhur Sorbonna universitetida o'qishga qatnaydi. Nihoyat, 1876-yilda Boqchasaroyga qaytib, «Zanjirli» madrasada rus tili muallimi sifatida faoliyatini davom ettiradi. 1883-yil 10 aprelida G'aspiralining «Tarjumon» gazetasi birinchi soni chop etiladi. Gazetada yozgan maqolasida u o'quvchilariga shunday murojaat qiladi: «Aziz do'stlarim, biz uchun eng ulug' ish — ilm va maorif ishlari. Eng muqaddas intilish — ilm va maorifga intilishdir. Chunki insonni inson qilgan — mehnat va bilimdir. Bilim madaniy turmushga yetishish vositasidir. Madaniy turmush esa insonning yashash maqsadi va usulidir...»

1884-yilda G'aspirali yana bir muhim ish boshlaydi. U o'n ikki nafar bolani yangi usul — «usuli jadid» bilan o'qitishni boshlaydi. Qirq kun ichida ularning savodxonligini oshiradi. Imtihonga bolalarning ota-onalarini taklif qiladi. Hamma bir ovozdan «usuli jadid»ning

betakror imkoniyatlarini tan oladi. Xullas, Ismoilbek eski maktabda besh yilda beriladigan bilimni ikki yilda o'rgatishga erishadi. Shogirdlari uchun «Xo'jayi sibyon» («Bolalar muallimi») nomli darslik yaratadi.

G'aspirali jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlardan orqada qolishimiz sabablaridan biri sifatida o'z davrida tashkil etilgan o'qish-o'qitish tizimini ko'rsatadi. «Eski usul»da o'qigan va o'qiyotganlarni hech kim kamsitmagan holda, «usul»ni yangilash zarurligini tushuntiradi. Biz taklif qilayotgan usul osmondan tushgan narsa emas, balki eskisini yangilashdir, deydi u. «Jadid usulining yoyilishi (tarqalishi) sizlarga va ilmga hurmat sifatida bir hikmatdir. Chunki, otabobolarimizdan qolgan milliy maktablarni isloh qilish usuli — usuli jadid degani, boshqa bir o'quv, boshqa maktab degani emas. Usuli jadid kam vaqt ichida ko'proq va sifatli o'qitish va o'qishni yo'lga qo'yishni ko'rsatadi, g'ayri oddiy bir narsa emas».

Yangi usul maktabida quyidagilar joriy qilinadi: maktabga qabul faqat ikki marta — yoz va qish boshlarida amalga oshiriladi; har bir o'qituvchida ko'pi bilan 3-4 sinf bo'ladi; agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket va muayyan uyg'unlikda olib borilishi lozim; 7-9 yoshdagi bola doimiy ravishda 7-8 soat o'qiy olmaydi, unga 5 soat kifoya qiladi; har darsdan keyin 10 daqiqa tanaffus bo'ladi; juma va bayram kunlari dam olinadi; o'quv jarayonida zerikishni oldini olish; shogirdlarni urish va so'kishning foydasi yo'qligi va boshqa qoidalar e'tiborga olingan.

G'aspirali «usuli jadid» bilan o'qitish qoidalarini quyidagicha tushuntiradi:

1. Butun alifboni bir zumda o'rgatish qiyin. Boshlanishda uch-besh

harfni asta-asta o'rgatish osondir.

2. Birinchi darsdan boshlab shogirdlarni yozishga boshlashlari kerak emas.
3. Darslar ma'lum soatlarga va qismlarga bo'linib o'tilishi kerak.
4. O'quvchi bir darsni yaxshi o'zlashtirmaguncha ikkinchisiga o'tmasligi lozim.
5. Harflar bilan tanishtirganda ular haqida kengroq ma'lumot berilishi maqsadga muvofiqdir.
6. Bolalarni har olti oyda sinovdan o'tkazish; yil oxirida sinfdan sinfga o'tish yoki o'zlashtirmaganlarni sinfda qoldirish nazarda tutiladi. Darslar har xil bo'lib, har biri yarim soatdan bir soatgacha davom etishi mumkin. Darslar orasida tanaffuslar bo'lishi zarur.

Bu maktablarda «Xo'jayi sibyon» asosiy darslik sifatida ishlatilgan. 1910-yilgacha u 27 marotaba chop etilgan. Ammo jadidchilik faqatgina bitta maktab bilan cheklanmagan, u Rossiyadagi musulmon ma'naviy olamining barcha sohalarini — madrasani, matbuotni, ilm-fanni o'z ichiga olgan va eng muhimi, ularning barchasi jamiyat hayotiga qanchalik ta'sir qilishi va zamonga xizmat qilishi mezon qilib ko'rilgan (B.Qosimov).

Millatning o'zligini belgilovchi xususiyatlardan biri — til va maorifdir. Bu ikkisi bo'lmasa, millat mustaqil bo'la olmaydi. G'aspirali 1905-yilda yozgan maqolasida millatning asosi ikki narsa: yagona til (til birligi) va yagona din (din birligi), deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, tilning o'rni nihoyatda muhim: «Insonning ismi bo'lmasa, o'zi ham yo'qdir, xuddi tili bo'lmagan inson ham soqov hisoblanadi». Shu bilan G'aspirali millatni yo'q qilish uchun yuqoridagilardan bittasining buzilishi yetarli,

deydi. Ismoilbekning eng muhim xususiyatlaridan biri har bir millatning maorif va madaniyatini milliy zaminlarda rivojlantirish va milliy til uchun kurash tashkil etishdir.

Ismoilbek G'aspiralining ismi Markaziy Osiyoda ham mashhur bo'lib ketdi. Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi, taniqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuqori saviyali jurnalist **Mahmudxo'ja Behbudiy** 1875-yil 19-yanvarda Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida tug'ildi.

Mahmudxo'ja 6-7 yoshida o'qib-xat yozishni o'rganganidan so'ng, otasi uni qori qilish uchun Qur'onni yodlatishni boshladi. Qur'onni yod olgach, qorilik bilan qanoatlanmay, 15 yoshida tog'asi mufti mulla Odil huzurida ta'lim olishga kirishdi. Bu yerda u «Kofiya», «Shahri mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar al-viqo'ya», «Xoshiya» va hisob ilmini o'rgandi. Mahmudxo'ja o'quvchilar orasida ibratli, o'tkir zehnli va o'qishga qiziqishi yuqori bo'lganlardan edi.

Mahmudxo'ja Behbudiy otasi vafotidan so'ng o'qishni tark etishga majbur bo'ldi. Samarqand muzofotida endigina qozi bo'lgan tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzalik xizmatida ishladi. Bu yillik xizmat davomida qozixona ishlari bilan yaqindan tanishdi. Ish yuritish, huquqqa xos va muftilikka oid barcha ishlarni bilib oldi. U ikki yildan so'ng Kobud bo'limiga ko'chib mirzalik qiladi va tez orada muftilik lavozimiga ko'tarildi. 1916-yilgacha shu yerda faoliyat yuritdi.

Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida, maktab maorifida haqiqiy inqilob qilgan, turkiy qavmlarning iftixori hisoblangan Ismoilbek G'aspiralining «usuli jadid» metodining tarixiy o'rni katta

bo'lganidek, Behbudiy faoliyati ham Turkiston maktab maorifida keng e'tirof etilgan. U birinchi bo'lib o'lkada bu yangi usuldagi maktablarni tashkil etish targ'ibotchilaridan va amaliyotchilaridan biri hisoblanadi. Bu sohada Behbudiy Ismoilbek G'aspiralidan ko'plab yangi jihatlarni o'rgandi. «Tarjumon» gazetasi Behbudiy uchun vaziyatni anglashda muhim vosita bo'ldi. Gazetaning dastlabki sonlarida shunday yozilgan: «Bir bechora faqirni ko'rsak, achinamiz; o'layotgan bechorani ko'rsak, yuragimiz og'riydi. Hatto biror hayvonning qiynalishi rahmimizni keltiradi. Lekin minglab kishilarning, butun xalqning jaholatdan mislsiz azob chekayotganini ko'rmaymiz». Keyinchalik «Tarjumon» sahifalarida yangi maktablar tashkil etish, ilg'or va yangi g'oyalar berish keng muhokama qilindi.

Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning asosiy qoidalari, maktabda o'tiladigan fanlar, qanday imtihonlar o'tkazilishi, maktabning tashkiliy tuzilishi, kerakli asbob-uskuna, muallimlarning vazifalari va ularning moddiy ta'minoti kabi ko'plab jihatlarni G'aspiralidan o'rgandi. Ana shu bilimlar asosida Turkistonda «usuli jadid» maktablarini tashkil qilish uchun barcha imkoniyatlarini ishga soldi. U ayni paytda bu maktablarni kerakli kitoblar bilan ta'minlashda ham katta mehnat qildi. Samarqandning qadimiy qismida bepul kutubxona va qiroatxona ochdi, shuningdek, o'z hovlisida maktab tashkil etdi. Mashhur pedagog Abduqodir Shakuriyning yangi usuldagi maktabini o'z hovlisiga ko'chirib olib keldi. 1918 yilda Samarqandda «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi» tashkil etilganda Behbudiy maorif komissari lavozimiga tayinlandi. Shundan so'ng u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytirib, o'quv dasturlarini yaratish,

yangi darsliklar tayyorlash, o'qituvchilarni tayyorlash uchun kurslar ochish kabi faoliyatlarni rivojlantirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy «usuli jadid» maktablari uchun ko'plab darsliklar yozdi: «Muxtasari tarixi islom» (Islom tarixi haqida qisqacha), «Madhali jo'g'rofiya umroniy» (Aholining joylashuvi haqida kirish), «Muxtasari jo'g'rofi rusiy» (Rossiyaning qisqacha geografiyasi), «Amaliyoti islom» kabi kitoblar darslik sifatida keng qo'llanildi. «Usuli jadid» maktablarida har kim o'qish huquqiga ega edi.

Chor hukumatining amaldorlari o'sha davrda Turkistondagi yangi usul maktablarini darhol yopib tashlashga harakat qilardi, chunki podsho hukumati «begona xalqlar»ning ilm-ma'rifatga ega bo'lishini, dunyoviy bilimlarni o'rganishini istamas edi. Yangi usul maktablari nafaqat podsho hukumati, balki mahalliy ruhoniylar va eski maktab domlari tomonidan ham qattiq tanqid qilinar, ular yangi usul maktablari «Islom diniga zarar yetkazadi» va bu maktablarning muallimlari «kofir» deb e'lon qilinar edi. Shu qiyinchiliklarga qaramay, Behbudiy va uning hamkasblari «usuli jadid» maktablarida Turkiston yoshlari ta'limini faol davom ettirdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiyning «usuli jadid» maktablaridagi o'qitish tartibi quyidagicha edi: maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich «ibtidoiy qism» deb atalardi va uning ta'lim muddati to'rt yilni tashkil qilardi. Birinchi yilda fors va arab yozuvi hamda o'qish o'rgatildirdi, suralar yod olinar, hisob darslari o'tildirdi; umuman, bir yil ichida yozish va o'qish to'liq o'rgatildirdi. Ikkinchi yilda haftiyak (haftalik ibodat), imon va e'tiqod, fors, turkiy va arab tillarida she'r va qasidalar o'qitilar edi. Uchinchi yilda Qur'on, islom ibodatlar, tajvid,

Sa'diy nasihatlarini, fors va turkiy tillar chuqur o'rgatilib, insholar yozdirilar edi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish qoidalari o'rgatilardi. To'rtinchi yilda esa Kalomu Sharif, mufasssal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy tillar, hisob, tarix va geografiya fanlari o'qitilar edi. Ushbu to'rt yillik dastur tugagach, o'quvchilar muallimlar tomonidan taqsimlanar, istasa, ikkinchi bosqichga qoldirilardi, o'zlarining o'zlashtirish darajasiga qarab madrasaga yoki Yevropa maktablariga yuborilardi, yoki tirikchilik uchun ishga yo'llanma berilardi.

Behbudiy maktabida har yili oxirida tantanali imtihonlar o'tkazilar edi, ota-onalar va mehmonlar ham taklif qilinar edi. Bu imtihonlarning birinchi maqsadi «usuli jadid» maktablarini keng targ'ib qilish va o'qish jarayonlarini namoyish etish, ikkinchisi esa oila bilan maktabni yaqinlashtirish edi. Sakkiz yillik ta'limni tamomlagan o'quvchilar arab, fors va turk tillarida ravon gapira olar, yozishar, rus tilini ham yaxshi bilar edi. Ular Turkistondagi barcha boshqaruv idoralarida ishlashga qodir bo'lar, o'qituvchilik, tijorat va muharrirlik faoliyatlarini ham bemalol amalga oshirar edi. Har yili imtihonlarga barcha hududlardan vakillar taklif qilinar edi, ammo ko'pchilik maktab yutuqlarini ko'ra olmaganini uchun kelmasdi. Behbudiy aytar edi: «Kelib ko'rsinlar, to'g'ri bo'lsa yordam bersinlar, noto'g'ri bo'lsa dalillar bilan isbotlasinlar... Bizning maqsadimiz faqat xizmat va millat uchun».

«Usuli jadid» maktabini tashkil etish oson bo'lmadi. Behbudiy va Shakuriy barcha rivojlangan musulmon shaharlaridagi maktablarni o'rganib chiqdi. Mustamlakachilik davrida Turkistonning kelajagi uchun o'z hovlisida ilm-ma'rifat maskanini yaratgani uchun Behbudiyning

boshiga ko'p marta tayoq urildi. Shunga qaramay, u bu maktabni qattiq himoya qildi. Chor rus inspektorlari uning maktabiga kelib tekshiruv o'tkazganida geografiya, tarix va hisob darsliklarini otxonaning oxur qismiga yashirib qo'ygan edi. Behbudiy butun qalbi bilan muallim edi va o'zi ham yuqori sinf o'quvchilariga geografiya va tarixdan dars berardi. U Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan yangi kitoblarni eng yaxshi o'quvchilar va muallimlarga taqdim etardi. U qilgan barcha ishlar buyuk Turkiston va uning kelajagi uchun edi.

«Saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi maktabdir» degan qarashda edi Behbudiy. Shu sababli u «Turkiston viloyatining gazetisi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Turon», «Hurriyat», «Oyina», «Samarqand», «Mehnatkashlar tovushi», «Ulug' Turkiston», «Najot», «Tirik so'z», «Tarjumon», «Vaqt», «Sho'ro» kabi gazet va jurnallarda yuzlab maqolalar chop etdi. Ushbu maqolalar asosan ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan edi. Masalan, «Tahsil oyi», «Ehtiyoji millat», «Samarqand usuli jadid maktabi haqida», «Majlis imtihon», «Tarix va geografiya», «Samarqand isloh rusum majlisi», «Buxoroda usuli jadid», kabi maqolalarda yangi usul maktablarining ahamiyati, ta'lim va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning foydasi, ma'rifatga rag'bat va inson tarbiyasi haqida qimmatli fikrlar ilgari surildi.

Behbudiy ta'lim va tarbiya, uning muammolari haqida boy publitsistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ehtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadid», «Hurriyat, ozodlik, erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til kerak», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga

sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoki taraqqiyot yo‘li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» kabi maqolalari bor edi. 1917-yil 16-23 aprel kunlari Toshkentda o‘tgan Turkiston musulmonlarining qurultoyida u millatni ichki ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo‘lida birlashishga chaqirdi. Ammo o‘z orzulariga erisha olmadi. Behbudiy 1919-yil 25 martda jadidlar sifatida ayblanib, Shahrisabzda qamoqqa olindi va Qarshi shahrida qatl etildi. O‘limidan oldin qilgan vasiyatida shunday dedi: «Biz o‘z taqdirimizni bilamiz. Agar hayotimiz ozodlik va xalq baxti uchun qurbonlik bo‘lsa, o‘limni ham xursandchilik bilan qabul qilamiz».

Mahmudxo‘ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozgan darsliklari o‘sha davrda katta hodisa bo‘ldi. Ushbu kitoblar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo‘llanildi va bugungi kungacha qadri kamaygani yo‘q. «Kitobat ulatfol» («Bolalar maktubi») asari o‘z davrida bir necha bor nashr etildi. Kitobda qirqtadan ortiq fors va turkiy tilidagi insholardan namunalar keltirilgan. Shuningdek, shaxodatnoma va boshqa ish yuritish hujjatlarini yozishni o‘rgatib, misollar bilan ta‘minlangan. Volost va qozixonada yoziladigan hujjatlar ham ushbu kitob yordamida o‘rgatilardi. 36 sahifalik bu asar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilida ish yuritishda ayniqsa foydali bo‘ldi.

Behbudiy 1907-yilda yozgan «Faryod Turkiston» maqolasida o‘sha davrdagi madrasalar ahvolini shunday tasvirlaydi: «Bir madrasada 20 tinglovchiga faqat bitta naql so‘zlaydigan mudarris bor, bir volostda 40 nafar boshliqdan 21 nafari qariya qozidir». U aytadi, mudarris, mufti

va qozilarning 80 foizi qariyalardir va ular yoshlarga sifatli bilim bera olmaydi. Behbudiy Turkiston kelajagini yangi mutaxassislar va bilimli yoshlarda ko‘rardi. Shu bois u har bir maqolasida taraqqiyotga mos kadrlar tayyorlashni ta’kidlar edi. Savdo-sotiqni rivojlantirish, kassa tashkil etib milliy daromadni ko‘paytirish zarurligini ham tushuntirib borgan: «Imorat qurmoqchi bo‘lsak, reja-loyiha kerak, muhandislarga ehtiyoj tug‘iladi. Ammo biz hanuz muhandislikni bilmaymiz. Kontur va rasmiy daftar yuritib, kassa ochib, tijorat qilmoq lozim».

Behbudiy ijodiy faoliyatining asosiy maqsadi Turkistonda maorif taraqqiyotidir. U «Dunyoda yashash uchun dunyoviy fan va ilm zarur. Zamonaviy ilm-fandan bebahra millat boshqa millatlar tomonidan bostiriladi» degan shiorni asos qilib oldi. Mustamlaka Turkistonini jaholat va ilmsizlikdan qutqarish uchun eski maktablarni isloh qilish, yangi usul maktablarini joriy etish zarurligini ko‘rsatdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik g‘oyalari milliy pedagogika tarixiga ulkan hissa bo‘lib kirgan. Uning ta’lim-falsafasi faqat o‘sha davr uchun emas, balki bugungi yoshlar tarbiyasida ham samarali xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy (1878–1934). O‘zbek millati farzandi “Tarbiya biz uchun hayot yoki o‘lim, najot yoki halokat, baxt yoki falokat masalasidir», deb yozgan edi. Mashhur o‘zbek ma’rifatparvari, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tavallud topgan. U dastlab eski maktabda savod o‘rgandi, so‘ng madrasada ta’lim oldi. Oilasidagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan boshqalar uylarida mehnat qildi — g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi hunarlar bilan

shugʻullandi va «Imoratchi usta» nomini oldi. Abdulla Avloniy sheʼrlari 15 yoshida boshlab matbuotda paydo boʻla boshladi. Jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri sifatida Avloniy 1904 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabi ochdi, 1909 yilda esa «Jamiyati xayriya» nomli xayriya jamiyatini tashkil etdi. 1905-1917 yillarda matbuotda faoliyat olib borib, koʻplab publisistik maqolalar yozdi va milliy islohot uchun mafkura yaratishda, xalq orasida oʻzgarish urugʻini sochishda muhim rol oʻynadi. U oʻzi chop etgan «Shuhrat» (1907) gazetasini shunday baholagan edi.

Avloniy Turkistonda birinchi boʻlib maktablarda geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlarini kiritilishiga taʼsir koʻrsatdi, taʼlimni amaliy hayot bilan bogʻlashga intildi, darslar orasida tanaffus joriy etdi, sinfdan sinfga oʻtishda imtihon qoʻlladi va taʼlim tizimining dunyoviy lashtirilishiga katta ahamiyat berdi. Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy sheʼrlar» (1909-1916, 6 qism) kabi qoʻllanmalari maktablarda keng qoʻllanildi.

Avloniy «Turon» (1917) gazetasida «Yashasin xalq jumhuriyati» shiori ostida faoliyat olib bordi, «Turon» teatr toʻgaragini tashkil qilib, iqtidorli yoshlarni jamladi va ayrim rollarda oʻzi ham ishtirok etdi. Shoir Afgʻonistonda elchi boʻlib xizmat qildi va turli oʻquv muassasalarida dars berdi.

Abdulla Avloniyning taxalluslari orasida Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy kabi nomlar bor edi. U 1934 yil 24 avgustda Toshkentda olamdan oʻtdi. Uning ijodi

bo'yicha Begali Qosimov ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Avloniy asarlari qatorida «Advokatlik osonmi» (1914), «Pinak» (1916), «Biz va siz» (1917), «Portugaliya inqilobi», «Ikki muhabbat», «Bo'ron» kabi pyesalar, «Tulki ila qarg'a» masali, «Mardikorlar ashulasi», «Vatan» (1916), «Maktab», «Bog'cha», «Yalqov shogird tilidan», «Tog'lardan bir manzara», «Millatga xitob», «Ishchilarga tortuq», «Ko'klam keldi», «Tovush» kabi she'rlar, «Maqsad va maslak» (1908), «Holimizga doir» (1908) kabi maqolalar, «Hasad balosi» nomli majoziy hikoya mavjud.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari haqida «Turkiy guliston yoxud axloq» 1913 yilda yozilgan axloqiy-ta'limiy asardir. Muallif asar boshlanishida «Man xastayamu millatim o'lmish nega bemor?» degan savol qo'yib, unga javob izlaydi. Asar «Axloq», «Tarbiya», «Yaxshi xulqlar», «Yomon xulqlar» kabi bo'limlardan tashkil topgan. Unda diyonat, sa'y-harakat, riyozat, jasorat, qanoat, sabr, nafs, vijdon, iffat, oliyjanoblik kabi yuqori axloqiy tushunchalar, shuningdek, zulm, nifoq, hasad, g'iybat, haqorat, uyatsizlik, adovat kabi yomon xulqlar millat va vatan farovonligiga qarshi ijtimoiy muammo sifatida ko'rsatiladi.

Avloniy bu asarida shunday deb qayg'uradi: «Har bir millat dunyoda mavjudligini ko'rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotish millatning ruhini yo'qotishdir». Asarda ko'plab hadislar va Qur'oni karimdan olimona iqtiboslar keltirilgan. Ayniqsa, Iskandar, Suqrot, Arastu, Aflotun, Ibn Sino, Mavloni Rumiy, Shayx Sa'diy kabi buyuk allomalarning hikoyalari asarning jozibasini oshirgan.

Abdulla Avloniy o'zbek jadid adabiyotining yetuk

namoyandalaridan biri bo'lib, XX asrda so'z san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan. U Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi Mirovlon aka oilasida tug'ilgan. Oilasi birozdan so'ng Mirobodga ko'chib o'tadi. Avloniy dastlab eski maktabda, keyinchalik madrasada ta'lim oldi va mustaqil o'qishga katta e'tibor berdi. Rus tilini yaxshi bilganligi sababli Orenburg, Qozon, Tiflisda chop etiladigan gazeta va jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida ziyolilar orasida taniqli ma'rifatparvarga aylandi va o'lkadagi ijtimoiy-madaniy harakatlarning faol vakili bo'ldi.

Uning faoliyati 1904 yilda Mirobodda usuli-savtiya maktabi ochilishi bilan namoyon bo'ldi. Avloniy ta'lim va madaniyatni ommalashtirishda matbuotning o'rni katta ekanini bilardi. Shuning uchun 1907 yilda «Shuhrat» gazetasini nashr etdi. Ushbu gazeta Orenburgda yashirin ravishda chiqarilgan «Soldat» ruscha gazetasining siyosiy tashviqotlarini tarqatishda ko'p xizmat qilgan.

1906-1917 yillar davomida Avloniy ijodida katta burilish yuz berdi. U keng jamoani ma'rifatli qilish, ijtimoiy va ozodlik ruhini uyg'otishda o'zining jonbozligini ko'rsatdi. 1909 yilda do'stlari bilan «Jamiyati xayriya»ni ochib, maktab-maorif ishlariga ko'maklashdi. Shuningdek, «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» nomli she'riy to'plamining birinchi jildini nashr etdi.

1913 yilda u teatrchilik faoliyatini boshladi. Uning tashabbusi bilan «Turon» teatr truppasi tashkil etildi. Truppa a'zolari 25 kishi bo'lib, ulardan G'ulom Zafariy, Shokirjon Rahimiy kabi san'atkorlar keng ommaga tanilgan edi. 1916 yilda Mannon Uyg'ur va Shamsiddin Sharafiddinov (Xurshid) bu truppaga qo'shildi, ular o'zbek teatr madaniyatining asoschilaridan bo'ldilar. 1915 yilda truppa «Zaharli

hayot», «Baxtsiz kuyov» kabi pyesalarni sahnalashtirdi. Avloniy o‘z truppasi yanada rivojlanishi uchun ozarbayjon va tatar dramaturgiyasidan namuna oldi. 1914-1916 yillarda Aliasqar Asqarov (ozarbayjon), Zaki Boyazidskiy (tatar) bosh rejissyor sifatida faoliyat yuritdi. Avloniy o‘zi ham sahna asarlari yozdi. Shu tariqa uning «Pinak» (1915), «Advokatlik osonmi?» (1916) komediyalari sahnaga chiqdi. 1914-1916 yillarda truppa Farg‘onada bo‘lib, ularning tashrifi mahalliy matbuotda yoritilgan edi.

1914-yilda Abdulla Avloniy bir guruh taraqqiyparvar yoshlar bilan “Nashriyot” shirkatini tashkil qilib, Xadrada “Maktab kutubxonasi” kitob do‘konini ochdi va madaniy-ma’rifiy ishlar bilan shug‘ullandi. Toshkentda mahalliy o‘qituvchilar orasida siyosiy faoliyat olib boruvchi “O‘qituvchilar uyushmasi”ni tashkil qilgani ma’lum. 1917-yil aprelidan “Turon” gazetasini chop eta boshladi, biroq ikkinchi sonidan keyin uning muharriri va maqola mualliflari diniy jamiyatlar tomonidan “kofir” deb e’lon qilindi. Mirmuhsin yashirinib ketdi, Avloniy esa ikkinchi gazeta chiqarmaslikka tilxat berdi. Bu voqea Rossiya matbuotida ham katta shov-shuvga sabab bo‘ldi.

Avloniy 1918-yilda Toshkent shahar sovetining a’zosi, eski shahar ijroiya komitetining raisi, 1919–1920 yillarda esa Afg‘onistondagi elchixonada bosh konsul, Turkiston byurosining iqtisodiy ta’minot mudiri bo‘lib ishladi. “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Kasabachilik ishi” gazetalarida redkollegiya a’zosi va bosh muharrir bo‘ldi.

1920-yillarda pedagog olim sifatida faoliyat yuritib, 1924–29 yillarda harbiy maktabda, 1925–1934 yillarda esa O‘rta Osiyo Qishloq

xo‘jaligi maktabi va SAGUda dars berdi, tilshunoslik kafedrasida professor unvoniga ega bo‘ldi. Shu bilan birga, O‘znashr, Terminologiya komiteti va Davlat ilmiy kengashida ham faol ishladi. 1933-yilda o‘rta maktablar uchun 7-sinf adabiyot darsligini tayyorladi. 1934-yil 25-avgustda Toshkentda vafot etdi.

Avloniy 30 yildan ortiq ijod qildi. Uning “Birinchi muallim” darsligi 4 marta, “Ikkinchi muallim” esa 3 marta nashr etildi. “Ikkinchi muallim” darsligida 50 dan ortiq she’riy va proza hikoyalar bor, shuningdek Tolstoy va Krilovdan erkin tarjimalar ham kiritilgan. “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari esa uning eng e’tiborga molik ta’limiy-axloqiy kitobidir. Avloniy “Hijron” taxallusi bilan she’rlar yozdi.


Uning maktab darsliklari suhbat uslubida bolalarning nutqini rivojlantirish va badiiy so‘zlashuvga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 7-sinflar uchun tayyorlagan xrestomatiyasida M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Oybek, K.Yashin, Uyg‘un kabi yozuvchilar ijodini birinchi bor maktab darsliklariga kiritdi. Avloniy she’riyati ko‘proq axloqiy-ma’rifiy va ijtimoiy mavzularga bag‘ishlangan. Mashhur she’rlaridan “Maktab”, “Ilima targ‘ib”, “Millatga xitob”ni aytish mumkin. Uning komik va siyosiy dramalari ham mavjud: “Ikki sevgi”, “Biz va siz”, “Portug‘oliya inqilobi” kabi asarlarida ozodlik va milliy uyg‘onish g‘oyalari ilgari surilgan.

Avloniyning publisistika sohasidagi maqolalari – “Madaniyat to‘lqinlari”, “Hibzi lison”, “Jaholat” kabi – ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan. “Afg‘on kundaliklari” asari esa o‘zbek publisistikasi va memuar adabiyotining yorqin namunasidir.

Umuman olganda, Abdulla Avloniy o‘z davrining yorqin namoyandasi bo‘lib, o‘zining pedagogik, adabiy va jamoat faoliyati bilan o‘zbek madaniyati va ma’rifatiga katta hissa qo‘shdi.

Mavzuga oid topshiriq:

1. “O‘qituvchi va zamon” mavzusida pedagogik esse yozing.
2. “Eski maktab” va “zamonaviy maktab”lar ta’lim tizmidagi o‘xshashliklar va tafovutlarni ushbu chizma asosida izohlab bering.
Aylanalar kesishmagan sohada maktablarning o‘ziga xosligini, kesishgan joyida esa umumiy xususiyatlarini ifodalang.



Mundarija

1. Pedagogik g'oyalarning rivojlanish bosqichlari	6
2. Ibtidoiy jamiyatda tashkil etilgan tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.....	17
3. Xalq og'zaki ijodida tarbiyaga oid masalalarning ifodalanishi....	25
4. "Avesto" eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik.....	35
5. Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya taraqqiyoti.....	44
6. Temuriylar davrida ilm-fan, ta'lim-tarbiyaning ravnaq topishi.....	67
7. XVI asr va XX asr boshlarida maktab va ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti.....	95
8. O'zbekistonda 1917-1990-yillarda ta'lim tizimi va pedagogika.....	125

Nodira Saidova

UMUMIY PEDAGOGIKA (PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXI)

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir:

A. Qalandarov

Texnik muharrir:

G. Samiyeva

Sahifalovchi:

Z. Elmurotova

Dizayner:

M. Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –
maketdan bosishga ruxsat etildi: 24.11.2025. Bichimi: 60/84 ¹/₁₆
«Palatino Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma
qog'ozi. Bosma tabog'i 6.75 Adadi 20. Buyurtma № 378.
Bahosi kelishilgan holda.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46